


DILDORAXON ABDULLAEVA

TURKIY XALQLAR ADABIYOTI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

DILDORAXON ABDULLAEVA

TURKIY XALQLAR ADABIYOTI

Toshkent

2014

Ushbu kitobda turkiy qavmga mansub turk, ozarbayjon, qozoq, qirg'iz, turkman xalqlari adabiyotlarining ilk rivoji, og'zaki va yozma adabiyotining taraqqiyoti, jahon adabiyotidagi o'ziga xos o'rni, madaniyat va ma'naviyat sohasiga qo'shgan hissasi, turli davrlarda faoliyat ko'rsatgan ko'zga ko'ringan adiblarning hayoti va ijodi tahlil etiladi.

Kitob institut va universitetlarning 5120100 - Filologiya fakulteti ta'lim yo'nalishi bakalavr talabalari, magistr va katta ilmiy xodimlar, mustaqil tadqiqotchilar, filolog mutaxassislar, o'qituvchilar va barcha adabiyot ixlosmandlari uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir: D.Quronov - filologiya fanlari doktori,
professor

Taqrizchilar: H.Karimov - filologiya fanlari nomzodi, dotsent

A.Hamroqulov - filologiya fanlari nomzodi

Andijon davlat universitetining ilmiy kengashi yig'ilishida (2014 yil, 22- yanvar, 5sonli bayonnoma) nashrga tavsiya etilgan.

SO'ZBOSHI

Insoniyat tarixi taraqqiyotida qadimgi turkiylarning muhim o'rin tutganliklari, jahon tsivilizatsiyasiga munosib hissa qo'shganliklari tarixshunoslar tomonidan e'tirof etilgan. Eramizdan avvalgi asrlarda sak, massaget qabilalari Turon zaminda yashagan bo'lsalar, VI asr oxirlarida turk hoqonligi chegaralari Vizantiya, Eron, Hindiston va Xitoygacha borib yetgan¹. Bu hududlarda yashagan turkiy xalqlar qadimdan o'zining tarixi, madaniyati, tili, yozuvi, san'ati va adabiyotiga ega bo'lganlar. Turkiy qavmga mansub xalqlarning tarixiy ildizlari bir, tili, dini, urf-odat va an'analari, qadriyatlari mushtarak bo'lib, davrlar o'tishi bilan ayrim o'ziga xosliklar paydo bo'lgan. Qadimdan yonma-yon yashagan turkiy xalqlarning adabiyoti ham o'zaro ta'sir va adabiy aloqalar natijasida taraqqiy etgan. Turkiy qavmga mansub ayrim xalqlar milliy o'ziga xos xususiyatlar bilan rivojlanishi asnosida boshqa turkiy xalqlar bilan ham o'zaro aloqa va munosabatda bo'lgan hamda adabiyotlarining rivojida bir-birini boyitgan. Bu xalqlar adabiyotini alohida va qiyosiytipologik o'rganish umumturkiy adabiyot masalalarini hal etishda ahamiyat kasb etadi.

Dunyodagi har bir xalqning o'ziga xos betakror tarixi, madaniyati, adabiyoti bor. Muayyan xalqning tarixi shunchaki kechmish, voqea-hodisalardangina iborat bo'lmaydi, balki shu voqea-hodisalar ro'y bergan vaqtda bunyod etilgan madaniyat, san'at va adabiyotdan ham tarkib topadi. Har bir xalq, millat yaratgan madaniyat, san'at va adabiyot shu xalqning milliy merosi va boyligi sanaladi hamda shu xalqning nomi bilan ataladi, biror turkiy xalq tomonidan yaratilgan meros o'z navbatida barcha turkiy xalqlarning umummadaniy merosi hisoblanadi.

Sharq xalqlariga, shuningdek, yurtimizning tarixiy-ijtimoiy zaminiga alohida e'tibor qaratar ekan, Prezidentimiz I.A.Karimov, O'rta Osiyo hududidagi aholi azaldan vodiylarda,

¹ Гумилев Л.Н. Қадимги турклар. –Тошкент: “Фан”, 2007.- 9-бет.

katta suv manbalari – daryo va anhorlar bo'yida yashab kelgani, tabiati, iqlimi g'oyat murakkab bo'lgan mintaqa sharoitining o'zi bir necha xalq va millatlarning ming yillar davomida bir-biriga moslashib, yaqin yelkadosh bo'lib, bir-birining og'irini yengil qilib yashashini taqozo etganini ta'kidlagan edi. Turkiy xalqlarning tarqoq bo'lib yashashiga imkon yo'qligi, tabiatning o'zi, hayotning o'zi ularni shu ruhda tarbiyalaganligini aytib o'tadi: "Turmush va tafakkur tarzimizning ajralmas qismiga aylanib ketgan mana shunday azaliy tushunchalar mintaqamizda yashab o'tgan ulug' allomalar, mutafakkir zotlarning qoldirgan bebaho merosida ham o'zining yorqin ifodasini topgan. Misol uchun, Alisher Navoiy bobomiz bo'ladimi, Rudakiy, Abay, Maxtumdul yoki To'qtag'ul kabi ulug' zotlar bo'ladimi, ularning barchasi o'z ijodi bilan nafaqat ikki daryo oralig'idagi xalqlarni, balki butun bashariyat farzandlarini doimo mehr-oqibatli, do'st-birodar bo'lib yashashga da'vat etgani bejiz emas, albatta. Otabobolarimiz necha asrlar mobaynida shu bepoyon mintaqada qanday hamjihat bo'lib, qanday qadriyatlar asosida yashab kelgan bo'lsa, bugun ham, ta'bir joiz bo'lsa, tarix va hayot gardishi, tabiatning o'zi bizni – butun O'rta Osiyo xalqlarini aynan ana shunday do'stlik va hamkorlik ruhida hayot kechirishga da'vat etmoqda"¹.

Turkiy zamindagi adabiyot — xalqning orzu-umidlari, intilishlari – badiiy-estetik ideallarini ifodalovchi vosita sifatida maydonga kelgan. Bu adabiyot har xil adabiy tur va janrlarda taraqqiy topib bordi. She'riy va nasriy asarlar adabiyotning asosiy ko'rinishini tashkil etadi. Qadim zamonlardan beri davom etib kelayotgan adabiyot va uning o'ziga xos taraqqiyotida to'plangan bilimlar yig'indisi fanning predmeti, bu bilim va tajribalarni kelajak avlodlarga yetkazish, o'rgatish fanning vazifasini belgilaydi. Turkiy xalqlar adabiyoti fani adabiyot tarixi yo'nalishidagi sohalardan biri hisoblanadi. Bu fan umumturkiy xalqlarning uzoq yillar, asrlar davomida yaratilgan adabiyotini o'z ichiga oladi. Fan sifatida har bir turkiy xalqning badiiy adabiyotini, uning tarixiy taraqqiyotini o'rganadi va o'rgatadi.

¹ Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, 2008. – 9-10-b.

Hech bir tarixiy taraqqiyot bir xilda tekis va ravon kechgan emas, doimo ko'rinishi, shakli, mazmuni o'zgarib, har o'zgarganda yangi xususiyatlar kasb etib kelgan. Turkiy xalqlar adabiyoti tarixi ham turli zamonlarda goh ko'tarilish, goh susayishlar bilan taraqqiyot yo'lidan borgan. Hech bir xalqning adabiyotini uning tarixiy davridan ayri holda o'rganish mumkin bo'lmaganiday, turkiy xalqlar adabiyotini ham o'z asl mohiyatidan kelib chiqib tahlil etish zarur. Aslida, dunyoda qaysi xalq bo'lmasin, uning adabiyotini, tarixini xolislik va ilmiylik tamoyillari asosida tekshirish to'g'ri bo'ladi.

Bugungi kunda bir negizga mansub bo'lgan turkiy xalqlar o'rtasidagi adabiy-madaniy aloqalarni rivojlantirish, ularning o'zaro totuvligini yanada mustahkamlash davr talabidir. Oliy o'quv yurtlari dasturiga "Turkiy xalqlar adabiyoti" fanini kiritilishining tub sabablari bor. Birinchidan, hozirgi davrdagi siyosiy maqsadimiz adolatli jamiyat va demokratik davlat qurish bo'lib, millat va xalqlarning erkinliklari qonuniylashgan davrda yashamoqdamiz. Har bir xalq o'ziga qon-qarindosh bo'lgan xalqning tarixi, madaniyati, san'ati va adabiyotini chuqur bilsa, bu uning farovon kelajagi uchun ham omildir. Ikkinchidan, hozirgi vaqtda mamlakatimizda yashaydigan turli millatlar va xalqlarga o'z an'ana va merosini tiklab, o'rganish hamda targ'ib qilish imkoni ham berilgan. Davlatimiz tomonidan qo'shni turkiy xalqlar bilan nafaqat diplomatik, balki madaniy-adabiy sohalarda ham samarali aloqalar yo'lga qo'yilgan. Xususan, qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq, ozarbayjon, turkman, turk adiblarining tavallud kunlariga bag'ishlangan ilmiy-amaliy anjumanlar, tadbirlar, adabiy kechalarning o'tkazilishi, "Respublika baynalminal markazi"ning faoliyat olib borayotganligi, radio va televideniya qardosh turkiy tillarda dasturlar va eshittirishlarning muntazam namoyish etilishi, mazkur tillarda matbuot nashrlarining mavjudligi mamlakatimizda "Turkiston umumiy uyimiz" g'oyasini shakllantirishda muhimdir. Umumturkiy xalqlarning o'ziga xos adabiyoti, san'ati va madaniyati, urf-odat va an'analari, tarixiy-adabiy merosini o'rganish orqali ular bilan insonparvarlik, tinchlikparvarlik yo'lidagi munosabatlarni yanada mustahkamlash mumkin.

Kitob turkiy xalqlar adabiyoti kursi uchun tuzilgan bo'lib, bu kurs respublikamizning pedagogika institutlari va universitetlarida filologiya mutaxassisligi bo'yicha bakalavr darajasini oluvchi talabalarga o'qitiladi. Kursni o'qitishdan maqsad turkiy xalqlar adabiyoti tarixining eng qadimgi davr yodgorliklari, xalq og'zaki poetik ijodidan to bugungi kunga qadar bo'lgan davrdagi adabiy jarayon, madaniy muhit hamda yozuvchi, shoir va dramaturglar hayoti va ijodi, ularning asarlarida olg'a surilgan g'oyalar bilan tanishtirishdir. Oliy ta'lim muassasalari uchun tuzilgan dasturda ko'rsatilganidek, turkiy xalqlar adabiyoti fanining maqsadi "badiiy adabiyot tarixi va adabiy-nazariy tafakkur tadrijining shaxs va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatini ko'rsatib berish, talabalarning adabiy-estetik tafakkurini, yuksaltirish, ilmiy mushohadaning vujudga kelishi ko'nikmalarini hosil qilish, faol ijodkorlik ruhi va mas'uliyatini shakllantirishdan iborat. Shu ma'noda quyidagi vazifalar muhimdir: badiiyat namunalarini individual, milliy va umuminsoniy jihatlarini ilmiy tahlil qilish; turkiy xalqlar adabiyotining millat va jamiyat ravnaqidagi o'rnini va ahamiyatini talabalarga tushuntirish; talabalarda badiiy adabiyotni tushunish ko'nikmalarini shakllantirish; badiiy asarni idrok qilish hamda uni filologik nuqtai nazaridan tahlil va tadqiq etish malakasini hosil qilish; adabiyot va inson o'rtasidagi munosabatni badiiylik qonuniyatlari asosida rivojlantirishni; turkiy xalqlar adabiyotda yangi shakllanayotgan va ommalashayotgan adabiy hamda ilmiy metod va yo'nalishlarni jamoatchilik fikriga tayangan holda taraqqiy ettirish; milliy va umuminsoniy adabiy-nazariy an'analarni xalqning adabiy-estetik didini yuksaltirishdan iborat".

Kitobda turkiy xalqlar adabiyoti dastlab xalq og'zaki ijodi shaklida paydo bo'lib, taraqqiy etgani bois har bir xalqning folklori, so'ng yozma adabiyotining tarixiy bosqichlari, adabiy tur va janrlar taraqqiyoti hamda ayrim yirik namoyandalarning hayoti va ijodi tahlil etildi, mashhur adiblar ijodidan namunalar berildi.

TURKIY XALQLARNING ILK ADABIYOTI

Reja:

1. Qadimgi turkiy xalqlar adabiyoti tarixining o'rganilishi.

2. Turkiy xalqlar genezisi. Ilk badiiyat namunalari.

3. Yozma adabiyot manbalari.

4. X-XII asrlar adabiy yodgorliklari.

Tayanch soʻz va iboralar: turkiy qavm, mif, afsona, epos, qadimgi adabiy yodgorliklar, bitiktoshlar, Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk” asari, “Oʻgʻuznoma”, “Qutadgʻu bilig” asarlari.

Turkiy qavmga mansub xalqlar deganda oʻzbek, qozoq, qirgʻiz, turkman, qoraqalpoq, uygʻur, tatar, boshqird, chuvash, ozarbayjon, qorachoy, turk, qoʻmiq, balqar kabi qirgʻaqa yaqin millatlarni nazarda tutamiz. Qadimda bu xalqlar Oʻrta Osiyo, Markaziy Osiyo va Kichik Osiyoda, Rossiyaning kattagina qismida joylashgan hududlarda hayot kechirganlar. Ular yaratgan adabiyot namunalari chuqur oʻrganish orqali oʻsha davrdagi ajdodlarimizning falsafiy-estetik dunyoqarashi, badiiy olami, ruhiy-maʼnaviy hayotini anglash mumkin.

Xalqimiz tarixi, qadimgi turkiylar tarixi, madaniyati, urf-odatlar, oʻziga xos betakror jihatlari haqida bir qator manbalarda maʼlumotlar mavjud. Turli xildagi yozuvlar, narsa-buyumlar, ashyolarda, “Avesto”, “Bexistun”, Oʻrxun-Enasoy kabi yozma yodgorliklarda, Beruniy, Narshaxiy, Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshoh, Muhammad Solih, Hofiz Tanish al-Buxoriy, Bayoniy kabi tarixchilarning asarlarida¹, shuningdek, grek, xitoy, hind, arman tarixchilarining asarlarida ham koʻplab maʼlumotlar bor². Tarixshunoslar

¹ Абулғозий. Шажарайи турк.-Т.,1992; Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри.-Т.,1993;Беруний Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар - Т., 1968; Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг.- Т.,1960;

М.Қошғарий. Девону луғотит-турк. Уч жилдлик.-Т., 1960-1963; Абу Тоҳирхожа. Самария.-Т.1991; Наршахий. Бухоро тарихи.-Т.,1991; Низомулмулк. Сиёсатнома ёки сияр ул-мулк. -Т.,1997; Амир Темур. Темур тузуклари.- Т.,1991; Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи.- Т.,1994; Шихобиддин анНасавий. Султон Жалолиддин Мангуберди ҳаёти тафсилоти. -Т.,1999; Низомиддин Шомий. Зафарнома. -Т.,1996; Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. - Т., 1997; Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи. Икки жилдлик. -Т., 1992; Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланом. -Т., 1999; Муҳаммад Солиҳ.

Шайбонийнома. -Т., 1989; Баёний. Шажарайи Хоразмшоҳий.- Т.,1991.

² Геродот. История. - М., 1972; Ксенофонт. Греческая история. - М., 1935; Полибий.Всеобщая история. М.,1980-1989; Арриан. Поход Александра. - М.Л., 1962; Страбон. География в 17 книгах.- М., 1964; Курций Руф. История Александра Македонского. - М.,1963.

I.V.Pyankov, N.G.Gorbunovalarning asarlari ham muhim manbadir¹. Qadimgi turkiylar haqidagi ma'lumotlar Xitoy yozma manbalarida ham keltiriladi. «Tarixiy guvohliklar» (mil.av.I asr), «Ulug' Xan xonadoni tarixi» (milodiy I asr), «Kichik Xan xonadoni tarixi» (milodiy V asr), «Vey xonadoni tarixi» (milodiy VI asr), «Shimoliy podshohliklar (Beyshi) tarixi» (milodiy VII asr) va boshqalar. Rus sharqshunoslari va turkologlarining ilmiy ishlari ham muayyan ahamiyatga ega².

O'zbek olimlarining bu boradagi ilmiy ishlari ham salmoqli o'rinni egallaydi. Tarixshunoslar B.Ahmedov, T.Saidqulov, adabiyotshunoslardan akademik A.Qayumov, B.To'xliiev, N.Rahmonov, H.Boltaboevlarning asarlari diqqatga sazovordir¹.

Turkiy qavmga mansub xalqlarning og'zaki va yozma adabiyoti ularning tarixi singari boy va qadimiydir. Turkiy tilda so'zlovchi xalqlar ana shu qadimiy boy adabiyot taraqqiyotiga o'zlarining muayyan hissalarini qo'shganlar. Ularning og'zaki badiiy ijodiyotida mushtarak jihatlar bo'lishi bilan birgalikda mazkur xalqlar folklorida o'ziga xos xususiyat kasb etuvchi janrlar ham mavjud. Masalan, latifalar, turli marosim va mehnat qo'shiqlari, maqollar va ertaklar turk, ozarbayjon, turkman, o'zbek xalq og'zaki ijodida ham keng tarqalgan. Turkiy xalqlar folkloridagi hajm jihatidan katta, badiiyat jihatidan o'ziga xos jozibaga ega bo'lgan dostonlar jahon xalqlari folklorida ham katta mavqega ega. "Go'ro'g'li" turkumidagi dostonlarning usmonli turklarda, ozarbayjon, turkman va o'zbeklarda bir qancha variantlari uchraydi. "Alpomish", "Manas", "Dada Qo'rqut" kabi dostonlar haqida ham shuni aytish mumkin. "Oshiq G'arib", "Qizjibek", "Qo'blandi botir", "Qirqqiz", "Shahriyor" kabi qahramonlik dostonlari esa jahon adabiyotining o'lmas obidalari qatoridan munosib o'rin olgan. Bundan tashqari turkiy xalqlarning tarixiy taqdiri, hayot tarzi, qarashlari, ilm va madaniyati haqida zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto" ko'plab ma'lumotlar beradi. Qadimgi grek tarixchisi Gerodotning "Tarix" nomli kitobida Markaziy Osiyoning eng qadimgi xalqlari —ibtidoiy jamiyat sharoitida

¹ И.В.Пьянков. Средняя Азия в известиях античного историка Ктесия. - Душанбе, 1975; Н.Г.Горбунова Фергана по сведениям античных авторов. История и культура народов Средней Азии. - Л.,1976.

² С.Е.Малов. Памятники древне-тюркской письменности.- М.,1951; Енисейская письменность тюрков. Текст и переводы. – М.-Л.1951; А.Сагдуллаев. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. -Т.,1996;

yashaganligi va asosan, chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanganligi aytilsa², Strabonning "Geografiya", Polienning "Harbiy hiylalar" kabi asarlarida juda qadim zamonlardan bu hududlarda xilma-xil qaysar, yovvoyi va urushqoq qabilalar yashaganligi va ular o'zaro munosabatlarida halollik, mardlik, vatanparvarlik, va odillikni har narsadan afzal bilganliklarini qayd etadilar. "To'maris", "Shiroq", "Amorg

Л.Н.Гумилев. Древние тюрки.-М.,1960; А.Ю.Якубовский. К вопросу об этногенези узбекского народа.- Т., 1941.

¹ Б.Ахмедов. Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари.-Т.,1991; Т.Саидкулов. Ўрта Осиё халқлари тарихининг тарихшунослигидан лавҳалар. - Т.,1993.

² Геродот. Мелпомена/ Қадимги тарихчилар Ўрта Осиё ҳақида.- Тошкент: "Юрист-Медиа маркази", 2008.- 6-бет.

va Sparetra" kabi asarlarning mazmun-mohiyati ma'lum ma'noda bu fikrlarni tasdiqlaydi¹.

Qadimgi xalqlarning geografik joylashish o'rni Baqtriya, Xorazm, So'g'diyona, Marg'iyona, Parfiya, Amudaryoning quyi qismi, Zarafshon vohalari va boshqa joylarni o'z ichiga olgan. Bu yerlarda xorazmiy, sug'diy, sak, massaget kabi qabilalar, chigil, yag'mo, tuxsi, o'g'uz, tangut kabi elatlar istiqomat qilganlarki, bular hozirgi turkiy xalqlarning ajdodlari ekanligi shubhasizdir. Olib borilgan arxeologik qazilmalar va qidiruv ishlari so'ngida topilgan Ko'hitang yozuvlari, Ilonsoy (Samarqand), Xojikent (Tosh), Teshiktosh (Farg) deb ataluvchi joylardan topilgan yozuvli suratlar, turli xil asbob-anjomlar, uy-ro'zg'or buyumlari, kumush va tilla tangalar ana shu xalqlarning madaniyati yuksak bo'lganligidan darak berib turadi.

Markaziy Osiyo xalqlarining eng qadimgi davrlarga oid ayrim og'zaki ijod namunalari ham yuqorida zikr etilgan manbalar orqali bizgacha yetib kelgan. Ular badiiyatimiz ibtidosi bo'lgan miflar, afsonalar, qahramonlik eposlari hamda lirik she'r va qo'shiqlardir.

Tafakkur tarzining quyi darajasi sharoitida inson o'z atrofini o'rab turgan olam haqida real tasavvurga ega emas edi. Tabiat hodisalarining keskin o'zgarishi, hayvon,

¹ Геродот. Тарих . 204-215./ Қадимги тарихчилар Ўрта Осиё ҳақида.- Тошкент: "Юрист-Медиа маркази", 2008.- 64-69-бетлар.

hashorotlarning hujumi va ulardan himoyalanişga urinish qadimgi insonning mifologik olamini shakllantirdi. Miflar ilk obrazli tafakkurning mahsuli sifatida yaratildi. Tabiat va koinot sirlariga qiziqish, atrof, olam ajoyibotlarini tushunishga urinish asnosida turkiy miflar maydonga kelgan. Garchi miflar badiiy adabiyot namunasi bo'la olmasa-da, keyinchalik yaratilgan badiiy asarlar uchun asos vazifasini bajargan.

N.A.Kunning aniqlashicha, "Antik madaniyatning barcha Yevropa xalqlari taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'siri mutlaqo shak-shubhasizdir. Shuni e'tirof etish kerakki, mo'jazgina grek xalqining miflari umumbashariy madaniyat asosini tashkil etgan holda ohanrabo qudratiga molik bo'lib, u hozirgi zamon kishisining tasavvuri va tafakkuri tarziga juda chuqur kirib borgandir. Badiiy adabiyotda kuchli inson Gerkules (greklarda Gerakl)ga, jasur va barqaror ayol amazonkaga o'xshatiladi"¹. Olimning qayd etishicha, rassomlar, shoirlar va haykaltaroslarni dastavval mifik timsollarning teranligi va badiiyligi jalb etadi. Odamlarga ta'sir etadigan o'sha kuch-qudrat izohi faqat yunon mifologiyasida mujassamdir deyish tamoman o'rinli emas. Chunki mifologiya qadimgilarning yerda hayotning paydo bo'lishini, tabiatdagi stixiyali hodisalarning yuz berishi sabablarini tushuntirishga bo'lgan urinishi sifatida, inson o'z atrof-muhitidagi o'rnini aniqlashga o'z bo'lgan davrda paydo bo'lgan edi².

Miflarda ajdodlarimizning borliq haqidagi tasavvurlari, ilohiy kuchlar to'g'risidagi inonch-e'tiqodlari mujassamlashgan. Tarixiy taraqqiyot tufayli inson ongi shakllana borgach, yovuz va ezgu kuchlar haqidagi tasavvurlar o'zgarib, ayrim inonchlar yo'qolib borgan, biroq batamom yo'qolib ketmagan. Xalq ertaklari, dostonlarida qadimgi miflar, inonchlarning izi saqlanib qolgan. Qadimgi turkiylar zaminida turli dinlar hukm surgan. "Turk xoqonligida yashagan xalqlarning diniy e'tiqodi, tasavvurlari ham turlicha bo'lgan, ko'p xudolilik xukm surgan. Bu esa ularda turli xil osmoniy va yer jismlari - quyosh, oy, yer-suv, hayvonlar va boshqa narsalarga sig'inishni keltirib chiqargan. Osmon xudosi

¹ Н. А. Кун. Қадимги юнон афсона ва ривоятлари. (Рус тилидан Пошали Усмон ва Фазлиддин Шукур таржимаси.) - Самарқанд, "Зарафшон" наш-ти, 2005. - 3-бет.

² Абсамиев Х. Туркий халклар адабиёти. – Самарқанд, 2004.

Tangri turk qavmlarining eng oliy xudosi hisoblangan. Hozirda ham «Tangri» iborasi Alloh nomiga nisbat sifatida qo'llaniladi"¹.

Miflar inson badiiy tafakkurining ilk shakli sifatida namoyon bo'ladi, shu orqali o'zini anglash jarayoniga ham omil bo'la oladi. Qadimgi grek miflarida turli qahramonlar va ma'budlarning hayoti, sarguzashtlari va faoliyati tasvirlanadi. Bunday miflar katta turkumlarga birlashadi. Masalan, yunon qo'shiqchilari – aedlar tomonidan afsonalar va qo'shiqlar kuylangan. Davrlar o'tishi bilan ular Gomerining «Iliada» va «Odissey», Gesiodning «Teogoniya» hamda «Mehnat va kunlar» va boshqa katta epik dostonlarga singib ketgan. Ma'lum bo'lishicha, yunon shoirlari – Esxil, Sofokl, Yevripidlar o'z tragediyalarini xudolar va qahramonlar haqidagi qadimgi miflarga asoslanib ijod etganlar.

Turon zaminida paydo bo'lgan miflarning yunon miflari bilan uyg'unlik jihatlari yaqqol ko'zga tashlanadi.

Afsonalar mazmun-mohiyatida biz inson tafakkuri bilan bog'liq tadrijiy taraqqiyotni kuzatamiz. Afsonalar syujetida xudo va ma'budlardan boshqa timsollar ham ishtirok etadi. Ular real insonlar – o'z kuch-qudratiga ishongan yengilmas pahlavonlar bo'lib, o'zlaridan yuzlab marta katta va bahaybat bo'lgan dev, ajdar va boshqa kuchlar ustidan g'alaba qozona oladi. "Elikbek", "Siyovush", "Rustam" haqidagi afsonalar shular jumlasidandir.

Dostonlar mazmun mohiyatiga ko'ra mif va afsonalardan jiddiy farq qiladi. Qahramonlik dostonlarida hayotiy, real voqea-hodisalar tasvirlanadi. Dostonlar markazida mard, dovyurak, vatanparvar, or-nomusli qahramonlar timsoli turadi. Ular xayoliy dev-ajdarlar bilan emas, bosqinchilarga qarshi kurashadilar. "Gilgamish", "Alpomish", "Rustamxon", "Manas" kabi dostonlar shular jumlasidandir. XI asr tilshunos olimi M.Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" asari orqali XI asr va bu asrga nisbatan ham besh-olti asr qadimiyroq bo'lgan turli xil mavzu va mazmundagi she'r va qo'shiqlar yetib kelganki, bular ajdodlarimiz hayot tarzi, tuyg'u-kechinmalari, orzuintilishlarini ifodalovchi

¹ Қ.Усмонов, М.Содиқов, С.Бурхонова. Ўзбекистон тарихи. – Т., 2005. 91-б.

she'rlardir. Mif, afsona, qahramonlik eposi, lirik she'r va qo'shiqlardan iborat eng qadimgi adabiy yodgorliklar umumturkiy xalqlar ma'naviy tarixini o'rganishda qimmatlidir.

Jahondagi barcha xalqlar og'zaki ijodida o'zlarining kelib chiqishi tarixi haqidagi afsona va rivoyatlar, naqlar uchraydi. Turkiy xalqlarning kelib chiqishi, tarixi haqida ham ko'plab rivoyat va afsonalar yaratilgan. Insoniyat tarixining Nuh payg'ambar o'g'illaridan boshlanishi haqidagi rivoyatga ko'ra turk qavmlari Nuhning Yofas nomli o'g'lining avlodidir¹. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridagi she'riy parchalar turkiy xalqlarning eng nodir adabiy yodgorligi bo'lishidan tashqari, qadimgi davr haqida ma'lumot beruvchi asosiy manbadir. Devondagi Alp Er To'nga nomi bilan bog'liq parchalar tugal bir asarni tashkil etgan degan fikrlar bor. Alp Er To'nga tarixiy shaxs bo'lib, ayrim manbalarga ko'ra eramizdan oldingi VII asrlarda yashagan². Bu shaxs haqida ko'plab asarlarda ma'lumot beriladi. Jumladan, Mahmud Koshg'ariy o'z asarida Alp er To'nganing forscha nomi Afrosiyob ekanini ta'kidlaydi. Alp turkcha bahodir, To'nga yo'lbarsga o'xshash hayvon. U kuchlilikda filni yiqitadi. Er – shijoatli odamdir. Alp Er To'nganing ma'nosi "yo'lbars kabi kuchli, bahodir er kishi demakdir³. Uning asl ismi Maday bo'lgan. Eronliklar uni Afrosiyob deb atashgan. Firdavsiyning "Shohnoma" asarida ham Afrosiyob Turonning podshosi bo'lganligi, uning mard, jasur va tadbirkor podshoh bo'lganligi haqida ma'lumotlar beriladi. Umuman, Alp er To'nga haqida Sharq adabiyotida ko'plab asarlar yozilgan. Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" kitobida Alp er To'nga haqida yozilgan dostonidan ko'plab parchalar keltirilgan. Bularda Alp er To'nganing qahramonliklari, Turon tuprog'ini chet el bosqinchilaridan himoya qilishi, Eron bilan olib borgan janglari hikoya qilinadi.

Turkiy xalqlarning kelib chiqishi haqida bir necha afsonalar bor. Ulardan birida quyidagi voqea bayon etiladi: "G'arbiy dengiz qirg'og'ida yashagan turkiylarning otaboblari qo'shni qabilalar tomonidan qirib tashlandi. Faqat o'n yoshli bola yashirinib tirik qoldi.

¹ Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. 16-том. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. - Тошкент: Фан, 2000. - 106-бет.

² Алп Эр Тўнга ёки Афросиёб жангномаси. - Тошкент: Чўлпон, 1995. - 4-бет.

³ Кўрсатилган асар, 4-бет.

O'sha yerda yashaydigan urg'ochi bo'ri unga xotin bo'ldi. Ochlikdan qutqarish, dushmanlardan yashirinish uchun bo'ri o'sha bolani olib Turfon tog'lariga qochib ketdi. Tog'da bir g'or bor edi. U yerda urg'ochi bo'ri o'nta bola tug'di. Bolalarning otasi o'sha qutqarilgan turk edi. Bo'ri bolalari Turfondagi ayollarga uylandi. Har bir boladan bir urug' kelib chiqdi. O'g'illaridan birining ismi Ashin edi. Uning nomi hamma qabila nomini anglatadigan bo'ldi. Ashin boshqa aka-ukalariga qaraganda qobiliyatliroq, ham aqlliyoq edi. Shu sababli Ashin yangi qabilaning dohiysi bo'lib qoldi. Urug' soni asta-sekin bir necha yuz kishiga yetdi. Ashinning merosxo'rlaridan biri, qabila dohiysi Asyan shad bo'ri avlodlarini Turfondan Oltoy yerlariga olib keldi. Bo'ri avlodlari bu yerda jujanlarning fuqarosiga aylanib, ularga temir qazib berar edilar. Oltoyda ular turk nomini oldilar.

Afsonaga ko'ra, "turk" so'zi Oltoy tog'ining eng qadimgi nomidan kelib chiqqan"¹.

Yana bir afsonada ham bo'ri kulti namoyon bo'ladi: Turk qabilasining ota-bobolari shajarasi So saltanatiga borib taqaladi. Bu saltanat Oltoyning shimolida joylashgan edi. Qabila boshlig'i Abanbuning o'n yettita ukasi bor bo'lib, shulardan biri Ichasin Ishid "Bo'ri o'g'li" deb nom olgan edi. So saltanati dushmanlar tomonidan kunpayakun qilindi. Omon qolganlari qirilib ketdilar. Bo'ri o'g'li juda tadbirkor edi. Shu sababli imkoniyat topib, urug'ini qiyin ahvoldan olib chiqdi. Uning o'g'illaridan biri Oqqush bo'lib, Abakan daryosi bo'ylarida hukmronlik qildi. Ikkinchi o'g'li esa Tsigu saltanatiga asos soldi. Bu saltanat Kama daryosi bo'ylarida edi. Uchinchi o'g'li esa Chjuchje daryosi bo'ylarida hukmronlik qildi. Katta o'g'li Nudulu shad G'arbiy Sayanga o'rnashdi. Nudulu shadning o'nta xotini bo'lgan. Uning o'g'illari onasining qabilasi nomini oldilar. Eng kichik xotining o'g'li Ashin edi. Nudulu shad vafotidan keyin taxtga birontasi o'tirishi kerak edi. Shunda aka-ukalar, kimki kuchli va epchil bo'lsa, o'sha urug' yo'lboshchisi bo'ladi, deb qaror qildilar. Musobaqada Ashin g'alaba qildi. U Asyan shad nomini olib, urug' boshi bo'ldi. Uning vafotidan keyin esa o'g'li Tuu taxtga o'tirdi. Tuuning o'g'li Tumin (Bo'min) turk hoqonligiga asos soldi"².

¹ Раҳмон Н. Турк ҳоқонлиги тарихи. – Тошкент, 1993. – 42-бет.

² Раҳмон Н. Турк ҳоқонлиги. - Тошкент, 1993. – 43-бет.

O'tmishda har bir xalq o'zining kelib chiqishini biror hayvon, jonzod, o'simlik yoki buyumga bog'lagan. Gumilyovning "Qadimgi turklar" kitobida ham ushbu masalaga to'xtab o'tilgan. Bunday totemistik dunyoqarash qadimgi dunyo odamlarining olam va borliq, tabiat va boshqa narsalar bilan munosabatini anglashga nisbatan, o'zining kelib chiqishi, ibtidosiga bo'lgan qiziqishi tufayli shakllangan. Ashin qabilasini xitoylar Tu-kyu deb ataganlar. "Turk atamasi kuchli, mustahkam, demakdir. Ashina esa bo'ri degani... Ashina – himmatli, mard bo'ri degan ma'nodadir" ¹.

Qadimgi turkiy xalqlarning umumiy yodgorligi bo'lgan "O'g'uznoma", "Dada Qurqut" kabi dostonlar ham mavjud². Dostonlarda aks ettirilgan voqealarning ko'pchiligi miloddan oldingi davrlarda bo'lib o'tgan. Qadimgi yunon tarixchilarining asarlari orqali yetib kelgan "To'maris", "Shiroq" nomli afsonalar mazmuni ham barcha turkiy xalqlarga tegishli hisoblanadi. Xorazm hududida paydo bo'lgan zardushtiylik dini bilan bog'liq bo'lgan afsona va rivoyatlar ham turkiy xalqlarning tarixini aks ettiradi. Bu dinning muqaddas kitobi bo'lgan "Avesto"dan bizgacha yetib kelgan parchalar madaniyatimiz tarixi juda boy va rang – barang bo'lganidan darak beradi. Zarina, Rustam, Siyovush haqidagi afsonalar ham turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan.

Zarina haqidagi qissa sitsiliyalik tarixchi Diodorning "Kutubxona" asarida bayon qilinadi. "Zarina va Striangiya" nomli bu qissa tarixchi Kteziy(430-354)ning kitobi asosida uning qisqa mazmuni beriladi. Diodor quyidagicha yozadi: "Bu paytlarda saklarda Zarina ismli, jangovor xislatlarga ega ayol podsholik qilardi. Umuman, bu qabilada ayollarning bari jangovor bo'ladi va urush azoblarini erlari bilan birgalikda tortishadi. Zarina o'lka yerlarining katta qismini madaniy holatga keltirib, ko'p shaharlar barpo etdi"³.

Malika Zarinaning eri o'lgach, u qabilaga boshliq bo'ladi. Shaklar va midiyaliklar o'rtasidagi janglarda qabilaning mustaqilligi uchun kurashib Zarina shijoat ko'rsatadi. Midiya shahzodasi Striangiya Zarinani yaralaydi, biroq unga maftun bo'lib qolgani uchun

¹ Ўша жойда.

² Дада Қўркут хикоялари /Туркий халқлар ижодиёти (Тарж.З.Очилова).- Тошкент, 2010.

³ Қадимги тарихчилар Ўрта Осиё ҳақида. Таржимон ва тузувчи З.Аълам. – Тошкент: Юрист Медиа маркази, 2008 – 57- 58-б.

asir olmay, uni kechiradi. Bir qancha vaqt o'tib Parfiya shohi shaklarga hujum qilib, Zarinaga zo'rlik bilan uylanadi va qabilani o'ziga qaram qiladi. Parfiya va Midiya o'rtasida bo'lib o'tgan janglarda Striangiya ham asir qilib olinadi. O'z qabilasining mustaqilligi uchun kurash g'oyasidan to'xtamagan Zarina asirlar bilan birga Parfiya shohiga qarshi to'satdan hujum qiladi va uni yengadi. Midiya shahzodasi Zarinaning mardligi, shijoatini ko'rib sevib qoladi. Ayol Striangiyaning oilasi borligi uchun uning uylanish taklifini rad qiladi. Striangiya bundan qayg'urib, o'zini o'ldiradi.

“Zariadr va Odatida” sevgi va qahramonlik mavzusida bo'lib, Xaris Mitilenskiyning asari orqali yetib kelgan. Midiya hukmdori Gushtasbning ukasi Zariadr Kaspiy dengizidan Tanais (Sirdaryo)gacha cho'zilgan o'lkada hukmronlik qiladi. Daryoning narigi qirg'og'ida yashagan skif shohi Omargning qizi Odatida bilan Zariadr bir-birini tushida ko'rib sevib qolishadi. Yigit qizga sovchi yuborganda Omarg qizini uzoqqa berishni istamaydi. Zariadr daryoni kechib o'tib bu yurtga keladi. Omarg bu vaqtda qiziga, senga qaysi yigit yoqsa o'shanga oltin qadahda may tutasan, deb ziyofat uyushtirgan edi. Zariadr skif kiyimida ziyofatda qatnashadi. Qiz unga oltin qadah tutadi. Zariadr Odatidani olib yurtiga ketadi.

Mazkur qissada er va ayolning erki, huquqi masalasi qahramonlik motivlari bilan bog'lanib ketadi. Keyingi davrlardagi katta epik asarlar “O'g'uznoma” va “Alpomish” uchun ushbu mavzu yetakchilik qildi.

Rustam obrazi qahramonlik eposlarining asosiy personajlaridan biridir. U dastlab og'zaki, so'ng yozma adabiyotda ishlendi. So'g'd eposida Rustamning devlarga qarshi kurashgani bayon qilinadi. Rustam devlarni ularning shahar darvozasigacha quvib boradi. Ko'p devlar halok bo'lib, qolganlari shahar darvozasini berkitib oladi. Rustamning oti Raxsh yaylovda o'tlab yurganda, devlar qo'qqisdan hujum qiladi. Rustam bu paytda g'alabadan keyin uxlar edi. Uni oti Raxsh uyg'otadi. Rustam orqaga qarab ot surib ketib, devlar uni quvganda shiddat bilan devlarning ustiga ot soladi.

Yozma adabiyotda Rustam obrazi hayotiy tasvirlanib, zolim shohlarga, yovuzlik va adolatsizlikka qarshi kurashuvchi qahramon sifatida yaratildi.

Siyovush dastlab mifologik xudo obrazi sifatida tasvirlanadi. U husn jamolda tengsiz edi, o'gay onasining ehtiroslarini rad etgani uchun malomatga qoladi. Siyovush o'zining pokligini isbotlash uchun olov ustidan otida sakrab o'tadi. O'gay ona bilan yuz ko'rishmaslik uchun Afrosiyobning oldiga boradi. Afrosiyob unga qizini beradi. Fitnachi amaldorlar Siyovush va Afrosiyob o'rtasiga adovat solib, shohning o'z kuyovini o'ldirishiga erishadilar. Siyovushning o'g'li Kayxisrav bobosi Afrosiyobdan qasos olib uni o'ldiradi. Kayxisrav Xorazmshohlar sulolasiga asos solgan deyiladi.

Umumturkiy adabiyotga oid doston "O'g'uznoma"dir. Ma'lum bo'lishicha, O'rta Osiyoda chig'atoy tilida qator "O'g'uznoma"lar bitilgan. Taniqli olim X.Ko'ro'g'li asar haqida quyidagicha fikr bildirgan: "O'g'uznoma" atamasi... dastlab Abu Bakr b. Abdulloh b. Oybek ad Davadari (XIV asr) asrida uchraydi. Rashiduddinda qayd etilgan, lekin bizgacha yetib kelmagan nusxa hamda Parij Milliy kutubxonasida saqlanayotgan uyg'ur yozuvidagi "O'g'uznoma" ham taxminan o'sha davrga xosdir. Bundan tashqari, XV- XIX asrlarda O'rta Osiyoda chig'atoy tilida bitilgan qator "O'g'uznoma"lar haqida ma'lumotlar mavjud... Bizgacha yetib kelgan O'rta va Markaziy Osiyoda yaratilgan "O'g'uznoma"lar uzoq bo'lib, o'g'uzlarning boy epik ijodi haqida "Kitob dedam Qo'rqud" kabi tasavvur bera olmaydi"

(X.Korogly. «Rodoslovnaya turkmen» Abulgazi i oguzskiy epos». "Turkologik", L., 1976). Tilshunos olim V.V.Radlovning "Qadimgi turki lug'at"ida O'g'uzxon haqida ma'lumot berib XIII yuz yillikka oid bu afsona mazmunan epikligi, XV asrga daxldor yagona nusxasi uyg'ur yozuvida bitilgani va har birida 9 qator yozuv bo'lgan 42 sahifadan tashkil topganligi, uning Parij Milliy kutubxonasida saqlanishini qayd etadi. "O'g'uznoma" xorijiy mamlakatlari olimlari tomonidan ham o'rganilgan¹. Asarda qadimiy turkiylarning etnogenezi, har bir urug'ning shajaralari ko'rsatilgan. Dostonda ko'plab she'riy parchalar ham keltirilgan. O'g'izxonning tug'ilishi bilan bog'liq bo'lgan rivoyatlar berilgan, uning davlatni boshqarish, el-yurt obodonchiligi, turkiylarning ozodligi, mustaqilligi, farovon hayoti uchun olib borgan kurashlari bayon etilgan.

¹ "Dede Korkut kitabi", Ankara, 1958; F.Sumer. Oguzlar. Turkmenlar. Tarixlari – boy teskilati – destanlari, Ankara, 1967; "Книга моего деда Коркута" М., Л., 1925; X.Короглы. «Родословная туркмен» Абулгази и огузский эпос». "Turkologik", Л., 1976; Ж.Дюмезиль. Скифы и Нарты. М.: Наука, 1979.

“O’g’uznoma” turkiy xalqlarning kitobiy eposi hisoblanadi. Turkiy xalqlar tarixida ikkita kitobiy doston qayd etiladi. Biri “Dada Qo’rqut kitobi”, ikkinchisi “O’g’uznoma”dir. “O’g’uznoma”ning bizgacha yetib kelgan nusxasi uyg’ur-turk yozuvida bitilgan, bu matn Parij milliy kutubxonasida saqlanadi.

Asar matni ko’zdan kechirilganda, unda qadimgi urug’chilik jamiyatidagi mif va afsonalar asos bo’lganligini kuzatish mumkin. “O’g’uznoma” struktur jihatdan Kul tigin yodgorligiga o’xshaydi. Dostondagi mifologik qatlam, o’g’uzning aniq bir geografik muhitdagi faoliyati bunga dalil bo’la oladi. Unda qadimiy turkiy nazmning unsurlari mavjud. “O’g’uznoma”ning muqaddimasida urug’larning va turkiy urug’lardan Ashin urug’ining paydo bo’lishiga oid afsonalar o’rtasidagi uyg’unlik, qadimgi turk davridagi kulbtlar – daraxt, bo’ri, osmon kulklarining qadimgi turkiy yodnomalarda va “O’g’uznoma”da ham mavjudligi ularning umumiylik jihatlarini ko’rsatadi. “O’g’uznoma” dostoni ikki qismdan iborat. Birinchi qism mifologik qatlam bo’lib, bunga O’g’uzning g’ayritabiiy tug’ilishi va g’ayritabiiy ulg’ayishi, yovuz shunqorga qarshi kurashishi va uni o’ldirishi lavhalari kiradi.

Dostonda O’g’uzning Oy qog’ondan tug’ilishi, uning yuzi ko’k, og’zi otash kabi qizil, ko’zlari qo’yo’z, sochlari va qoshlari qop-qora, nozik farishtalardan ham ko’hliroq deb ta’riflanadi. Ajdodlarimiz qadimda ko’k tangriga e’tiqod qilishgan. Ko’k (osmon ma’nosida) so’zi bilan qo’llangan barcha narsalarni muqaddas bilganlar. O’g’uzning yuzini ko’k deb ta’riflanishining boisi shudir. U onasining og’iz sutini emadi xolos va xom go’sht, osh-ovqat, sharob so’raydi. Qirq kunda ulg’ayadi. Uning tashqi ko’rinishi quyidagicha: oyog’i ho’kizning oyog’idek, beli bo’rinikidek, yag’rini silovsinnikidek, ko’ksi ayiqnikidek, badanini butkul tuk qoplagan. Yilqi boqib, ot minib, kiyik ovlab yuradi.

Keyingi o’rinlarda O’g’uzning botir, xoksor va mard deb tavsif etiladi. U odamlar va yilqilarni yeb bitirayotgan qiat (karkidon)ni cho’qmori bilan urib o’ldirib kallasini o’zi bilan olib ketadi. Qaytib kelsa qiatning ichak-chavog’ini bir shunqor yeb turgan ekan. O’g’uzxon shunqorni yoyi bilan urib o’ldiradi. Asarning ikkinchi qismi esa tarixiy dostonlarga xos voqealardan iborat. Bu qismga O’g’uzning uylanishi, farzandlarining

tug'ilishi, jang lavhalari va turli mamlakatlarni bosib olishi, o'g'illariga o'z qo'l ostidagi yurtlarni bo'lib berishi lavhalari kiradi.

Kunlarning birida u Ollohga yolvorib turganda ko'kdan yorug' nur tushadi va borib qarasa ko'rkam bir qiz ekan. O'g'uz qog'on undan uch o'g'il farzand ko'radi. Ularning ismlari Kun, Oy va Yulduz edilar. O'g'uz qog'on ovga chiqqanida daraxtning kavagida bir qiz o'tirganini ko'radi. Uni uyga olib keladi. Undan ham uch o'g'il ko'radi. Ularning ismlari Ko'k, Tog', Tengiz edi. O'g'uz qog'on elga to'y beradi, qirqta stol va qirq kursi yasalib dasturxon yoyilib nozu ne'matlar, ovqatlar, sharob va qimizlar tortiladi. Beklarga yorliq berib quroli yoy va qalqon ekanligi, tamg'asi oliyjanoblik, o'roni (parolb) ko'k bo'ri ekanini aytadi. To'rt tarafga yorliqlar yuborib boshqa qog'onlarni unga bo'ysunishlarini talab qiladi. Oltun qog'on bu talabga bo'ysunadi, Urum qog'on esa O'g'uzni zarracha pisand etmaydi. O'g'uz qo'shinni yig'ib Muztog'ga kelib o'rdasini tikadi. Tongda uning o'rdasiga ko'k yolli erkak bo'ri kirib, O'g'uzning Urum ustiga yurish qilishi va qo'shiniga bo'rineg o'zi boshchilik qilishini aytadi. Itil daryosi yaqinida katta jang bo'ladi. Urumni yengadi, O'rusbekning o'g'li O'g'uz qog'onga bo'ysunishini aytadi. O'g'uz qog'on "shaharni yaxshi asragani uchun" unga "Saqlab" degan nom beradi.

Turkiy xalqlar yozma adabiyotining eng dastlabki namunalari O'rxun – Yenisey yodgorliklaridir. Yodnomalar XVIII asr oxirlari va XIX asr boshlarida O'rxun va Yenisey daryolari sohillaridan topilgan. Ular turk runiy yozuvlari deb ham yuritiladi. Bu yodgorliklarda qadimgi turklarning yashash tarzi, madaniyati o'z ifodasini topgan.

O'rxun-Enisey yodgorliklari matnlarida qadimgi turkiylarning turmush tarzi, madaniyati namoyon bo'ladi. Kultegin, Bilgahoqon, To'nyuquq bitigtoshlari topilgan joylardagi moddiy-madaniy narsa-buyumlar etnomadaniy an'analardan dalolat beradi. Moddiy madaniyat buyumlariga jang va urush tasvirlari tushirilgan saroy devorlari, turli naqshlar chizilgan tosh bo'laklari, hoqonlar va xotinlarining suratlari tushirilgan haykalchalar, odamlar, hayvonlar, uy-ro'zg'or buyumlari tasvirlari kiradi. Yodgorliklar matnida qadimgi turklarning an'analari, urf-odatlar, marosimlari o'z aksini topgan bo'lib,

ular qadimgi turkiy dunyo haqida ma'lumot beradi, ikkinchi tomondan esa bir necha turkiy xalqlar o'rtasidagi madaniy, siyosiy, iqtisodiy aloqalari haqida ham so'z yuritadi.

V-VII asrlarda Markaziy Osiyoda turk hoqonliklari hukmron bo'lgan edi. Turk hoqonligining shaxzodalaridan Bilga hoqon va uning ukasi Kultegin turkiy xalqlarni birlashtirish uchun siyosiy, amaliy faoliyat yuritganlar. Ularning vatan himoyasi va el farovonligi uchun qilgan yurishlari qabr toshlariga yozib qoldirilgan. Yozma yodgorliklarni birinchi bo'lib daniyalik olim V.Tomsen o'qidi. U harflarning matndagi qo'llanish o'rnini va tizimli takrorlanishiga qarab turkiy alfavitni kashf qildi. Bu yozuvlarda turkiy xalqlarning davlat qurishdagi olib borgan kurashlari hikoya qilingan.

X-XII asrlarda yozilgan M. Koshg'ariyning "Devoni lug'atit turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibbatul haqoyiq" kabi asarlari butun turkiy xalqlarning umumiy adabiy merosi bo'lib hisoblanadi. Mahmud Koshg'ariyning hayoti va faoliyatiga doir to'liq ma'lumotga ega emasmiz. Mavjud ma'lumotlarga qaraganda otabobolari Koshg'arlik bo'lib, XI asrda Bolasog'unda tavallud topadi. Dastlab Koshg'arda, so'ngra Samarqand, Buxoro, Marv, Bag'dod kabi markaziy shaharlarda tahsil ko'rganidan aytish mumkinki, u yoshligidan til va adabiyot ilmiga alohida qiziqish bilan qaragan. Keyinchalik u Xitoydan tortib O'rta yer dengizigacha bo'lgan hududdagi mamlakatlarni kezib, uzoq yillar davomida turkiy xalqlar tarixi, tili, og'zaki va yozma adabiyoti, urfodatlari, yashash tarzi, madaniyatini sinchiklab o'rganadi. Bunda u ayniqsa, turkiy so'zlarni to'plash, turkiy til va lahjalarni bir-biridan farqlash, ularni tartibga solishga harakat qiladi. "Men turklar, turkmanlar, o'g'uzlar, chigillar, yag'molar, qirg'izlarning shahar, qishloq, va ovullarini ko'p yillar kezib chiqdim, lug'atlarini to'pladim, turli xil so'z xususiyatlarini o'rganib aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganim uchun emas, balki bu tillarni har bir kichik farqlarini aniqlash uchun ham qildim. Ularni har tomonlama bir asosda tartibga soldim", deb yozadi. M.Koshg'ariy XI asrning tilshunos olimi sifatida mashhurdir. Uning turkiy tillar tadqiqiga bag'ishlangan "Javohir un-nahv fi lug'otit turk" (Turkiy tillarning sintaksis qoidalari) hamda "Devoni lug'otit turk" (Turkiy so'zlar devoni) ikkita asar yaratdi. Bu asarning birinchisi yetib kelmagan yo aniqlangan emas.

“Devoni lug’otit turk” asarini olim 1074-1076 yillarda tugallab, xalifa Abulqosim Abdulloh bin Muhammad al-Muktadoga tuhfa etadi. Asarning 1276-77 yillarda Muhammad bin Abu Bakr Damashqiy degan kishi tomonidan ko’chirilgan bir qo’lyozmasi Istanbuldan topiladi. 1939-41 yillarda hozirgi turk tilida nashr etiladi. O’zbekistonda asarning birinchi tadqiqotchisi va qisman noshiri A.Fitratdir. S.Mutallibov asarni o’zbek tiliga ag’darib, 1960-63 yillarda nashr ettiradi. Asar “muqaddima” va (devon) lug’at qismlaridan iborat bo’lib, so’zlar arab tili grafikasi asosida tartib bilan joylashtiriladi. “Muqaddima”da Qoshg’ariy turkiy tillik xalqlarning nomlarini keltiradi. Ular: bajnak, qipchoq, o’g’uz, yamak, boshqird, basmil, qay, yaboqu, tatar, qirg’iz, chigil, tuxsi, yag’mo, ig’roq jaru, jamul, uyg’ur, tangut, tabg’och xalqlaridir. Shuningdek, devonda ana shu turkiy xalqlar yashagan joylarni ko’rsatuvchi doira shaklidagi xarita ham keltiriladi.

Asarning “lug’at” qismida esa ana shu xalqlarning tillari o’rtasidagi o’xshash va tafovut jihatlari ko’rsatiladi. Asarda 6 mingdan ortiq turkiy so’zlarga atroflicha izoh berilgan. “Devoni lug’atit turk” turkiy tilshunoslikning eng nodir yodgorligi hisoblanadi. Mazkur asar faqat tilshunoslik asari bo’lib qolmay, adabiyot - badiiyat ilmi uchun ham asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Olim so’zlarni to’g’ri va chiroyli izohlash uchun 300 ga yaqin she’riy parchalar va ko’plab maqol va hikmatli so’zlarni keltiradi. Masalan: “Ulug’” so’zini “Har narsaning ulug’i, kattasi” deb izohlar ekan, buning isboti uchun quyidagi she’rni keltiradi:

Ulug’luq bo’lsa sen ezgu qilin,

Bo’lgil kishi Beglar ketin yaxshi ulan.

Mazmuni: Daraja yoki martaba topsang xulqingni chiroyli qil; amirlar oldida yaxshilik yetkazuvchi, xalqning ishlarini yaxshi qabul qiluvchi bo’l.

Devondagi bu kabi maqollar va she’rlar turli-tuman ma’noda bo’lib, ularda real hayot lavhalari, xalq ma’naviy qarashlarining muhim jihatlari o’z ifodasini topgan.

Umuman olganda, devondan mehnat, mavsum, marosim, qahramonlik mazmunidagi qator she’rlar, “Qut bilgisi bilik” (Baxt belgisi-ilm). “Ardam bashi til” (Odobning boshi til). “Quruq qashiq og’iz yarmas”, (Quruq qoshiq og’izga yoqmas) kabi ko’plab maqollar borki,

ular XI asr va ungacha bo'lgan davrlarga mansub bo'lgan badiiyat namunalaridir. Shuningdek, devonda nisbatan kattaroq hajm va kengroq mazmunga ega bo'lgan tabiat hodisalari, urushlar tasviri, alplar vafotiga bag'ishlangan she'r va rivoyatlar ham o'rin olgan. "Qish va Yoz munozarasi", "Alp Er To'nga marsiyasi", "Iskandar" haqida hikoyatlar shular jumlasidandir.

Mahmud Koshg'ariyning "Javohir un lug'atit turk" turkiy tillar sintaksisi masalalariga bag'ishlangan bo'lib, bu asar hozirgacha topilmagan. Lekin hozirgi kunda asarning topilish ehtimoli borligi e'tirof etildi. Qirg'iz olimlari bu borada izlanishlar olib borayotganligi matbuotda e'lon qilindi. Asarni topib jamoatchilikka ma'lum qilgan shaxsga Turkiya madaniyat vazirligi mukofot ta'sis etilishi haqida e'lon berdi.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" nomli asari ham turkiy tilda yozilgan birinchi badiiy doston bo'lib, u didaktik, ya'ni pand – nasihat xarakteridagi asardir. Adibning hayoti va faoliyati haqida hech bir tarixiy yoki adabiy manbalarda ma'lumotlar uchragan emas. Adibning o'z asari "Qutadg'u bilik"da ayrim qayd etilgan o'rinlar mavjud, xolos. Asardan ma'lum bo'lishicha, adib taxminan 1019 yillar atrofida "Quz urdu", ya'ni Bolosog'unda tavallud topadi. Asarni 462 (1069) yil yozib tugatganligi, bu vaqtda 50 yoshda ekanligi qayd etiladi. Adibdan bizgacha yagona "Qutadg'u bilig" asari yetib kelgan:

Yil altmish eki erdi, to'rt yuz bila,

Bu so'z so'zladim man tugub jan sura

Tugal o'n sakiz ayda aydim bu so'z,

Udurum, adirdim, so'z evdim tera.

Asar yuqorida aytilganidek, 18 oyda 462 yili yozib tugallanadi va adib unga "Qutadg'u bilig" deb nom beradi. Asarda dastlab basmala (unvon), so'ngra esa nasriy muqaddima keladi. Unda hamd, na't aytiladi, asarning qimmat, nomlanishi, xonga tortiq qilinishi, taqdirlanishi, asarda 4 ramziy qahramon o'rtasida savol-javoblar bo'lib o'tishi haqida aytiladi. So'ng yana 77 baytdan iborat she'riy muqaddima keltiriladi. Tilning foyda zarari, bilimning manfaati haqida fikrlar bayon etiladi. Muqaddimadan adibning vatani Quz-urdu (Bolosog'un) ekanligi ma'lum bo'ladi hamda adib asarini yaratish uchun

yurtidan chiqib boshqa joylarga safar qilgani, ko'plab madaniy-adabiy manbalarni o'rgangani va Koshg'arga kelib asarni yozib tugatganini anglash mumkin.

“Qutadg'u bilig”ga qadar yaratilgan asarlarning barchasi arab va forsiyda bo'lib, bu asar turkiyda yaratilgan birinchi eng yirik adabiy asar edi. Asar Tabg'ach Bug'roxon tomonidan munosib taqdirlanib, muallifga shuhrat keltiradi, eshik og'asi unvonini oladi.

“Qutadg'u bilig” asarining uch qo'lyozma nusxasi mavjud, uyg'ur yozuvida ko'chirilgan nusxasi Venadan, arab yozuvida ko'chirilgan nusxasi Qohiradan va yana bir nusxasi Namangandan topilgan. Asar bo'yicha G'arbiy Yevropa sharqshunoslari, rus sharqshunoslari va o'zbek olimlari Fitrat, S.Mutalliboev, A.Abdurahmonov, N.Mallaev, B.To'xliev tadqiqot ishlarini olib borganlar. 1971 yilda asar Qayum Karimov tomonidan nashr etilgan. 1990 yilda adabiyotshunos B.To'xliev soddaslashtirib chop etdi.

Asar muayyan syujet asosiga qurilgan emas. Adib o'zining ijtimoiy fikrlari va g'oyalarini, orzu-istaklarini ramziy obrazlar sajiyasiga, suhbatiga singdirib yuboradi. Adolat-Kuntug'di-shoh, Davlat-Oyto'ldi-vazir-oy, Aql-O'gdulmish-vazir, o'g'li-charog'onlik, Qanoat-O'zg'urmish-vazir qarindoshi-sergaklik ramzlarini ifodalaydi. Asosiy voqealar shu 4 obraz o'rtasidagi savol-javoblardan iborat bo'lib, bir qator eng asosiy masalalar ana shu jarayonda yoritib beriladi. Xos Xojib falsafasiga ko'ra hayot, umr barcha ezguliklar uchun asosdir. Shoir insonning hayotda ilm-ma'rifat olishi zarurligiga e'tibor qaratadi, asarda bu to'g'rida qayta-qayta to'xtalib o'tadi. Yana bir hikmat bor: Hazrati odam,- Bilim, aqlu idrok sabab muhtaram.

“Qutadg'u bilig”ni aql va hikmat darsligi deb ham atashadi.

Turkiy adabiyotda xamsachilik an'analari paydo bo'ldi, she'riyatda tasavvuf mavzusi ham yetakchilik qildi. Turkiy adabiyotning buyuk iste'dodlari maydonga keldi, jahon adabiyoti san'atkorlari qatoridan o'rin olganlar. Nizomiy Ganjaviy, Fuzuliy, Jaloliddin Rumiy, Yunus Emro, Navoiy va Bobur, Maxtumdul, Zaliliy, Abay kabilarni qayd etish mumkin. Shuningdek, XX asr adabiyotida ham ko'zga ko'ringan turkiy adiblar yetishib chiqdi. Nozim Hikmat, Rashod Nuri, A.Qodiriy, Cho'lpon, Ch.Aytmatov, M.Avezov, O'ljas

Sulaymon, Rasul Hamzatov, Qaysin Quliev kabi so'z san'atkorlarining yaratgan asarlari jahon kitobxonlariga yaxshi tanish.

Turkiy xalqlar adabiyoti jahon adabiyoti tarixining oltin halqalarini tashkil etadi. Garchi nasr bo'yicha Yevropa va Amerika adabiyoti katta yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, Chingiz Aytmatovning roman va qissalari epik turning taraqqiyotiga yangi o'zan berdi. Jahon she'riyatining asosiy o'zagi Sharq she'riyati bo'lsa, uni turkiy shoirlar ijodi to'ldirib turadi.

Savollar:

1. Qadimgi turkiylarning geografik joylashuvi qanday bo'lgan?
2. Qadimgi turkiylar tarixi va adabiyoti kimlar tomonidan o'rganilgan?
3. Turkiylar genezisi haqidagi qaysi gipoteza va afsonalarni bilasiz?
4. Turkiy yozma adabiyot namunalariining o'rganilish tarixi qanday bo'lgan?
5. "Devonu lug'otit turk" va "Hibat ul-haqoyiq" asarlarining poetik xususiyatlari qanday?

Adabiyotlar:

1. М. Кошғарий. Девони луғотит турк. -Т., 1962.
2. В.Тўхлиев. «Қутадғу билиг» асари ҳақида. - Т., 1991.
3. Памятники древне-тюркской письменности. – М.-Л., 1951.
4. А.Абдурахмонов. Алп эр Тўнга жангномаси. - Т., 1993.
5. Ш.Холматов. Ўзбек халқ поэтик ижоди. - Т.,1994.
6. А.М. Щербак. Огуз-наме. Мухаббат-наме. - Л., 1959.
7. Раҳмон Н. Турк ҳоқонлиги. – Т., 1993.
8. Дада Қўрқут ҳикоялари /Туркий халқлар ижодиёти (Тарж.З.Очилова).- Т., 2010.
9. Қадимги тарихчилар Ўрта Осиё ҳақида. Таржимон ва тузувчи З.Аълам. – Т., 2008.

TURK ADABIYOTI

Reja:

1. Turk xalq og'zaki ijodi.
2. Turk yozma adabiyoti.
3. Turk tasavvuf adabiyoti.
4. XVII-XIX asrlar turk adabiyoti.
5. Realistik turk adabiyotining shakllanishi.

Tayanch so'z va iboralar: usmonli turk, "Dada Qo'rqut kitobi", turk latifalari, turk ertaklari, Jaloliddin Rumiy, Yunus Emro, Nozim Hikmat, Rashod Nuri Guntekin, Aziz Nesin, tanzimot adabiyoti.

Hozirgi kunda Turkiya hududida yashovchi turk xalqiga nisbatan usmonli turk nomi aytiladi. Turkiyada Usmon imperiyasi hukm surganligi bois shu nom qo'llanadigan bo'lgan. Turk xalqi ham boshqa turkiy xalqlar singari o'z tarixi, madaniyati, san'ati va adabiyotiga ega. Turk adabiyoti jahon adabiyotining mushtarak uzviy bir bo'lagi bo'lib sanaladi. Bu adabiyot dastlab xalq og'zaki shaklida rivojlangan. V.S.Garbuzovanning ta'kidlashicha: "Kichik Osiyodagi turkiy aholining keng tabaqalari o'rtasida og'zaki adabiyot bo'lgan, u o'g'iz shevasida yaratilgan. Kichik Osiyoga joylashib olgan turkiylarning bosh qabilasini tashkil etuvchi o'g'izlar bir necha avlod tarixi mobaynida yuzaga kelgan boy og'zaki adabiyotga ega edilar"¹. Bu asarlar o'sha davrda yozib olinmagan va kelgusi avlodlarga etib kelmagan, deb taxmin qilinadi. Yirik epik asarlar – dostonlarga asos bo'lgan syujetlarni dastlab kichik shakllarda paydo bo'lgan deyish mumkin. O'g'izlar yaratgan og'zaki ijod namunalari Kichik Osiyoda yozma adabiyotning paydo bo'lishi va taraqqiy etishiga omil bo'lgan. Xalq o'rtasida mashhur bo'lgan "Dada Qo'rqut kitobi" (yoki "Qo'rqut ota kitobi") shu xalqning og'zaki tarzda yaratilgan boy adabiy merosi sanaladi. Yozma adabiyotning shakllanishida esa arab yozuvining ahamiyati katta bo'lgan.

¹ Гарбузова В.С. Турк адабиёти классиклари. – Тошкент, 1960. – 9-бет.

Usmonli turk xalqi o'z mustaqilligi va erki uchun asrlar davomida kurashib, murakkab tarixiy davrni boshidan kechirgan. Saljuqlarning Kichik Osiyoga yurishi munosabati bilan hozirgi turk davlatiga asos solina boshlandi. Bu davlat XI-XIV asrlarda imperiya sifatida shakllandi. Usmonli turklar davlati uzoq asrlar Kichik Osiyoda va uning atrofidagi hududlarda hukmronlik qildi. Ana shu turklar adabiyoti juda qadimdan boshlangan. U boy an'anaga ega bo'lib, janr jihatidan ham rang-barangdir. Turk halq og'zaki ijodida juda ko'plab qo'shiqlar, ertaklar, afsona va rivoyatlar mavjud. Bularidan tashqari turk xalq og'zaki ijodida ko'plab turli mavzulardagi mavsum-marosim, mehnat qo'shiqlari, ertaklar, latifalar va hikoyatlar uchraydi. Nasriddin Afandi nomi bilan mashhur bo'lgan latifalar dastlab turk xalqi og'zaki ijodida paydo bo'lgan.

Turk latifalari. Xo'ja Nasriddin (1208 - 1284) nomi bilan bog'liq bo'lgan latifalar turkiy xalqlar ichida juda ko'p tarqalgan. U Nasriddin Afandi, Nasriddin xo'ja, Mullo Nasriddin kabi nomlar bilan mashhurdir. Nasriddin nomli shoir Turkiyada XIII asrlarda yashagan, deyiladi. Ayrim ma'lumotlarda keltirilishicha, Xo'ja Nasriddin 1208-1284 yillarda yashagan va hayotining asosiy qismini Markaziy Onado'lidagi Oq shaharda o'tkazgan tarixiy shaxsdir. Biroq turkiy xalqlar latifalarning asosiy qahramoniga aylangan Nasriddin Afandining tarixiy yoki afsonaviy shaxs ekanligi haqida ilmda aniq to'xtamga kelingan emas.

Nasriddin Afandi latifalari turli mavzuda yaratilgan. Unda asosan kulgi yetakchilik qiladi. Lekin bu kulgi oddiy emas, balki hammani o'ylatadigan, hayot haqida chuqur mulohazaga chorlaydigan kulgidir. Masalan, latifalardan birida Nasriddin Afandi bolalarga yong'oq tarqatayotib: "Sizlarga buni teng bo'laymi yoki xudo berganday bo'laymi?" deb so'raydi. Bolalar bir ovozdan «Xudo berganday» deyishadi. Shunda Xo'ja Nasriddin yong'oqni ba'zilarga bir hovuch, ba'zilarga to'rt-beshta yong'oq beradi. Ayrimlariga esa umuman hech narsa bermaydi va Xudoning bergani shunday bo'ladi, deb tushuntiradi. Ko'rayapsizlarmi, bekning o'n suruv qo'yi bor, xo'janing og'il to'la moli, Muhammadning bitta sigiri, Ahmadning esa yolg'izgina echkisi bor, Valining esa hech vaqosi yo'q.

Bu latifada kulgi bilan birga jamiyatdagi tengsizlik qoralanmoqda. Oddiy mehnatkash, kambag'al kishilarga achinish hissi sezilib turadi. Nasriddin latifalarida turk xalqining ayblari ustidan o'zlari kulganligini, o'zlari o'zlariga tanbeh berganligini ko'rish mumkin.

Turk ertaklari. Turklarda qadimdan "Qirq vazir ertaklari" mashhur bo'lgan. Bu ertak turi xuddi "Ming bir kecha" ertaklari singari asar ichida asar shakliga ega. "Vazirning ertagi", "Malikaning ertagi", "Boshqa vazirning ertagi" kabilar alohida ertak turi bo'lsa-da, boshqalari bilan o'zaro bog'lanadi, voqealar uzviy rivojlanadi. Ertaklarning an'anaviy tasniflanishiga ko'ra turk ertaklarini quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

1. Hayotiy maishiy.
2. Hayvonlar to'g'risidagi ertaklar.
3. Sehrli fantastik.

"Qirq vazir ertaklari" hayotiy –maishiy ertaklar tipiga mansub bo'lib, unda to'g'rilik va egrilik, halollik va firib, sadoqat va xiyonat, sahovat va ochko'zlik kabi masalalar xususida so'z boradi.

"Vazirning ertagi"da podshohning ikki o'g'li va ularning boshidan kechirgan sarguzashtlari haqida hikoya qilinadi. Kichik o'g'il otasining nasihati bilan hunar o'rganib, eng mohir tikuvchi bo'lgan edi. Podshoh o'lgach, katta o'g'il taxtga o'tiradi. Tikuvchi o'g'il shahardan chiqib ketmoqchi edi. U Ka'bani ziyorat qiluvchilar qatoriga qo'shilib ketayotganda hamyon topib oladi. Uning egasi, agar hamyonni kim topib olsa, ichidagi narsalarning teng yarmini berishini va'da qilib, faryod qilayotganini yigit ko'rib qoladi. Yigit Xojaga xamyonini qaytarganda, Xoja ahdidan qaytadi va "seni duo qilib qo'yaman, rozimisan?" deydi. Hamyon ichida qimmatbaho toshlar, duru gavharlar bor edi. Yigit undan hech narsa talab qilmaydi va akasining oldiga qaytishdan ko'ra Xoja bilan ketishni afzal ko'radi. Ular Bag'dodga keladilar. Yigit o'z xohishi bilan tikuvchiga shogird tushib, chakmon tikadi. U tikkan chakmonlar juda ham bejirim bo'lib, tez orada tikuvchilik orqali boyib ketadi. Bir kuni Xoja jahl ustida xotini bilan ajralashibdi. Uni o'ziga qayta nikohlashni qozidan so'raganda, xotinining vaqtincha boshqa birovning nikohida bo'lishi kerakligini aytadidi. Xoja bu shartni yigitga aytib, undan yordam so'raydi. Xojaning xotini yigitga

nikohlangach, ular nikohni buzmasliklarini bildirishadi. Xoja bundan sarosimaga tushadi va yigitni Ka'ba ziyoratida "mening vafotimdan keyin bor mol-mulkim shu yigitga qolsin" deb duo qilganini aytadi. Xoja vafot etgach, yigit uning mol-mulki egasi bo'lib qoladi.

Mazkur ertak mazmunidan halollikning taqdirlanishi hamda chin dildan qilingan niyatning amalga oshishini xulosa qilish mumkin. Shaxzoda yigitning hunar egallashi, omonatga xiyonat qilmasligi kitobxonga o'rnak bo'la oladi.

"Malikaning ertagi"da esa podshoh va uning xiyonatchi vaziri haqida bayon qilinadi. Podshoning oldiga bir darvesh keladi va unga sehrli duo o'rgatadi. Bu duoni o'qigan odam boshqa narsaning jismiga kira olar ekan. Podsho vaziri bilan ovga chiqqanda ushbu duoning kuchini ko'rsatadi. Vazir podshodan duoni o'rganib olib, uning jismiga kirib oladi. Podshoning joni to'tiga o'tib qoladi. Vazir podsho bo'lib saroyda yashayveradi. Kunlardan bir kuni "podsho" malikaga duo haqida gapirib beradi. Buni namoyish qilish uchun so'yilgan o'rdakka o'z jonini o'tkazadi. To'tiga aylangan podsho yana o'z jismiga kirib olib, o'rdakni tutib o'ldiradi va malikaga bo'lgan voqealarni aytib beradi.

Ertakda qadimgi turkiylardagi inonchlardan – bir jonning ikkinchi jonga ko'chishi asosida hikoya qilingan. Xiyonatchi kishining alaloqibatda jazolanishi vazir misolida ko'rsatilgan. Yomonlik jazosiz qolmasligi va to'g'rilikning g'alaba qilishi ertak so'ngida xulosa qilingan.

"G'alati gul", "Oyni olmoqchi bo'lgan sardor", "Go'zal meshkobchi yigit" ertaklarida ham yaxshilikning yomonlik ustidan g'alaba qilishi tasvirlanadi. "Kampir va tulki", "Yo'lovchi va ilon", "Oyog'iga tikan kirgan qarg'a", "Minnatdor tulki" kabilar hayvonlar haqidagi ertaklar sirasiga kiradi. "Yo'lovchi va ilon" ertagi syujeti va obrazlari Ezop masalini eslatadi. Ushbu mazmunga yaqin o'zbek xalq ertagi ham uchraydi.

Turk dostonlari. Eng qadimgi turk xalqi dostonlaridan biri «Yaratilish dostoni» bo'lib, unda insoniyatning yaratilishi, dastlabki turk ajdodlari haqida qiziqarli rivoyatlar berilgan. Ayniqsa, «O'g'iznoma» nomli dostonda qahramonlik motivlari ko'tarinki ruhda kuylangan. Bu doston bir qancha bo'limlardan iboratdir. Go'ro'g'li obrazi qatnashgan bir qancha

dostonlar tsikli ham mavjud bo'lib, ular boshqa turkiy xalqlar adabiyotidagi shu tipdagi dostonlar bilan hamohangdir.

«Dada Qo'rqut» haqidagi doston ham turk xalqi folklorining eng mashhur asarlaridan biri hisoblanadi. Asarda real voqea-hodisalar bilan birga mifologik obrazlar, fantastik tasvirlar ham o'rin olgan. Bu esa asar yaratilgan davrga xos xususiyat deb baholash mumkin. Hazrat Alisher Navoiyning “Nasoyim –ul muhabbat” asarida Dada Qo'rqut haqida qaydlari bor: “Turk ulusi arosida shuhrati andoq ortug'roqdurki, shuhratqa ehtiyoji bo'lg'ay. Mashhur mundoqdurki, necha yil o'zidin burunqini, necha yil o'zidin so'nggi kelurni debdurlar. Ko'p mav'izaomuz mag'izlik so'zlari aroda bor”. “Dada Qo'rqut” kitobi o'n ikki hikoyadan iborat. Bu hikoyalar mazmunan va syujet tuzilishi jihatidan “Alpomish” dostoni bilan uyg'unlik kasb etadi. Asarning bir necha nusxalari bo'lib, ular haqida ma'lumotlar mavjud. Adabiyotshunos A.Tilavovning bergan ma'lumotiga ko'ra asarning ilk yozma nusxasi Drezden Qirollik kutubxonasida saqlanadi. Ushbu nusxa dastlab 1916 yilda Rifet Bilge, 1938 yilda O'rxon Shaik Go'key tomonidan nashr etilgan. Ikkinchi nusxa 1950 yilda Vatikan kutubxonasidan topilgan. Bu nusxa faqat olti hikoyadan iborat to'liq bo'lmagan shaklidir. U 1952 yilda Ettori Rosi tomonidan nashr qilingan. Eng mukammal nashr Doktor Muxarram Ergin tomonidan amalga oshirilgan¹.

Dada Qo'rqut ba'zan Qo'rqut Ota deb ham yuritiladi. U hazrat Muhammad (s.a.v.) davrida Sirdaryo atroflarida yashagan o'g'uz qabilalarning Bayot yoki Qayi bo'yiga mansub Qora Xo'ja ismli zotning o'g'li bo'lgan². «Ul kishi O'g'uzning tamom bilguvchisi edi, O'g'uz ichida uning bor karomati zohir bo'lmish edi, na desa bo'lardi, g'oyibdan turli xabar so'ylardi, yaratganning o'zi uning ko'ngliga ilhom solardi» deyiladi. Dada Qo'rqut o'g'uz qabilalarining tinch va farovon yashashi uchun harakat qilgan, xalqqa yordam qo'lini cho'zgan, qabiladoshlariga tayanch bo'lgan, turli qiyinchiliklar vaqtida o'zining aqli, ilmi, donoligi bilan tadbir qo'llagan. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda “Qo'rqut” baxshi yoki islomgacha bo'lgan davrdagi Shamanning nomi bo'lishi mumkin. Boshqa bir manbalarda

¹ Дада Кўркут ҳикоялари/ Туркий халқлар ижодидан. Тарж. ва нашрга тайёр. З.Очилова. – Т., 2010. – 34-бет.

² O'sha joyda.

esa “Qo’rqut” nomini Toshkentga yaqin joydagi «Xorxud» degan joy nomi bilan bog’liq ekanligi aytiladi.

Asarning Bo’g’ochxon haqidagi hikoyasi qismida ota va o’g’il o’rtasiga adovat urug’ining sochilishi bayon qilinadi. Dersaxonning farzandi yo’qligidan Boyindirxon uning izzat-nafsiga tegadi. Uyiga kelib dardini xotiniga aytganda, ayol bekka sahovat ishlarini qilsa, zora tangri ularga o’g’il berishini umid qiladi. Ular farzandli bo’lishadi. Bola o’n besh yoshga to’lganda hovlisidagi buqa unga yugurganda bola mushti bilan urib kallasini oladi. Dada Qo’rqut bola buqani enggani uchun unga “Bo’g’och” deb ism qo’yadi. Yigitga beklikni berishadi. U otasining odamlarini nazarga ilmagani uchun ota-bola o’rtasiga nifoq solishni o’ylashadi. Dersaxonga o’g’ling seni o’q bilan otib o’ldirmasidan sen uni o’ldir, deyishadi hamda ov vaqtida Dersaxon o’g’liga o’q otadi. Dersaxonning xotini o’z o’g’lini qutqarib eridan yashirib parvarish qiladi. Otaning qirq odamlari Bo’g’ochxonning tirikligini bilib qolib, agar Dersaxon bor haqiqatni bilsa, bizni o’ldiradi, Dersaxonni dushmanga topshiraylik, deb uni bog’lab qo’yishadi. Bo’g’ochxonning onasi voqeadan xabar topib o’g’liga otasini qutqarishni aytadi. Bo’g’ochxon qirq yigiti bilan otasini qutqaradi.

“Tepako’z” hikoyasida o’g’uzlar dushman hujumi tufayli o’z yurtlaridan ketishga to’g’ri kelgani va Aruzxo’janing kichik o’g’li otdan tushib qolgani bayon etiladi. Vaqt o’tib O’g’uzxonning beklaridan biri qamishzordan arslonga o’xshash odamni ko’rib qoladi. Aruzxo’ja bu yo’qolgan o’g’lim bo’lishi mumkin, deb uni uyiga olib keladi va Basat deb ism qo’yadi. Aro’zning bir cho’poni bor edi. Cho’pon suv bo’yida pari qizni ushlab oladi. Pari qiz cho’ponga bir yildan keyin unga hadya berishini aytadi. Bir yildan keyin cho’pon parining oldiga kelsa u erga yaltiroq narsa tashlaydi. Uni qancha tepsa shuncha kattalashadi. Cho’pon uni olmaydi. Boyindirxon beklari bilan ketayotganda uni tepishadi, u ikkiga bo’linib, ichidan odam chiqadi. Aro’z gavdasi insonnikiga o’xshagan, peshonasida bir ko’zi bor bu mahluqni uyiga olib keladi. U ulg’aygach, vahshiylashib boradi, har kuni ikkita odam va besh yuzta qo’y talab qiladi. Basat bu vaqtda jangda edi, jangdan qaytgach, Tepako’zni hiyla bilan o’ldiradi. Dada Qo’rqut “Qora toqqa baqirganingda javob qilsin!

Qonli-qonli suvlardan o'tish yo'lini bersin. Qodir Olloh yuzingni yorug' qilsin" deb duo qiladi.

Keyingi hikoyalardan biri "Emren"da Begilning mardligi, oriyatchanligi, g'ururi uning o'g'li Emrenga ham xosligini kuzatish mumkin. Bu hikoyada o'g'ilning ota o'rnini bosa olishi, yurtni dushmandan himoya qilishi voqealari beriladi. "Segrek" hikoyasi aka-uka Ergek va Segrekning sarguzashtlariga bag'ishlangan. Dushmanga asir tushgan Ergekni ukasi qutqarishga keladi. Dushman hiyla qilib Segrekni o'ldirish uchun Ergekni yuboradi. Uxlab yotgan ukasining belidan qo'bizni olib chalganda Segrek o'z akasini tanib qoladi. Ular ikkisi dushmanga qarshi kurashib uni yengadi.

"Telba Dumrul" qismi esa qadimgi o'g'uzlarning inonch-e'tiqodlari haqidagi tasavvurlarni oydinlashtirishga yordam beradi. "Yiginek" nomli hikoyada Qozi Xo'ja ismli bekning dushmanga asir tushishi va o'n olti yil hibsda yotgani, uning o'g'li Yigenekning dushmanni enggani va otasini ozod qilishi voqealari tasvirlanadi. "Kan Turali" hikoyasi o'g'uzlarning o'sha davrdagi turmush tarzi, urf-odatlar, rasm-rusumlari haqida ham ma'lumot bera olishi bilan ahamiyatlidir. Kan Turalini otasi uylantirmoqchi bo'lganida u bo'lg'usi kelin haqida shunday shartlarni aytadi: "Men o'rnimdan turgunimcha, u tursin, men otinga mingunimcha u minsin. Men dushman bilan jang qilganimda, u mendan oldin bostirib kirsin". Kan Turali Trabzon begining qizi Seljen xotinga uning uchta qo'riqchilari – buqa, sher, tuya bilan kurash tushib ularni engadi. Seljenga ota-onamning rizoligisiz uylana olmayman, deya o'g'uzga – Kan Turalining yurtiga yo'l oladilar. Seljenning xaridorlari ularni mahv etmoqchi bo'ladi. Seljen Kan Turalini bundan ogoh etadi va birgalikda kurashadilar.

"Salur Qozon" hikoyasida o'g'uzlarning yana bir begi haqida so'z boradi. U barcha o'g'uz beklarini yig'ib, ovga borib ko'nglini yozib kelishini aytadi. Salur Qozon ovga ketganda xotini Burla xotunni, keksa onasi va o'g'li Uruzni dushmanlar olib ketadilar. Salur Qozon yomon tush ko'rib uyg'onib ketadi va uyiga kelib ko'rsaki, hammayoq vayronaga aylangan. U yo'lidan chiqqan it va bo'ridan bu haqda so'ramoqchi bo'ladi. Cho'pondan so'raydi. Cho'pon bo'lgan voqealarni aytib beradi. Salur Qozon va Qoraja cho'pon ularni

izlab yo'lga chiqishadi. Salur Qozonning oila a'zolarini Shukli Malik olib ketgan edi. Shukli Malik Burla xotunni o'zimga cho'ri qilib olaman, degan niyatda edi. Bundan xabar topgan Burla xotun qirq qizga "agar Qozonning xotini kim?" desalar barchangiz baravar "men!" deysizlar", deydi. Shuklu Malik bu savolni berganda qirq qizning barchasi "men!" deb javob beradi. Natijada u Salur Qozonning xotini kim ekanini ajrata olmaydi. Shunda u Salurning o'g'li Uruzni o'ldirib, go'shtini pishirib qirq xotinga edirishni buyuradi. Qaysi xotin go'shtdan emasa, o'sha Salurning xotini bo'ladi, deydi. Uruz onasiga "oldingizga go'shtimni olib kelsalar, boshqalar bir luqma esa, siz ikki luqma eng. Or-nomusimizga dog' tushganidan o'lim afzal", deb aytadi. Bu vaqtda Salur Qozon va Qoraja cho'pon Shuklu malik bilan jang qiladilar, o'g'uz beklari ularga yordamga keladilar. Salur Qozon oila a'zolarini qutqarib oladi.

"Bonu chechak" hikoyasida an'anaviy motiv – ikki bekning farzandsizligi bayoni beriladi. O'g'uz beklari ikkala bekni duo qilishgach, oradan vaqt o'tib Bamsi Bayrak va Bonu chechak tug'iladilar. Bamsi Bayrak ovga chiqqanda qizning chodiriga kelib qoladi. Qiz yigitning kimligini bilgach, o'zini Bonu chechakning enagasiman, deb unga ovda musobaqalashishni, otda chopish va kamon otishni taklif qilib, uni sinamoqchi bo'ladi. Yigit har jihatdan qizni ortda qoldiradi. Bonu chechak o'zini tanitadi, yigit unga uzuk taqadi. Qizga uylanish qarorini otasiga aytganda, bu to'yga qizning jahldor akasi (uni telba Karchar deb atashardi) qarshi bo'ladi. Sovchilikka Dada Qo'rquq borganda telba Karchar uni urmoqchi bo'ladi. Dada Qo'rquq "Qilich ko'targan qo'ling chirisin!" deb duo qilsa, uning qo'li havoda muallaq qoladi. Telba Karchar undan kechirim so'raydi. Ikki yoshning to'yiga tayyorgarlik boshlanadi. "Bamsi Bayrak" hikoyasida yigitning Boyburt qal'asidan kelib olib ketishlari va telba Karcharning uning ko'ylagini qonga bo'yab Boyindirxonga va Bonu chechakka ko'rsatib o'ldiga chiqarishi hikoya qilinadi. Bamsi Bayrak zindonda o'n olti yil yotadi. Uni dushman begining qizi sevib qoladi va ozod qiladi. Bu vaqtda Yaltajuk Bonu chechakka uylanish arafasida edi. Bamsi Bayrak va Yaltajuk kurashadilar. Bamsi Bayrak Boyburt qal'asini ishg'ol etib, do'stlarini ham qutqargach so'ng qizga uylanaman, deydi. Bamsi Bayrak g'alaba bilan yurtiga qaytadi.

Keyingi qismda Qaziliq xo'janing 15 yashar o'g'li o'g'uz urug'ining dushmanlariga qarshi olib borgan kurashi tasvirlangan. O'n ikkinchi yakunlovchi hikoyada o'g'uz qabilalarining mansab va lavozim talashib bir-biri bilan olib borilgan janglari yozilgan. Qozon-Solarning tog'asi Aruz beklar begi lavozimini egallash uchun Qozon-Solarga hujum qiladi. Uning yaqin yordamchisi Bamsi-Bayrakni o'ldiradi. Keyin Qozon-Solar Aruzbekka hujum qilib ularni engadi. Bu jangda Aruzbek ham vafot etadi.

Mazkur dostonidagi voqealar tasvirida mifologik obrazlar, mifik unsurlar ko'plab uchraydi. Ayniqsa, hoqonlar va botirlarning kuch-qudratini bo'rttirib tavsiflash yetakchilik qiladi. Shunga qaramay, asar tarixiy negizga ega, demak, qalamga olingan voqealarning aksariyati real hayotda bo'lgan. Asarning tarixiy va badiiy, ma'rifiy ahamiyati katta bo'lib, u asrlardan asrlarga o'tib turkiy xalqlarni vatanni sevishtga, o'z yurtini dushmanlardan himoya qilishga undab keladi.

Tasavvuf adabiyoti. Jaloliddin Rumiy (1207-1273). Turkklarning ham dastlabki yozma adabiyoti arab va fors tillarida yaratilgan. XI-XIV asrlarda Turkiyada saljuqlar saltanati davrida arab tili din va fan tili, fors tili esa adabiyot tili edi. V.S.Garbusovaning aniqlashicha: "Kichik Osiyodagi turkiy aholining keng tabaqalari o'rtasida og'zaki adabiyot bo'lgan, u o'g'iz shevasida yaratilgan. ...o'g'izlarning og'zaki asarlari keyinchalik Kichik Osiyoda yozma turkiy adabiyotning paydo bo'lishida muhim rol o'ynadi"¹. XIII asrda turkiy tillarda yozma adabiyot namunalari yaratildi. Mazkur asarlar asosan tasavvufiy mazmunda edi. Buning sabablari esa quyidagicha bo'lgan: Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning vafotlaridan keyin xalifalar o'rtasida toj-taxt uchun kurashlar, mol-dunyoga hirs qo'yish kuchayib ketishi kabi salbiy hodisalar ro'y bergan. Shularga barham berish uchun olimlar, muhaddislar, shoir va adiblar o'zlarining diniy qarashlarini yoya boshlaganlar. Tasavvuf ta'limoti islom dini negizida taxm. VIII asrlarda ana shu tariqa vujudga keldi va Kichik Osiyoda – Turkiyada ham keng yoyildi.

Turk tasavvuf adabiyotida Jaloliddin Rumiy va Yunus Emrolarning o'rni beqiyosdir. Jaloliddin Rumiy ulug' donishmand, benazir shoir, betakror mutafakkir, valiy insondir. U

¹ Garbusova V.C. Turk adabiyoti klassiklari. – Toshkent, 1960. – 9-6.

hozirgi Afg'onistonning Balx shahrida, Sultonul ulamo unvonini olgan ulug' shayx Muhammad Bahovaddin Valad xonadonida 1207 yilda dunyoga keladi. Uning ajdodlari asli xorazmlik turkiy qabilalardan bo'lgan. Onasi Mo'mina xotun Balx amiri Ruq'iddinning qizi bo'lgan. Bahovaddin Valad o'z e'tiqodi va maslagida sobitligi uchun Balx hokimi bilan chiqisha olmay, u yerdan chiqib, Nishopur, Bag'dod, Makka, Madina, Damashq, Xalab, Erzinjon, Oqshahar kabi joylarda umrguzaronlik qiladi. U Sivas va Kayseri shaharlarida ham bir muddat yashaydi. O'sha davrning sultonlari, mudarris va shayxlari uni va'zlar o'qish uchun Larenda, Ko'nyo kabi shaharlarga taklif qilishadi. 1225 yilda Jaloliddin Rumiy mo'g'ullar zulmidan qochgan samarqandlik olimning qizi Gavharga uylanadi. Uning ikki o'g'li Sulton Valad va Aloviddin Chalabiy, qizi Kimyo tug'iladi.

Bahovaddin Valad va o'g'li Jaloliddin Ko'nyo shahriga kelib turg'un bo'lib qoladi. Bahovaddin Valad qaerga borsa ham o'z va'zlari bilan shuhrat qozonadi. Uning ta'rifini eshitgan turk sultoni Aloiddin Kaykubod Kunyo shahriga taklif qilgan edi. O'sha davrda bu yerda ko'plab ilm-ma'rifat ahllari yig'ilgan edi. Bahovaddin Valadga turk sultoni alohida madrasa qurdirgan edi. U shu yerda dars beradi, va'zlar o'qiydi. Bu va'zlarni tinglash uchun boshqa shaharlardan ham ixlosmandlar Ko'nyoga tashrif buyurishar edi.

Bahovaddin Valad 1231 yilda vafot etadi, otasining ishlarini o'g'li Jaloliddin davom ettiradi. U Sayyid Burhoniddin Termiziy, Muhiddin Ibn al -Arabiy kabi olimlardan tasavvuf, fiqh ilmidan saboq oladi. Madrasalarda mudarrislik qiladi, va'zlar o'qiydi. Uning shogirdlari va ixlosmandlari atrofiga yig'iladi.

1244 yil Kunyoga Muhammad Shamsiddin Tabriziy degan darvish keladi. U mashhur so'fiylardan bo'lib, Jaloliddin u bilan ko'chada tasodifan tanishib qoladi. Ular o'rtasida dastlab munozara, tortishuvlar bo'ladi, bir necha kun o'tgach, bir umrlik do'st, maslakdoshga aylanadilar. Shamsiddin Tabriziy Jaloliddin Rumiy hayotini butkul o'zgartirib yuboradi. Ular soatlab, kunlab suhbat qurar edilar. Rumiy madrasada dars berishni to'xtatib, do'stlari va shogirdlari bilan munosabatni uzgani uchun ular norozi bo'ladilar va Shamsiddin Tabriziyga tahdid qiladilar. U 1244 yilda Kunyodan ketib qoladi. Jaloliddin Rumiy yaqin do'sti, maslakdoshini yo'qotib qattiq iztirob chekadi. Ota

iztiroblaridan tashvishlangan o'g'li Sulton Valad Shams Tabriziyni Damashqdan topib Ko'nyoga olib keladi. Jaloliddin Rumiyl xursand bo'ladi va qizi Kimyoni unga turmushga beradi, o'z hovlisining yoniga ko'chirib keladi. Uning kichik o'g'li Aloviddin Chalabiyda Shams Tabriziylga nisbatan adovat paydo bo'ladi hamda o'zining tarafdorlari bilan birga bu darveshni yo'q qilishadi. Rumiyl do'stining mahv etilganidan bexabar holda uni uzoq vaqt qidiradi. So'ng uning daragi chiqavermagach, do'stining yo'qlikka singiganligini his qiladi. Rumiylning "Shams Tabriziyni ko'rdim" degan odamga o'z to'nini yechib berganligi haqida rivoyat qilinadi.

Rumiyl do'sti uchun darveshlar sulukiga asos soladi, uning shogirdlari "mavlono" deb ataganlari sababli bu yo'l "mavlaviylik" nomini olgan edi. Mavlaviylik tariqati haqida "Tasavvuf tarixi" kitobida quyidagi ma'lumotlar uchraydi: "Mavlaviylik tariqati dunyo miqyosida yagona markazdan turib boshqariladi. Markaziy dargoh 1925 yilgacha Ko'nyoda bo'lib, takya va tariqatlar tugatilgach, Xalabga ko'chgan. Bu tariqatning sho'basl yo'q, ammo rind va ilohiy ishq jihatlari kuchli bo'lgan shams shahobchasi va zuhdga ahamiyat beruvchi valad shahobchasi ularning ikki tarmoqchalari borligi manbalarda aytilgan. Biroq bular shahobchalardan ko'ra ko'proq maslakdir. Mavlaviylik tariqati ishq, jazba, samo va safoga asoslangan"¹. Rumiyl bu sulukning rasm-rusumlari qatoriga zikrni kiritadi. Zikr vaqtida so'fiylar aylana shaklda davra qurishib muayyan tartibda harakat qilishardi, go'yo quyosh (shams) atrofidan boshqa sayyoralar joylashib harakatlangani kabi tasavvur uyg'otardi. Rumiyl majlislarida kuy, musiqa ijro etilgan, rubob, nay kabi cholg'u asboblari chalingan.

Jaloliddin o'zini anatoliyalik hisoblab Rumiyl degan taxallusni oladi. Biroq lirik va tasavvufiy she'rlarini Shamsiddin Tabriziyl nomi bilan ham yozdi. Shoir o'zini do'sti bilan biru bor deb bilgan, bu she'rlardan "Devoni Shamsul Haqoyiq" ("Haqiqat quyoshining kitobi") nomli devon tuzadi. Uning ilmiyl va adabiy merosi juda katta. Rumiyl «Fihi-mofihi» ("Ichingdagi ichingdadir"), «Makotib» ("Maktublar"), «Ma'jolisi sa'ba» ("Ettinchi majlis") kabi asarlar yaratgan. "Devoni Kabir" ("Ulug'devon") tarkibi uch mingdan ortiq g'azal,

¹ Усмон Турар. Тасаввуф тарихи.- Тошкент: Истиқлол, 1999.- 115-б.

masnaviy va ruboiylardan iborat. Mavlono Rumiy barcha asarlarida inson kamoloti, ma'naviyati xususida so'z yuritadi. Uning "Masnaviy ma'naviy" asarini "fors tilidagi Qur'on" deb tavsif etadilar. Shoir bu kitobni Fariddin Attorning «Mantiqut tayr» kitobidan ta'sirlanib yozgan. Asar 25700 baytdan iborat bo'lib, xalq orasida juda mashhur bo'lgan.

Jaloliddin Rumiy dindagi mazhablar o'rtasidagi muxolifatlarga qarshi bo'lgan. Uning g'oyasi dunyodagi dinlarni birlashtirish emas, balki ular o'rtasidagi munozara, tortishuv, kelishmovchiliklarni bartaraf etish bo'lgan. Adabiyotshunos Najmiddin Komilov bu haqda shunday so'z yuritadi: "Mazhablar Xoliq haqida emas, balki mahluqot, ya'ni yaratilgan narsalar, odamlar o'zi o'ylab topgan rasm-rusumlar, qoida-qonunlar, aqidalar haqida bahs-munozara qiladilar. Tasavvuf ahli esa Haq taoloning O'zi, uning zoti va javhari, ya'ni mohiyatlar mohiyatiga yetishish uchun intilganlari sababli bu rasm-rusumlar, qoidalarga e'tibor qilmasdilar. Ular shariatni qattiq hurmat qilganlar. Biroq, shariat shariat uchun emas, balki shariat haqiqat uchun vosita deb qaralgan"¹.

Alisher Navoiyning "Nasoyimul muhabbat" asarida Rumiy va Sadriddin Qazviniiy haqidagi hikoya keltiriladi. Rumiy suhbatlardan birida islom mazhablari to'g'risida so'z borganda: "Men yetmish uch mazhab bilan birgaman", deydi. Qazviniiy o'z shogirdiga keyingi majlisda shu gapini eslatishni va tan olsa, uni bor haqoratlar bilan so'kishini tayinlaydi. Qazviniiyning shogirdi Rumiyni so'kib haqorat qilganda, Rumiy: "Men sen aytganlar bilan ham birgadirman", deydi. Bu hikoyat mazmuni Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning jo'hud ayol uni ustiga tepadan turib axlat ag'darsa ham hech narsa demay o'tib ketishi, oxir oqibat ayolning Payg'ambarimizning iymon, e'tiqodi va insofi oldida taslim bo'lib islom dinini qabul qilgani haqidagi voqeani eslatadi.

Jaloliddin Rumiy asarlaridagi bosh g'oya ham shundan iboratki, yo'llar turfa, ya'ni mazhablar turlicha bo'lsa ham maqsad bir. Maqsad Haqqa yetishmoqdir. Bir o'rinda:

Narsa yo'qkim, xoriyi olam erur,

Har ne istarsen o'zingda jam erur, deb insonning borliq bilan biru borligini ta'kidlaydi. Komil inson ollohga yaqinlashadi deb hisoblaydi. Quyidagi bayt shu haqda:

Agarchi har lahza izlarsiz ilohiyini,

Ani izlashga hojat yo'q, ilohiy siz, ilohiy siz.

“Yo'llar muxtalif, ammo maqsad bir” degan g'oyani tushuntirish uchun Rumiylar “To'rt yo'lovchi haqidagi hikoya”ni keltiradi. Turk, arab, fors, yunon bozorda ketishayotgan, bir kishi ularga pul beradi. Fors “Angur olaylik, desa arab eynab, Turk uzum, yunon stafilya sotib olamiz, deb urishadilar, birining tishi, ikkinchisining qovurg'asi lat yeydi. Bir tilshunos ularni rastalardan biriga olib boradi va uzumni ko'rsatadi. To'rtovchi lol qoladi.

¹ Комилов Н. Румийни англаш иштиёқи/ Жалолиддин Румий. Маънавий маснавий. – Тошкент: Шарқ, 1999. – 7-6.

Ularning maqsadi bitta uzum ekan, lekin bir birlarini tushunmaganlari uchun urush chiqqan edi. Rumiylar jamiyatdagi kelishmovchiliklarning, urushlarning ibtidosi o'zaro tushunishning yo'qligi, meniki to'g'ri, deb xudbinlik qiluvchi yoki turli guruhlariga bo'linib adovat urug'ini yoyuvchi kishilarni tanqid qiladi. Xususan, dindagi firqalar, guruhlariga bo'linishlarni qoralaydi. O'z fikrlarini sodda shaklda tushuntiradi. Hajga ketayotgan kishilar manzilga yetib borgunlaricha goh yo'l, goh suv, goh navbat va h.k.larni talashadilar. Ular Ka'baga yetganlaridan so'ng jim qoladilar, chunki ular maqsadga yetdilar, urushib talashishga hojat qolmadi, deydi.

Insonlarning yashashida, fikrlash tarzida, olamga, odam va Ollohga munosabatida shaklga, tashqi vositalarga, ko'rinishga e'tibor qilib mohiyatni anglab yetmasliklarini “Baqqol va uning to'tisi” hikoyasida majoziy tarzda tanqid qiladi. Bir baqqolning chiroyli to'tisi bor edi. Kunlarning birida u do'kon ichida parvoz qilib, gul moyi to'la shishalarni sindirib yubordi. Baqqol bundan jahli chiqdi va to'tining boshiga shunday zarb bilan urdiki, uning patlari to'kilib, to'ti kal bo'lib qoldi. Bir necha kundan keyin do'konga bir kal odam kelganda, to'ti undan: “Sen ham gul moyi shishalarini sindirib qo'ydingmi?” deb so'radi. Mazkur masal hodisalarning bir-biriga o'xshashligi ularning yagonaligiga dalil bo'la olmasligi haqidadir. Yoki ko'rlar va fil haqidagi voqeani she'riy tarzda bayon qilarkan, insonlarning shakl va vositalarga qarab xulosa chiqarib mohiyatni anglamasliklarini tanqid qiladi.

Tashqi belgilar, shakl va suratlar, so'zlarning farqlariga qarab xulosa qiladigan odamlarning o'z manfaatlari yo'lida Haqni bahona qilib xurofotga berilishiga qarshi bo'lgan Rumi: "So'z libos, ma'no unda yashirin asror", deydi. G'oya, fikrlar so'zga aylanganda farq, tafovutlar boshlanadi, deb biladi u. Haq buyuk bir g'oya, mavhumiyatdir, u biror shaklga, suratga sig'maydi. Turli din yo mazhabdagi odamlar Haq oshig'i bo'lgani sabab qalban birdirlar¹. "Masnaviyi ma'naviy"da Muso payg'ambarning bir yaylovdan o'tayotganda cho'ponning Haqqa iltijosini eshitib qolishi keltiriladi. Cho'pon: "Qaerdasan, sening xizmatkoring bo'lay, chorig'ing bo'lsa yamab, chokaring bo'lay. To'ning, cholvorlaringni yuvay, sut berib qo'l oyoqlaringni silay. Uxlasang joylaringni tuzatib

¹ Комилов Н. Румийни англаш иштиёқи/ Жалолиддин Румий. Маънавий маснавий. —Тошкент: Шарк, .- 7-б.

beray, senga echkiyu toylarimni qurbon qilay", deb turganida Muso payg'ambar uni kofirlikda ayblaydi. Cho'pon xafa bo'lib sahroga qarab ketadi. Shu payt Musoga vahiy keladi: "Sen bandamni mendan ayirding, sen bandalarni mendan ajratish uchun emas ularning qalbini Haqqa bog'lash uchun yuborilgansan. Barcha odamlarga o'zlarining tilida ibodat qilishiga imkon berilgan".

Boqmagaymiz tilga yoxud qolga biz,

Ko'z solodurmiz ko'ngilga, holga biz.

Mayliga, bog'lanmasin ul til bila,

Lekin ul payvasta bo'lsin dil bila¹.

Jaloliddin Rumi Insonni ulug'laydi. Shoir dunyodagi barcha musulmonlar Ka'baga qarab ibodat qiladilar, agar Ka'ba o'rtadan olib qo'yilsa, ular bir-birlariga sajda qilayotgan bo'ladilar, deb qalbni yuqori qo'yadi. "Ko'zni yumgil, ko'zga aylansin ko'ngil", deya insonni o'z ichki olamiga sayr qilishiga ishora qilib, ma'naviyati, qalbini poklashga undaydi. Insonni ot ustidagi suvoriy, nafsni esa otga o'xshatadi. Agar ot suvoriyni boshqarsa, ot o'z yemishini unga yediradi, deb obrazli tushuntiradi. Rumi o'zining barcha asarlarida tasavvufiy g'oyalarini xalqona sodda uslubda tushuntiradi, xalq masallari, rivoyatlari

¹ Жалолиддин Румий. Маснавийи маънавий. — Тошкент: Meriyus, XHMK, 2010. — 180-б.

asosida fikrlarini bayon qiladi. Uning asarlari badiiy yetukligi, mazmun qamrovining kengligi bilan keng kitobxonlar ommasining qalbini, mehrini qozona olgan.

Jaloliddin Rumiy qabri Kunyo shahridadir. Uning ziyoratiga nafaqat musulmonlar, turli din vakillari ham keladilar. 2007 yil “Yunesko” qaroriga muvofiq “Jaloliddin Rumiy yili” deb e’lon qilindi.

Yunus Emro.Turk so’fiy shoirlaridan Yunus Emro ijodi turk xalqida xuddi Ahmad Yassaviy “hikmat”lari singari mashhur bo’lgan. Uning she’rlarida ishq-muhabbat, irfon va tavhid, dunyo va oxirat, hayot va o’lim, komil inson sifatlari, o’zlikni anglash, axloqni, nafsni isloh qilish haqida so’z boradi. Yunus Emro Ahmad Yassaviy yo’lining davomchisi, asosiy izdoshlaridan. U teran fikrlarni sodda shakllarda ifodalagan, uning she’rlarida ixcham jumlar, kuchli fikrlar qisqa misralarda namoyon bo’ladi. Xuddi Ahmad Yassaviy singari diniy-tasavvufiy mazmunda o’z she’rlarini turkiy tilda yozgan mashhur shoirlar sirasidan. Uni nafaqat turkiy xalqlar, balki butun dunyo she’riyat ixlosmandlari biladi. 1992 yil Yunesko tomonidan Yunus Emro yili deb nomlangan edi.

Yunus Emro turkiy olamda mashhur bo’lsa-da, u haqda ma’lumotlar juda kam. Uning hayoti va ijodini o’rganishga bag’ishlangan tadqiqotlar yaratilgan bo’lsa ham, shoir haqidagi chinakam tarixiy ma’lumotlar yo’q. She’rlaridan birida aytilgan 1307 yil shoirning tug’ilgan yilimi yoki uning tariqatga kirgan yilimi, degan tortishuvlar bo’lgan. Har holda bu yillarda Yunus Emro hayot bo’lgan degan xulosaga kelish mumkin. Hayot yo’li haqida ma’lumotlar va manbalar saqlanmagan, qabri qaerda ekani ham ma’lum emas. Onado’li shahrining o’zida Yunus Emroga nisbat beriluvchi beshta qabr ma’lum. Shoir hayoti haqidagi ma’lumotlar afsonalarga qorishib ketgan. U haqda o’rta asr tazkira va tarixnavislik asarlarida ma’lumot deyarli uchramaydi. Ilk usmonli turk shoirlari haqida ma’lumot bergan tazkirachi Toshkyopruluzoda ham Yunus Emroga bir satr ajratgan xolos. Buning sabablari Yunus Emroning falsafiy, diniy, tasavvufiy qarashlari o’sha vaqtdagi siyosiy doiralar, saroy manfaatlariga to’g’ri kelmaganligi bo’lishi ham mumkin. V.Garbuzovanning ta’kidiga ko’ra, Yu.Emro asosan dehqonlar va mayda hunarmandlardan iborat kishilar doirasidagina o’z maqsadlarini bayon qilardi. Shundan so’ng u o’z

she'rlarini o'qib berardi. Bu she'rlarda hozirgina targ'ibot qilingan so'fizmning asosiy qonun qoidalari to'g'risidagi fikrlarga yakun yasalardi¹. Ehtimol, shoir bu yerda to'planganlarga she'rlarini o'qib bergan va ular bilan birga kuyga solib, kuylagan bo'lishi ham mumkin.

Mas'ud As'ad Jo'shonning fikriga ko'ra, Hoji Bektosh kutubxonasidagi bir yozuvning tepa qismida: "Yunus falon yilda tug'ilgan, yoshi falonda, falon yili vafot etgan" degan qayd bor. Shu ma'lumotga ko'ra Yunus 320 yillarda vafot etgan. Biroq bu yetarli asos emas. Bu qaydlar kim tomonidan yozilgani va gap aynan Yunus Emro haqida ketyaptimi, bular noma'lum. Jo'shon bundan asosliroq ma'lumot borligini ta'kidlaydi. Shoirning "Risolayi Nusxiyya" asari oxirida uning 707 yilda yozilgan degan sana bor. Mazkur sana melodiy 1306-1307 yillarga to'g'ri keladi. Agar ushbu ma'lumotlarga asoslanilsa, Yunus Emro usmonlilardan oldin hayot bo'lgan deyish mumkin². Boshqa ma'lumotlar ham uning saljuqiylar sultonligining qulashi va usmonlilar davlatining vujudga kelishi davrida yashaganligi, Qora dengiz sohillarida, Sakarya vodiysida joylashgan qishloqlarda tasavvuf g'oyalarini targ'ib qilib yurganligidan darak beradi². Yunus Emroning nomini Tabduq Emro bilan bog'laydilar. Ikkalasi bir shaxs emas, balki Tabduq Emro shayx bo'lib Yunus Emro uning muridi bo'lgan.

Uning oila qurgani, farzandlari bo'lgani va ancha uzoq umr ko'rganligi haqidagi ma'lumotlarni she'rlari orqali aniqlash mumkin. She'rlaridan birida "Alloh bizga ham bolachaqa berdi", deb yozadi. Uni hurmat qilib "Shayx afandi" deb atashgan. Shoir bu haqda "Meni shayx deyishadi. Aslida martabam juda pastda", deb kamtarlik qilsa ham atrofdagilar shoirni ulug'lashgan, izzat hurmatini joyiga qo'yishgan. Shoirdan bizgacha ikkita asari: "Devon" va "Risolai Nusxiyya" asari yetib kelgan. Yunus Emroning Ko'niyada tahsil olgani haqida ham she'rlarining mazmunidan taxmin qilish mumkin. Yunus Emro birovlar aytganidek, o'tinchi, omi, alifni tanimaydigan savodsiz kishi emas, balki

¹ Гарбузова В. Турк адабиёти классиклари. Т., 21 б.

² Масъуд Асъад Жўшон. Юнус Эмро ва тасаввуф. – Т.:Фан, 2001. – 29-36-б. ²
Гарбузова Г.С. Турк адабиёти классиклари. – Тошкент, 1960. 20-21-б.

diniyirfoniy bilimlarga ega, ma'rifatli, olim inson bo'lgan. Uning she'rlarida tasavvuf olimlari Sadriddin Ko'nyoviy va Abdulqodir Jiloniyning qarashlari sezilib turadi.

Ma'lumki, shoir she'rlari xalqona sodda uslubda va jonli so'zlashuv tilida bitilgan. Bu esa she'rlarning ommaga tushunilishi qulayligini ta'minlaydi. Uning she'rlari shakl jihatdan turk xalq og'zaki ijodidagi janr turkuga o'xshaydi. Shoir inson ko'nglini muqaddas maskan deb ataydi. Uning fikricha:

Bir bor ko'ngil buzgan bo'lsang,
O'qiganing namoz emas,-

Yunus Emro insonning e'tiqod masalasida sofdil bo'lishga, fikri zikrini Haq yodi bilan tutishga, ibodatda ko'ngilni Haqqa qaratishga chaqiradi. Shoirning Ollohga bo'lgan muhabbati shunday haroratliki, bu jo'shqin tuyg'ular quyidagi misralarga singdirilgan:

Jannat-jannat deganlari,
Bir qancha ko'shk, bir qancha hur.
Istaganga ber ularni,
Menga Sen kerak, Sen!

Yunus Emro Xoja Ahmad Yassaviy maktabiga mansub bo'lsa-da, uning vahdatul-vujud g'oyalari tarafdori ekanini ko'rish mumkin. Vahdatul-vujud tarafdorlari "Allohdan tashqari biron borliqning haqiqatda mavjud emasligini tan oladi"lar. Yunus Emroning falsafiy qarashlari Jaloliddin Rumi g'oyalari bilan uyg'undir. Shoir uchun ishq eng yuksak maqomdir.

Ishqsiz odam dunyoda, Aniq
biling, yo'q erur.

Har biri bir narsaga
Sevgisi bor oshiqdir.
Mavloning dunyosida
Yuz ming turli sevgi bor.

Qabul qil sen o'zingga, Boq,
qaysisi loyiqdir.

Shoir darveshlik, miskinlik, faqirlikni bir yo'l deb biladi. She'rlarida o'zini darvesh, miskin deb ataydi.

Darveshlik deganlari hirqa bilan toj emas,
Ko'nglin darvesh etgan zot xirqaga muhtoj emas.

Taniqli olim Ibrohim Haqqulov shoir Yunus Emro haqida shunday deydi: «Yunus Emro – Sir va Hayolot, Ishq va Ilohiyot shoiri. Ijodiyotining ziyosi va shukhi ilohiy Ruh. Uning so'z hamda tasvirlari zoti mutloq madhiga yo'naltirilgan».¹Ayrim rivoyatlarga qaraganda Yunus Emro uch mingga yaqin she'r yozgan. Shundan mingga yaqini bizgacha yetib kelgan. Mingtasini osmonda farishtalar o'qiydi, mingtasini suvda baliqlar o'qiydi, mingtasini esa yerda odamlar o'qiydi, degan rivoyat ham bor.

Yunus Emro she'riyati odamlarni qalbni soflashga, o'zligini anglashga chorlovchi, haqiqat sirlaridan ogoh etuvchi, ma'naviyat sarhadlarini kengaytiruvchi, ezgulik buloqlarini ochguvchi ma'rifat manbaidir.

XV – XVI asrlarda romantik yo'nalishdagi turk adabiyoti maydonga keldi. Qahramonlik mavzusidagi “Battolnoma”, “Sari Saltik haqida doston” yaratildi. Nizomiy Ganjaviyning “Xamsa” dostonlari an'anasi asosida Mas'ud ibn Ahmadning “Suhayl va Navbahor” dostoni, Tojiddin Ahmad ibn Ibrohim (Ahmadiy)ning “Iskandarnoma” dostoni, Shayxiyning “Xusrav va Shirin” asarlari yozildi. Ahmad Posho, Najotiy, Mahmud Boki, Mehri Xotun kabi shoirlar turk tilida ijod qildilar.

Ahmadiy (1329-1413). Tojiddin Ahmad ibn Ibrohim Garmiyonda tug'ilgan. Ilm olish uchun Qohiraga boradi. U yerda Shamsiddin Muhammad al Fanoriydan tabobat ilmini o'rganadi. Ahmadiyning Amir Temurga bag'ishlab yozgan qasidasi ma'lum. U Amase shahrida Sulaymon saroyida yashaydi. Hukmdorni ulug'lovchi bir qancha she'rlar va qasidalar yozadi. Uning ijodida “Iskandarnoma” asari alohida o'rin tutadi.

¹ Ҳаққулов И. Абдиёт фарзандлари. Тошкент, 1990 йил, 94 – бет.

Iskandar haqida xalqda ko'plab afsona va rivoyatlar tarqalgan. U tarixiy shaxs Aleksandr Makedonskiy bo'lib, uning obrazi yozma adabiyotda ilk marta Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" asarida talqin etilgan. Ahmadiy bu asar bilan tanish bo'lgan bo'lishi mumkin. Shoir bu turdagi doston yaratish an'analariga muvofiq yo'l tutish bilan birga o'zi ham mustaqil ravishda dostonga Kichik Osiyo tarixiga oid bir bob kiritadi. Ahmadiy dostonida ham Iskandar obrazi boshqa dostonlardagi kabi ijobiy qahramon sifatida tasvirlanadi. Dostonga xalq o'rtasida tarqalgan afsonalar mazmuni ham kiritilgan. Iskandar va Gulshoh haqidagi ishqiy sarguzasht ham dostonidan o'rin olgan. Iskandar abadiy yashab qolish istagida tiriklik suvini qidirib zulmat mamlakatiga safar qiladi. Uni topolmasdan olamdan o'tadi. Ahmadiy zulmat mamlakati deb ramziy ma'noda nodonlik, johillikni tushuntiradi, tiriklik suvini esa ilm-fan deb nazarda tutadi. Uning fikricha, ilmfan yo'lini tutgan odam ezgulik yo'lida o'z nomi bilan abadiylikka erishadi. Iskandar bilan olishadigan yovuz kuchlar esa odamlardagi illatlardir.

Ahmadiyning ikkinchi dostoni "Jamshid va Xurshid" dostonidir. Chin podshosining o'g'li Jamshid tushida bir go'zal qizni sevib qoladi. U bir sayyoh rassomdan bu go'zal yunon hukmdorining qizi Xurshid ekanini bilgach, yuz minglik qo'shin bilan Rumga jo'naydi. U yo'lda turli maxluqlar, devlar, ajdarholar, yirtqich hayvonlar bilan kurashib, ularni yengadi. Kema xalokatiga yo'liqib omon qoladi. Rumga yetib kelganda Xurshid ham uni sevib qoladi. Ularning sevgisiga Xurshidning onasi qarshi chiqadi. Bir qancha sarguzashtlardan so'ng Jamshid qizni olib yurtiga ketadi. Bu doston ham tasavvufiyramziy mazmunga ega bo'lib, asarning bosh qahramonlari haqiqat, iloh, ajdarho – manmanlik, uning yetti boshi – hasad majozidir.

Ahmadiy tarjimon sifatida ham faoliyat olib borgan. U Ibn Sinoning "Tib qonunlari" kitobini turk tiliga tarjima qilgan. Uning devonida mumtoz lirik janrlardan g'azallar, qasidalar, tarkibbandlar mavjud bo'lib, sakkiz ming baytdan ortiq hajmni tashkil qiladi. U o'z davrida xattotlik va musavvirlik ham qilgan.

Yusuf Sinon Shayxiy (1371-1422). Shoirlarning shayxi ("shayx ash shuaro") deb nom olgan Yusuf Sinon Garmiyoniy 1371 yilda dunyoga keldi. Dastlabki bilimni olgach,

Eronda tahsilni davom ettiradi va tib ilmi bilan shug'ullanib ko'z kasalliklari bo'yicha tabib bo'ladi. Edirnaga keladi, saroy bosh hakimi bo'ladi. Biroq u shoirligi bilan mashhur bo'lib, Nizomiyning "Xamsa" dostonidan "Xisrav va Shirin"ni sulton topshirig'iga ko'ra turk tiliga tarjima qiladi. Dostondan ming bayt tarjima qilib Sulton Murod II ga topshirganda, unga Doquzlar qishlog'i in'om etiladi. Shoir ushbu qishloqqa ketayotganda qishloqning avvalgi egasi uyushtirgan qaroqchilar hujumiga duch keladi va ulardan qochib qutiladi. Bu voqea shoirga qattiq ta'sir qiladi va uning ta'sirida "Xarnoma" dostonini yozadi. Saroy ayonlari tanqid ostiga olingan bu asar ilk satirik yo'nalishdagi turk tilida yaratilgan doston hisoblanadi.

Shayxiyning "Xisrav va Shirin" dostoni erkin tarjima bo'lib, unda shoir o'zining qarashlari va g'oyalarini ifodalagan. Shayxiydan keyin bu yo'nalishda doston yaratishga urinishlar bo'lgan. Biroq, doston yozish an'anasi bo'yicha biror turk shoiri Shayxiy bilan bo'ylasha olmaydi.

Ahmad Posho (...-1496). Turk adabiyotida lirik shoir sifatida ma'lum va mashhur. U Edirnada tug'ilib, yoshligida yaxshi bilim oladi. Otasi Sulton Murod II saroyida askar edi. Ahmad Posho mudarrislik, qozilik va saroyda xalifalik lavozimlarida ishlaydi. Shoir sulton vaziri lavozimiga ko'tariladi. Biroq, bir qancha vaqt o'tib shoir hayotida mudhish kunlar boshlanadi. Uning dushmanlari podshoga Ahmadning axloqsizligi haqida ig'vo yetkazishadi. Sulton uni Yedi Kule (Etti minorali qal'a)dagi zindonga tashlaydi. Shoir zindonda yotarkan mashhur "Karam qasidasi"ni yozib uni sultonga yetkazishga muvaffaq bo'ladi. Asardagi "Qullarning adashmog'i mumkin, ammo podshoning avfi qaerda?" misralari sultonga ta'sir qiladi va shoirni ozod qilib Bursaga jo'natadi. 1481 yilda Mehmed II vafotidan keyin taxtga uning o'g'li Boyazid II o'tiradi. U Ahmad Poshoga Bursa sanjoqbekligini beradi. Ushbu lavozimda ekanligida shoir bir madrasa qurdiradi, vafotidan (1496) keyin uni shu madrasa yoniga dafn etishadi.

Shoirning shaxsiy hayoti haqida ayrim ma'lumotlar bor. U oila qurgani va qiz farzandi bo'lgani, lekin ikkisi ham vafot etganliklari, shundan so'ng shoir umrining oxirigacha oila qurmaganligi qayd etiladi. Ahmad Posho ijodi o'zigacha bo'lgan xalqona uslubdan mumtoz

she'riyatga o'tish yo'lida ko'prik bo'ldi. U fors she'riyatiga emas, turkiy tillardagi adabiyotga, xususan, Alisher Navoiy asarlariga murojaat qilgan birinchi turk shoiri hisoblanadi. 1481 yilda Alisher Navoiy o'z g'azallaridan 33 tasini Sulton Boyazid II ga yuboradi. Sulton iste'dodli shoir deb tan olingan Ahmad Poshoga Navoiy g'azallariga nazira yozishni buyuradi. Shoir 33 ta g'azalning hammasiga nazira bog'laydi.

Zulfingki uzoringda etar jilvalar, ey do'st,
Tovusi junondirki ochar bolu par, e do'st.
Xattingki tilsim etdi labing doirasiga
Shirinlik uchun mushk ila afsun yozar, e do'st.
Qo'y, borma qo'nog'iga raqibingki, bilursen,
It bo'lgan yerga hech malak yetmas guzar, e do'st.
Zulfi siyohing chiqmadi zebo kulohingdan,
Zero ki harir ichra bo'lur mushki tar, e do'st.
Voiz so'ziga voqif o'lib, yosh to'kmadi chashmim,
Sard bo'lsa havo bo'lmagay mardumda gar, e do'st.
Ne vajhida yuz surmagay Ahmad ayog'ingga,
Ne bosh ila tark etmagay yo'lingda sar, e do'st.

Ahmad Posho g'azallaridagi yetakchi mavzu muhabbatdir. Shoir devonida turk tilidan tashqari fors, arab tillaridagi g'azallar uchraydiki, uning bu tillarni yaxshigina bilishidan dalolat beradi. U qasida janrida ham ijod qilib, shuhrat qozondi. "Saroy qasidasi"da tavsiflangan bino Yevropada ham mashhur bo'lgan. Shoirning "Quyosh qasidasi" Sulton Boyazid II ga, "Karam qasidasi" Sulton Mehmetga bag'ishlangan.

Shoir ijodidan uning o'zidan keyingi turk shoirlari ilhomlanib, ta'sirlanib asarlar yaratganlar. Ahmad Poshoning ijodidan namunalar dunyoning bir qancha tillariga o'girilgan.

"Tanzimot adabiyoti" deb Turkiyada 1839 yildan 1870 yillargacha davom etgan davr nazarda tutiladi. XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida Frantsiyada ro'y bergan ilg'or

o'zgarishlar Turkiya ijtimoiy, madaniy hayotiga ham ijobiy ta'sir qildi. Teatr, musiqa, maorif, publitsistika kabi sohalar ravnaq topdi. Turkiya davlatining G'arb davlatlari bilan diplomatik aloqalari yo'lga qo'yildi, mamlakatda frantsuz tili ommalasha boshladi.

Mamlakatda Tanzimot farmoni 1939 yil 3 noyabrdan kuchga kirdi. Unga ko'ra hayotda ijtimoiy adolat, qonun ustuvorligi, erkak va ayollarning teng huquqliligi, ayollar erki va ozodligi kabi masalalar amal qilishi kerak edi. Turk adabiyoti ham hayotiy dolzarb masalalarni yoritib boshladi, uning asosiy yo'nalishi ma'rifatparvarlik bo'ldi. Shu bois ushbu davr adabiyoti "Tanzimot adabiyoti" deb yuritiladi. Bu davrda "Tasviri efkar", "Tarjumoni ahvol", "Ibrat", "Hurriyat", "Muxbir" kabi gazetalar faoliyat yuritdi. "Servati funun" ("Bilimlar uyi") jurnali tashkil topdi. Tarjimashunoslik sohasi sezilarli darajada rivojlandi. G'arb adiblari Jan Jak Russo, Volter, La Martin, Molerning asarlari turk tiliga tarjima qilindi. Shinosiy, Ziyo Posha, Nomiq Kamol, Abdulhaq Hamid Tarxon, Ahmad Midhat, Tovfiq Fikrat, Xolid Ziyo Ushoqlagil, Ahmad Hoshim, Ziyo Ko'kalp, Umar Sayfiddin kabi adiblar ijodida ma'rifatga undash, o'zlikni anglash, millatparvarlik g'oyalari ilgari surildi.

Realistik turk adabiyotining shakllanishi. 1923 yilda Turkiyaning respublika deb e'lon qilinishi adabiyotda ham o'z aksini topdi. Milliy ozodlik harakatlari tasvirlandi, xotin-qizlar huquqi va erki masalasi, ijtimoiy hayotning turli sohalaridagi muammolar ko'tarildi. Xolida Edip Adivar, Yoqub Qodiriy Qorausmon o'g'li, Rashod Nuri Guntekin, Sabohaddin Ali, Nozim Hikmat, O'rxon Veli, Melik Javdat O'nday, O'qto'y Rifat, Fozil Husni Dog'larja, Rifat Ilg'az, O'rxon Kamol, Yashar Kamol, Aziz Nesin kabi ijodkorlar adabiyot maydoniga kirib keldilar.

Nozim Hikmat (1901-1963). Erkin vaznda ijod qilgan birinchi turk shoiri. U XX asr boshlaridagi ijtimoiy hayotdagi voqea-hodisalarga o'zining tanqidiy fikrlarini bildirgan. Buni ifodalash uchun she'riyatdagi an'anaviy usul va shakllar imkon bermas edi. Shoir turk she'riyatini yangi o'zanga burib yubordi.

Nozim Hikmat Turkiyaning Selanik vohasida dunyoga keladi. Ilk ta'limni Go'ztepa Toshmaktabi, Galatasaroy litseyi va Nishontoshi Namuna maktablarida oladi. Bahriya

maktabida besh yil o'qiydi. Moskva Sharq universitetining iqtisod va jamiyatshunoslik sohalarida tahsil oladi. Vataniga qaytishda Xara qamoqxonasida ushlab turildi. Istanbulga kelgach, gazeta va jurnallarda, kinostudiyalarda ishladi. O'rxon Salim taxallusi bilan maqolalar yozib nashr ettirdi. Unga nisbatan taz'iqalar bo'lavergach, ona yurtidan chiqib ketishga majbur bo'ladi, Varshava va Moskvada yashaydi. 1963 yili vafot etadi.

Shoir turk modern she'riyati asoschisi sifatida boshqa ijodkorlarga ta'sir ko'rsatgan. O'zbek shoirlari ham Nozim Hikmat she'rlaridan ijodiy ta'sirlanganlar. O'zbekiston xalq shoiri Rauf Parfi shoirning "Inson manzaralari" she'riy to'plamini o'zbek tiliga o'giran.

Uning "835 satr", "Borgan 3", "Ovozini yo'qotgan shahar", "Tunda kelgan telegraf", "Taranta Babuga maktublar", "Qutulish jangi dostoni", "Mamlakatimdan inson manzaralari", "Ruboiylar", "To'rt qamoqxonadan", "Yangi she'rlar", "To'la asarlari" kabi to'plamlari nashr etilgan.

Nozim Hikmat she'rlarida inson erki va ozodligi, haqiqat va e'tiqod, millat va vatanga sadoqat, mutelikka qarshi hayqiriq, o'zlikni anglashga chorlov ruhi balqib turadi. Uning "Ovozidan yo'qotgan shahar" kitobidan o'rin olgan "Karam kabi" she'rida ramz va turli ifodalar bilan shoir millatni mudroqlikdan uyg'otishga undov bor. Shoir o'zini qurshab turgan jamiyat muhitini tasvirlashda "Havo qo'rg'oshinday og'ir!" deydi. Ma'lumki, qo'rg'oshin og'ir element hisoblanadi. Lirik qahramon ana shunday og'ir havodan nafas olib yashaydi, bu havo uni bo'g'adi, nafasi qisilganda esa "baqir!" deya qayta-qayta undaydi. Uni baqirgani uchun ogohlantirishadi:

U aytadi menga: ey sen,
O'z ovozingdan yonasan,
Kul bo'lasan
Karam kabi Yonib

yonib
yonib
yonib...

Ovozning chiqishi, ya'ni ozodlik istagi bilan hayqirgan inson qismatining yonib kul bo'lishini kitobxon anglaydi. Shoir keyingi o'rinlarda Fuzuliyning "Dard ko'p, hamdard yo'q" misralarini keltirib, "yuraklarning qulog'i kar" kabi o'ziga xos poetik ifodani qo'llaydi. Bu o'rinda o'z dardini aytmoqchi bo'lgan odamni eshituvchi, tinglovchi yo'q, agar bor bo'lsa ham yuragidan eshitmaydi. Shuning uchun shoir davom etadi:

Men yonmasam,
Sen yonmasang, Biz
yonmasak...

Qanday ichar qaro tunlar,
Oydinlikdan qonib, qonib?!...
Havo tuproqday qorindor,
Havo qo'rg'oshinday og'ir...

Nozim Hikmat o'z millatdoshlarigagina emas, balki bashariyatga qarab yonib yashashga undayotgandek. Mustamlaka zulmida qolgan yurti qora tunlar ichida qolgani, agar odamlar, xalq qo'zg'almasa bu zulmatning oydinlikka aylanmasligi betakror tashbehlar bilan ifodalangan. Shoirning to'plamni "Ovozini yo'qotgan shahar" deb nomlashida ham o'ziga xos ramziylik ko'rinadi.

Rashod Nuri Guntekin (1889-1956). Turk realistik adabiyotining yirik vakili. Uning asarlari jahon tillarining bir nechasiga tarjima qilingan. U 1892 yilda Istanbul shahrida harbiy vrach oilasida tug'ilgan. Istanbul universitetining adabiyot fakultetida o'qigan, chet elda ham o'qishni davom ettirgan.

Yurtiga qaytib kelgach, maorif sohasida ishladi. Yozuvchi Turkiya Buyuk millat majlisiga deputat qilib saylanadi, Turkiyaning YUNESKOdagi vakili lavozimida xizmat qiladi. U 1956 yilda Londonda vafot etadi. Guntekinning 24 jildlik asarlar to'plami nashr qilingan. Yozuvchining 19 ta romani, sahna asarlari va hikoyalari bor. Rashod Nurining «Tamg'a», «Choliqushi» «Xazonrezi», «Yashil kecha» romanlari o'zbek tiliga ham o'girilgan. «Hiylai shar'iy», «Halola» kabi dramatik asarlari o'zbek teatri sahnasida namoyish etilgan.

Uning «Yashil kecha», «Tegirmon», «Tamg'a», «Xazonrezgi» asarlarida turk xalqining boshdan kechirayotgan qiyin iqtisodiy hayoti, qishloqlardagi ijtimoiy hayotning og'irligi, tengsizlik, huquqning poymol etilishi, ayollar erki masalasi kabi muammolar real tasvirlangan. Adibning «Xudoning mehmoni», «Xanjar», «Labdan yurakka», «Oqshom quyoshi», «Ayol kushandasi», «Achinish», «Tog'olcha butalari», «Osmon», «Eski kasallik» singari asarlari yaratilgan.

Adibning «Choliqushi» romanida Farida ismli turk qizi timsolida ayollar huquqi, sharafiga, erki masalasiga bepisandlik bilan qaralayotgan zamon tanqid ostiga olinadi. Romanda muhabbat mavzusi yetakchi bo'lib ko'rinsa-da, yozuvchi asosiy e'tiborni Turkiyaning Birinchi Jahon urushi, uning oqibatlariga qaratadi. Farida qismatidagi sarguzashtlar asnosida yozuvchi turk qishloqlarining chorasiz ahvoli, maorif sohasining quyi darajasi, kishilarning umidsiz, chorasiz kayfiyatini tasvirlaydi. Shunisi xarakterliki, Farida ana shunday zulmat muhitda, urush va kurashlar buhronida o'zining quvnoq fe'lini, ertangi kunga umidini yo'qotmaydigan xislatini saqlab qoladi. Faridaning quvnoqligi va jamiyatdagi jaholatlar, ularga ma'rifat bilan kurashuvi o'zaro kontrast usulida berilgan. Asar Faridaning kundaliklari shaklida bayon etiladi. Bu esa yozuvchiga birinchi shaxs tilidan so'zlashga, demak, o'z ichki kechinmalari va sarguzashtlarni to'laroq, erkin ifodalash imkonini bergan. Romanda Nizomiddin, Fotima, Xusayn, Komron, Munisa, Xayrullobey kabi ijobiy obrazlar qatnashadi. Ular, bir tomondan, Farida xarakterini yaratishda muhim bo'lsa, ikkinchi tomondan, ular orqali jamiyatning turli qatlami vakillarining tipik obrazlarini yaratgan.

Aziz Nesin (1915-1995). Asl ismi Mahmud Nusrat bo'lib, Aziz Nesin adabiy taxallusidir. U hikoya janrida barakali ijod qilib, turk realistik hikoyachiligining rivojiga hissa qo'shdi. Uning «Musht ketdi», «Hushtak afandi», «Futbol qiroli», «G'aroyib bolalar» nomli asarlari jahonning bir necha tillariga tarjima qilingan, adabiyotshunoslar, tanqidchilar tarafidan e'tirof etilgan. Asarlarida hajviy pafosning yuqoriligi bilan o'ziga xoslik kasb etadi.

Bo'lg'usi adib 1915 yilda Istambul yaqinidagi qishloqda tavallud topadi. Oilaning moddiy jihatdan farovon emasligi sababli Aziz Nesin yuqori bilim beradigan dargohlarda o'qiy olmadi. U harbiy sohani tanlab ofitser bo'ldi, biroq u adabiyotga oshno bo'ldi, dastlab she'rlar, so'ng fe'leton, hajviyalar, hikoyalar yozib gazetalarda nashr ettirdi. Aziz Nesin «Tong», «Vatan», «Oqshom» kabi gazetalarda faoliyat olib bordi. Turk yozuvchisi Sabaxittin Ali bilan «Marko Posho» haftalik gazetani chop ettirdi. Ushbu gazetadagi hajviy, tanqidiy maqolalar hukumat doiralarining manfaatlariga zid kelar edi. Shu sababli gazeta yopib qo'yiladi.

Aziz Nesinning «Demokratiya shunqori» nomli hikoyasi hajviy ruhda yozilgan. Unda mavjud davlat tuzumi, uning adolatsizligi, huquqbuzarligi fosh etiladi. Hikoyada yosh muxbir eshak qo'zi tug'di, ayollar qurbaqa tug'di, osmondan baliq yog'di kabi xabarlar yozadi. Biroq, u xalq dardini, rost gapni yozgani uchun politsiya uni hibsga oladi. Yozuvchining «Dahshatli tush» hikoyasida bosh qahramon tushida xorijdagi bir yig'inga tushib qoladi. Undan o'z mamlakati to'g'risida so'raganlarida haqiqatni aytgisi keladi, biroq u buning oqibatidan qo'rqadi. O'z yurtini obod, xalqini farovon, elning to'qchilikda yashayotganini, jamiyati erkin ekanini aytadi. Ularning bosh qahramon uchun yordam bermoqchi bo'lganliklarini bilgach, so'zlaridan afsuslanadi. Aziz Nesinning «Xotin kishi bo'lganimda», «Keyin xursand bo'lasiz», «Ming marta shukur» singari hajviy hikoyalarida ham jamiyatdagi ayrim nuqsonlar, holatlar qalamga olingan.

Xulosa qilib aytganda, turk adabiyoti turkiy xalqlar adabiyoti silsilasining uzviy bir qismi bo'lib, uning namunalarida ko'tarilgan umuminsoniy masalalar va aks etgan g'oyalar o'z qadrini yo'qotmay kelmoqda.

Savollar

1. Turk xalq og'zaki ijodi namunalariga qaysi asarlar kiradi?
2. Turk latifalari haqida nima bilasiz?
3. Turk dostonlarining mavzusi qanday?
4. Rumi va Yu.Emro ijodining asosiy xususiyatlari qanday?
5. Ahmadiy, Shayxiy hayoti va faoliyati haqida so'zlang.

6. Tanzimot davri vakillari ijodining asosiy xususiyatlari qaysilar?
7. Guntekin, Aziz Nesin hayoti va ijodi turk adabiyotining qaysi bosqichiga to'g'ri keladi?

Adabiyotlar:

1. Гарбузова В. Турк адабиёти классиклари.- Т., 1960.
2. Рашод Нури Гунтекин. Чолиқуши. – Т., 2002.
3. Румий Ж. Маснавийи маънавий.-Т., 2005.
4. Румий Ж. Ичиндаги ичингдадир. –Т., 2004.
5. Эмро Ю. Шеърлар.-Т., 2001.

OZARBAYJON ADABIYOTI

Reja:

1. Ozarbayjon xalq og'zaki ijodi namunalari.
2. Nizomiy Ganjaviy hayoti va ijodiy merosi.
3. Sayyid Imodiddin Nasimiy hayoti va ijodiy merosi.
4. Muhammad Fuzuliy hayoti va ijodiy merosi.
5. M.F.Oxundov hayoti va ijodiy merosi.

Tayanch iboralar: ozarbayjon xalqi, "Ko'r o'g'li", "Oshiq g'arib", "Shox Ismoil", "Asli va Karam", Nizomiy Ganjaviy, Nasimiy, Fuzuliy, M.F.Oxundov.

Ozarbayjon xalqi boshqa turkiylar singari o'zining boy qadimiy madaniyati, tarixi, adabiyoti va san'atiga egadir. Ozar xalqi yaratgan bu madaniy va ma'naviy meros zahirida

xalqning asriy orzu-umidlari, e'tiqodi, badiiy, falsafiy dunyoqarashi mujassam bo'lgan. Bu xalq ham juda uzoq zamonlardan beri mustaqillik g'oyasi uchun kurashib keldi. Bir necha eron shohlari, turk sultonlari, arab va mo'g'ullar hukmronligi davrida ozar xalqi istilochilarga qarshi mardonavor kurash olib bordi. Ozarbayjonlar tarixiy vaziyatlar tufayli ikki davlat hududiga bo'linib ketganlar. Shimoliy Eronda o'n besh millionga yaqin ozarbayjonlar yashaydi. Istilolar davrida ozarbayjonlar Kavkaz ortining turli hududlariga tarqalib ketgan edilar. Bugungi kunda Janubiy Ozarbayjon – Eron Ozarbayjoni hududida yaratilgan boy adabiy meros ham ozarbayjon milliy adabiyotini tashkil etadi.

Ozarbayjon adabiyoti xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyot shaklida rivojlandi. Xalqning ezgu tilaklari lirik qo'shiqlarda, hayotiy tajribalari asosidagi xulosalari masal va maqol-matallarda, ishonch va istaklari ertaklarda, xalqning orzusidagi pahlavonlar va barkamol qizlar obrazlari esa dostonlarda aks etganini kuzatish mumkin. Jahonda hech bir xalq yo'qki, o'zining hajviy qahramonlarini yaratmagan bo'lsin. Ozarbayjon latifalarining bosh qahramonlari Melik – Mamed, Kal Ahmad bo'lib, ularning sarguzashtlari orqali xalqning hazil mutoyiba, hajv va kulgiga nisbatan munosabatini bilish mumkin. Bu latifalar Nasriddin Afandi va Aldar Ko'sa latifalariga yaqin turadi.

Ertaklar. Ozarbayjon xalq ertaklariga “Melik-Mamed”, “Xammol Ahmad”, “Cho'pon”, “Tanbal Shaydullo”, “Dono mushuk”, “Arilar g'azabi” kabilarni misol qilish mumkin. MelikMamed nafaqat latifalarning balki ozarbayjon xalq ertaklarining ham bosh qahramoni sifatida namoyon bo'ladi. Shu nomdagi ertakda bu obraz podshohning uchinchi o'g'li bo'lib, botirlik va mardlik jasoratini ko'rsatadi. Xuddi o'zbek ertaklaridagi singari uch akaukalarning sarguzashtlaridagi voqealarga monand motivlarni kuzatish mumkin. MelikMamed podshoh saroyi bog'idagi g'aroyib olmani qo'riqlaydi. Akalari tutolmagan olma o'g'risi – dev bilan kurashib uni jarohatlaydi. So'ng akalari bilan dev qoldirgan iz orqali quduqqa borishadi. Melik-Mamed akalari tusholmagan quduqqa tushib u yerda uch go'zal qizlarni devlarning changalidan qutqarib yer yuziga chiqaradi. Akalari Melik-Mamedni quduqda qoldirishadi. Go'zal qizlarning kenjasi shunday voqea bo'lishi mumkinligini unga aytib, agar shunday hol ro'y bersa, Zumrad qush yordam berishini

uqtiradi. Melik-Mamed qush yordamida akalaridan qasd oladi. Otasining qasriga kelib bo'lgan voqealarni so'zlab beradi. Podshoh ikkala qizni saroy a'yonlarining o'g'illariga, uchinchi qizni o'g'liga olib berib qirq kechayu qirq kunduz to'y qiladi.

“Xammol Ahmad” ertagida sodda, tavakkalchi va qo'rqqoq Ahmadning tavakkal ish qilishi va omadi kelishi kulgili lavhalarda tasvirlangan. “Cho'pon” ertagida esa boy tabaqaning kambag'allar ustidan firibgarlik ishlarini qilishlari bayon etiladi. Cho'pon tovuqlarini bozorda sotmoqchi bo'lganda bozorning boshlig'i tovuqlarni tortib olib o'rniga cho'ponga shapaloq tortadi. U ham boyning ortidan kuzatib boradi va boy xotiniga gap tayinlayotganini eshitib olib, boyning yo'qligida uning xotinidan eng qimmat gilamlar va pishgan tovuqlarni olib uyiga jo'naydi. Ertasiga “qiz”, keyin esa “tabib” qiyofasida boyning ta'zirini beradi.

“Tanbal Shaydullo” ertagida tanballigi tufayli falokatga yo'liqqan Shaydulloning sarguzashtlari hikoya qilinadi. Shaydulloning dangasaligidan uning xotin, bola-chaqasi doimo muhtojlikda yashaydi. U qanday qilib boy bo'lish mumkinligini so'rash uchun donishmandni topishga yo'lga chiqqanda bo'ri, baliq va olma daraxti uchraydi. Ular ham o'zlari haqidagi masalani donishmanddan so'rab berishni Shaydullodan iltimos qilishadi. Donishmand unga baliqning tomog'ida qimmatbaho tosh borligi, u olinsa baliq azobdan qutulishi, olma daraxti ostida kumush to'ldirilgan ko'za borligi, u kavlab olinsa daraxt yana gulga kirishi, bo'ri esa birinchi uchragan ahmoqni yesa oshqozoni tuzalishini aytadi. “Sening istaging ham amalga oshib bo'ldi”, deydi donishmand. Shaydullo tanballigidan baliq va daraxtni kulfatdan qutqarmaydi, bo'ri tanbalning sarguzashtlarini eshitib, “Sendan-da ahmoq olamda bo'lmasa kerak”, deb uni yeb qo'yadi.

“Dono mushuk” ertagida bir podshohning o'rgatilgan mushugi haqida so'z boradi. Bir savdogar podshohga turli savdo mollarini olib kelib unga taklif qiladi. Podshoh unga narda o'ynashni aytadi va bir mushugi borligi, agar o'yin vaqtida u dumida yettita shamdonni ertadan kechgacha ko'tarib tursa, savdogar yutqazgan hisoblanishi hamda uning barcha mollari va pullari podshoga o'tishini, o'zini esa zindonga tashlash shartini qo'yadi. Savdogar nardada podshoga yutqazadi. Bundan xabar topgan savdogarning xotini

podshohning oldiga kelib u bilan narda o'ynaydi, o'yin vaqtida saroyga sichqonlar qo'yib yuboriladi. Savdogarning xotini erini va savdo mollari, pullarini qaytarib oladi.

“Arilar g'azabi”da filning takabburlikka berilib, arilarni nazarga ilmagani hikoya qilinadi. Fil arilar in qurgan daraxtni silkita boshlaganda, arilar undan o'zlarining tinchligini buzmasligini so'rashadi. Fil esa ularning iltimosiga quloq solmaydi. Arilar filni shu qadar chaqishadiki, fil yerga gumburlab qulab tushadi. Shunda arilar, kuchsizlarni qiynaganning holi voy, deyishadi.

Ozarbayjon xalq dostonlaridan “Ko'r o'g'li”, “Oshiq G'arib”, “Shox Ismoil”, “Asli va Karam” o'zbek, turkman, turk xalq og'zaki ijodidagi namunalari bilan uyg'unlik kasb etadi. “Dada Qo'rqut kitobi” ham ozarbayjon xalq dostonlari sirasida e'tirof etiladi. Chunki bunda qadimgi o'g'uz-turkiy qabilalarining o'z ozodligi uchun kurashi tasvirlanadi. Mazkur asarga musiqali dramalar yozilib, ijro etilgan.

Ma'lumki, ozarbayjon tili turkiy tillar oilasiga mansub. Tarixiy sharoit va ijtimoiy hodisalar jarayonida Ozarbayjonda VII-VIII asrlarda arab tili, XI asrda fors tili rasmiy davlat tili bo'lgan. Shu sababli ozarbayjon shoirlari Ismoil Yassor, Ahmad Tabriziy (X asr), Bahmanyor Ali Bokuyi, Xatib Tabriziylar arab va fors tillarida ijod qilganlar. X-XII asrlarda yashagan shoirlardan Hoqoniy-Chervoniy, Nizomiy-Ganjaviy, Muhammad Fuzuliy, Mirzo Fatali Oxundovlar ham o'z asarlarini shu tilda yozdilar. Arablar hukmronligi davrida Ozarbayjonda keskin siyosiy-tarixiy o'zgarishlar ro'y berdi. XI-XII asrlarga kelib bu yerda arablar mustamlakasi biroz sustlashdi hamda mahalliy feodal davlatlar tashkil topdi. Natijada, saroy adabiyoti paydo bo'ldi va rivojlandi. Abul Ula Ganjaviy, shoir va astronom Falakiy – Shervoniy, shoira Maxseti Ganjaviylar mumtoz adabiyot janrlarida asarlar yaratdilar. Aytish kerakki, ozarbayjon adabiyotining takomilida xalq og'zaki ijodi namunalari bilan birga arab va fors tilidagi adabiyotning ham ta'siri kuchli bo'lgan.

Nizomiy Ganjaviy (Taxminan 1141-1202). Ilyos Yusuf o'g'li Nizomiy-Ganjaviy Ozarbayjonning Ganja shahrida hunarmand oilasida tug'ildi. Davrning ilg'or, ma'rifatli kishisi bo'lgan Nizomiy fors va arab tillarini yoshlik chog'idan o'rganadi, adabiyot, tarix sohasidan tashqari astronomiya, matematika, falsafa va meditsina bilan qiziqadi.

O'sha davr an'analariga muvofiq u arab va fors tillarini mukammal o'zlashtiradi. Shoir yashagan davrda Ozarbayjonda Shirvon Tohir sulolasi hukmron edi. Hukmdor tarafidan shoir saroyga taklif qilinadi, lekin Nizomiy buni rad etib, erkin ijod qilishni afzal biladi. Shoir lirik va epik asarlarini fors tilida yaratdi, chunki bu til o'sha paytda Ozarbayjonda davlat tili hisoblanar edi. Ganjaviyning o'z ona tilida ijod qilolmaganidan afsuslanib yozgan she'rlari ham bor. Nizomiyni "Xamsa"si uning nomini butun jahonga mashhur qildi. O'ttiz ming baytdan tashkil topgan besh dostonni Nizomiy-Ganjaviy qisqa muddat ichida (1179-1200) yillar orasida yaratdi.

Garchi saroy shoiri bo'lmasa-da, Nizomiy "Mahzan-ul asror" dostonini ham, undan so'ng yaratilgan "Xusrav va Shirin", "Layli va Majnun", "Haft paykar" va "Iskandarnoma" dostonlarini ham shervoniy podsholarning topshirig'i bilan ijod etdi. Dostonlardan birining kirish qismida Nizomiy o'z ona tilisi – ozarbayjon tilini yaxshi bilgani holda fors tilida ijod qilishga kirishayotganligini aytar ekan, bu asarni yozishga undagan hukmdorning istagiga ishora qiladi. "Xamsa"ga kirgan dostonlarda buyuk shoir o'zining gumanistik, adolatparvarlik g'oyalarini olg'a surdi. Uning fikricha, markazlashgan adolatli davlat mavjud bo'lgandagina xalqning ahvoli yengillashishi mumkin. Shu maqsadda Nizomiy bu dostonlarida adolatli podsho va podshozodalar (Xusrav, Bahrom, Iskandar) obrazlarini yaratishga urindi.

Nizomiy "Mahzan-ul asror"da ham, "Xusrav va Shirin"da ham dehqon va hunarmandlar mehnatini ulug'ladi. Nizomiy vafotidan so'ng uning "Xamsa"si Sharq adabiyoti taraqqiyotiga kuchli ta'sir qildi. O'zbek, tojik, ozarbayjon, turk, turkman shoirlaridan ko'plari "Xamsa" yozishga kirishdilar. Ayniqsa, Xusrav Dehlaviy, Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiylar Nizomiy-Ganjaviy an'analarini ijodiy davom ettirib, katta yutuqlarni qo'lga kiritadilar.

Sayyid Imomiddin Nasimiy (1370-1417). Ozarbayjon adabiyoti tarixida Sayyid Imomiddin Nasimiyning o'rni kattadir. Shoir 1370 yilda Shirvon viloyatining Shamohi

shahrida tug'ilgan. Asl ismi Ali, laqabi Imomiddin¹. U yosh vaqtlaridan ilmga mehr qo'ydi, fors va arab tillarini chuqur o'rgangan, mantiq, riyoziyot, tabiat, astronomiya fanlarini egallagan. Nasimiy ilk bor ozarbayjon tilida she'rlar yaratgan shoir hisoblanadi. Shoirning iste'dodiga o'zbek shoirlaridan Lutfiy va Navoiy yuksak baho berganlar. Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" asarida quyidagicha keltiradi: "Sayyid Nasimiy qaddasallohu ruhahul aziz (Olloh uning aziz ruhini muqaddas qilsin). Iroq va Rum tarafidag'i mulkdin erkandur. Rumiyy va turkmoniy til bila nazm aytibdur va nazmida haqoyiq va maorif bag'oyat ko'p mundarijdur. Mazkur bo'lg'on mulk ahlig'a ani she'ri muqobalasida hamonoki she'r yo'qdur. Hamono taqlid ahli aning mazhabida qusur tuhmatig'a muttaham qilib, shahid qildilar. Mashhur mundoqdurki, terisin so'yar hukm bo'lubdur. Ul holatda bu she'rni debdurki:

Qibladur yuzung, nigoro, qoshlaring mehrobdur,

Surating Mushaf vale xolu xating e'roblar va bu
she'rning taxallusi ushbu muddaog'a doldurkim:

Ey Nasimiy, chun muyassar bo'ldi iqboli visol,

Qo'y, teringni so'ysa so'ysun bu palid qassoblar"².

Nasimiyni so'fiy shoir Mansur Husayn Xalloyga e'tiqodi baland bo'lgan. SHu bois uning ilk she'rlari Husayniy taxallusi bilan yozilgan. Ayrim she'rlarida valiy shoir nomi bir necha bor keltiriladi.

Nasimiy hurufiylik tariqati asoschisi Fazlulloh Naimiy bilan (1339-1396) 1394 yilda Shirvonda uchrashadi va uning qarashlaridan ta'sirlanadi. U bilan ustoz shogird maqomida bo'ladilar. Shu vaqtdan boshlab Naimiy nomiga muvofiq shoir o'ziga Nasimiy taxallusini oladi.

¹ Очилов Э. Жаҳонга сиғмаган шоир / Саййид Имомиддин Насимий. Мен бу жаҳонга сиғмасман. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – 4-бет. (Шоир ҳақидаги маълумотларни ёритишда шу манбага таянилди.)

² Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма жилдлик. 17-жилд. Насойим ул-муҳаббат. – Тошкент: Фан, 2001, 478-бет.

Fazlulloh Naimiy asos solgan hurufiylik XIV-XV asrlarda Eronda vujudga kelgan bo'lib, mazkur hududdan tashqari yana Ozarbayjon, Turkiya va Suriyada keng tarqalgan. Hurufiylik oqimining asosiy g'oyasi shundan iboratki, inson takomillashib xudoga tenglashishi mumkin, xudo insonni o'zining borligini oshkor qilish uchun yaratgan. Hurufiylar olam va inson haqidagi qarashlarini ramzlar orqali ifodalaydi deyish mumkin. Bu ta'limot tarafdorlari arab alifbosidagi 32 ta harfni muqaddas hisoblaydilar.

Hurufiylik g'oyalarini yoygani uchun Fazlulloh Naimiyni Amir Temurning o'g'li Mironshoh ta'qib qiladi, u qamoqda ekanligida Nasimiya "Vasiyatnoma" yozib uni yashirincha yetkazadi. Naimiyni qatl etish uchun farmon beriladi. "Vasiyatnoma"ga ko'ra murid ustozining kichik qiziga uylanadi va ta'limot g'oyalarini yoyish uchun Ozarbayjondan chiqib ketib, Turkiyaning bir qancha shaharlari Onado'li, Tokat, Bursa va

Bag'dodda bo'ladi. Nasimiy oxiri Xalabga boradi, uni Misr sultoni Muayyaddin dahriylikda ayblab qatl etishga buyuradi. Aytishlaricha, Nasimiyni Antop hukmdori bilan yaxshi munosabatda bo'lganligini ko'rolmagan dushmanlari ularni bir-biriga teskari qilib qo'yadilar. Nasimiyning oyoq kiyimining tagcharmiga Yosin surasi yozilgan qog'ozni solib qo'yadilar va hukmdor oldida undan, "Yosin surasini oyoq osti qilgan odamni qanday jazolash kerak?" deb so'raydilar. Nasimiy: "Unday odamning terisini tiriklay shilib olish kerak", deb javob beradi. Ruhoniylar uni, o'z o'limingga o'zing fatvo berding, deb kovushining ostidan surani chiqarib ko'rsatishadi hamda shoirning terisini tiriklayin shilishadi. Shoirning qatli bilan bog'liq yana bir rivoyat H.Araslining "Imodiddin Nasimiy" asarida keltirilgan. Shoirni qatl etishga fatvo bergan ruhoni: "Bu shunchalik mal'undurki, uning qoni qaerga sachrasa, shu yerni kesib tashlash kerak!" deydi. Shoirning qoni tasodifan o'sha ruhoniyni barmog'iga sachraydi. Jamoa undan barmog'ini kesib tashlashni talab qiladi. U esa: "Men buni misol tarzida aytgandim!" deb barmog'ini yashiradi. Shu payt qonga belangan shoir:

Zohiding bir barmog'in kessang, tonib Haqdin qochar,

Ko'r bu miskin oshiqi sarpo so'yarlar yig'lamas, - deya o'zining isyonkor ovozi
baland ko'taradi va o'z dushmanlari ustidan ma'naviy g'alaba qozongan holda hayotdan ko'z yumadi.

Shoir Nasimiy 1417 yilda qatl etilgan.

Nasimiy she'riyati inson ruhiyati ozodligi, erki haqidagi jo'shqin she'riyatdir. U Qatron Tabriziy, Sa'diy, Nizomiy, Hoqoniy va Avhadiddin kabilarni she'riyatda ustoz deb bilgan.

Nasimiy nafaqat ozarbayjon, balki turk, fors, o'zbek, turkman shoirlari ijodiga ham ta'sir ko'rsatgan. Shoh Ismoil Xatoiy, Xaliliy, Fuzuliy, Voqif, Sururiy, Tufayliy, Lutfiy, Navoiy, Shayxiy, Zotiy, Najotiy, Maxtumdul, Durdi ijodida Nasimiy taqdiri xususidagi o'rinlar yoki shoir she'riyatiga hamohang, hamfikir misralar uchraydi. Maxtumdul va Durdi shoirning aytishuvida shoir taqdiriga qayg'urish, achinish motivlari namoyon bo'ladi.

Maxtumdul:

U nimadir yemadilar, to'ydilar?

U nimadir ulug' kunga qo'ydilar?

U kim edi tovonidan so'ydilar?

Shoir bo'lsang, shundan bizga xabar ber!

Durdi shoir:

U diydordir yemadilar to'ydilar,

U namozdir qiyomatga qo'ydilar.

Nasimiy tovonidan so'ydilar,

Bizdan salom bo'lsin, javobimiz shu!

Fuzuliy (1498-1556). Ozarbayjon adabiyotining yorqin vakili, so'z san'atkori Muhammad Sulaymon o'g'li Fuzuliy ijodi alohida o'rin tutadi. U 1498 yilda Iroqning Karbalo shahrida ziyoli oilasida tavallud topadi. U Karbaloda, so'ng Bag'dod shahrida ta'lim olgach, muallimlik bilan shug'ullanadi. Ustozlaridan birining qiziga uylanadi, farzandli bo'ladi. Shoirning o'g'li Fazliy taxallusi bilan she'r yozib mashhur bo'lgan.

Fuzuliy ijodiy merosidan mumtoz she'riyatning an'anaviy janrlaridan g'azal, murabba', muxammas, musaddas, tarji'band, tarkibband, qit'a, ruboiy kabilar o'rin olgan. Uning xamsachilik an'analari asosida yaratilgan "Layli va Majnun" dostoni, "Shikoyatnoma", "Bangu boda", "Anisul qalb", "Matla'ul e'tiqod" kabi asarlari yaratilgan.

Fuzuliy asarlarining lirik qahramoni muhabbatda sobit oshiqdir.

Joni kim jononi echun sevsa jononin sevar,

Joni uchun kimki jononin sevar jonin sevar bayti

Alisher Navoiyning:

Har labing o'lganni tirguzmakda jono jon erur Bu
jihatdin bir birisi birla jonojon erur.

Bo'lsa jono bordurur jon ham chu jono qildi azm Jon
ketib jonon bila jonsiz manga hijron erur.

Jon manga jonon uchundir, yo'q, jonon jon uchun, Umr
jononsiz qotiq, jonsiz vale imkon erur...

kabi misralarini yodga soladi. Fuzuliy g'azallari tasviridagi mahbuba nafaqat tashqi
tarafdan go'zal, balki uning ma'naviy olami ham komildir. Girub mayxona qilsang takallum,
jon bo'lur shaksiz, Musavvirlar na suratkim daru devora yozmishlar.

Shoir lirikasining mavzu ko'lami keng, obrazlar olami rang-barang. Ishq mavzusidagi
o'rinlarda shoirning tasavvufiy qarashlari ham aks etadi. Xuddi vahdatul vujud g'oyasi
tarafdorlari kabi maysiz va mahbubasiz jannatning nima keragi bor, degan savollarni
ta'kidlaydi:

Tarki mayu mahbub edariz jannat uchun, Sharh
aylaki, jannatda na vor voiz?

Fuzuliy ijodidan eng ko'p ta'sirlangan o'zbek shoirlari XIX asr vakillaridir. Muqimiy,
Zavqiy, Furqat, Ibrat kabilarning ijodida Fuzuliy asarlari ta'siri yaqqol seziladi.

Mirzo Fatali Oxundov (1812-1878). XIX asrda Ozarbayjonda ma'rifatparvarlik
adabiyoti shakllandi. Xalqqa ma'rifat g'oyalarini yoyish, mamlakatdagi voqea hodisalarga
ongli munosabatda bo'lish, mudroqlikdan uyg'otish, g'arbdan kelayotgan madaniy va
ma'rifiy yangiliklarni anglash va keng yoyishda asosan ziyolilar qatlami faol bo'ldilar.

Ozarbayjon ma'rifatparvarlik adabiyotida yozuvchi va dramaturg Mirza Fatali Oxundovning o'rne beqiyosdir.

U dastlabki savodini eski maktabda chiqargach, bilim olishni o'quv yurtlarida davom ettiradi. Bilim olishga bo'lgan ishtiyoqi tufayli bir necha tillarni o'zlashtiradi. U Tiflisdagi rus-tatar bilim yurtida ta'lim oladi, rus tili va adabiyotni puxta o'rganadi. Rus klassik shoirlari A.S.Pushkin, M.Yu.Lermontov kabilarning asarlarini zo'r ishtiyoq bilan o'qiydi. Mirza Fatali Oxundov davrdagi ijtimoiy voqealarga tanqidiy ko'z bilan qaraydi. Xalqning qoloqlik, qashshoqlik va nochorlikda hayot kechirishining sababi jaholot va savodsizlik, nodonlik ekanligida deb biladi hamda bunga qarshi kurashadi. Kambag'al va dehqonlarning farzandlarini o'qitish borasida amaliy faoliyat ko'rsatadi. U arab alifbosini lotin yozuvi shaklida qayta tuzdi.

M.F.Oxundov Ozarbayjon realistik adabiyotining asoschisi sifatida e'tirof etiladi. Ma'lumki, XIX asrning ikkinchi yarmida Rusiya, Kavkaz va Kavkaz orti o'lkalarida dramaturgiya yangi yo'nalishlarda rivojlandi. Shuningdek, M.F.Oxundovning Ozarbayjon milliy teatrining shakllanishida o'rne kattadir. "Mulla Ibrohim Xalil kimyogar" (1850), "Xasis kishining sarguzashti" (1852) va "Tabiatshunos Muse Jordan" (1850) komediyalari realistik metodda yaratilgan.

Savollar

1. Ozarbayjon xalq og'zaki ijodi namunalari haqida so'zlang.
2. Ozarbayjon xalq dostonlari to'g'risida ma'lumot bering.
3. Ozarbayjon xalq ertaklarining turlari, mavzulari, obrazlari haqida so'zlang.
4. Nizomiy Ganjaviy adabiy merosi qaysi janrdagi asarlardan tashkil topgan?
5. Nasimiy she'riyatining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari qanday?
6. Fuzuliy she'riyatining obrazlari qaysilar?

Adabiyotlar:

1. Ариф М. Азербейджанская литература.- М., 1979.

2. Маллаев Н. Низомий Ганжавий. Т.,-1966. (“Ўзбек адабиёти тарихи” китобида)
3. Фалаклар ёнди оҳимдан... “Жаҳон адабиёти” журнали. 1997. 3-с.
4. Очерк истории азарбейджанской литературы. - М., 1963.
5. Т.Жалолов. Хамса талқинлари. - Т.,1961.
6. Саййид Имодиддин Насимий. Мен бу жаҳонга сиғмасман. – Т., 2012.
7. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма жилдлик. 17-жилд. Насойим ул-муҳаббат. –Т., 2001.

QOZOQ ADABIYOTI

Reja:

- 1. Xalq og'zaki ijodi namunalari.**
- 2. Qozoq yozma adabiyoti.**
- 3. Abay Qo'nonboev hayoti va ijodi.**
- 4. Muxtor Avezov hayoti va ijodi.**

Tayanch so'z va iboralar: Qozoq adabiyoti, qozoq folklori, doston, Jambul, Cho'qon Valixonov, Abay, Sobit Muqonov, Muxtor Avezov.

Qozoq xalqi ko'p asrlik tarix va milliy madaniyatga ega. XIX asrgacha qozoqlarda adabiyot asosan xalq og'zaki ijodi shaklida rivojlandi. Qadim zamonlardan beri og'izdanog'izga ko'chib kelgan xalq maqollari, ashula va qo'shiqlar, ertak va dostonlarda qozoq mehnatkashlarining og'ir ahvoli, ozodlik uchun olib borilgan kurashlari aks ettirilgan. Qozoq xalq qo'shiqlari, ertak va dostonlari turli-tuman mavzularni qamrab olgan. Ularda qozoq mazluma ayollarining ohu fig'oni, xalq qo'zg'olonchilarining mardlik-shijoati ham, tadbirkor, dono Aldarko'saning maroqli sarguzashtlari ham Qo'blandi botir,

Ertarg'in va Qambar botir singari xalq bahodirlarining qahramonliklari ham o'z aksini topgan.

Xalqning ko'chmanchilik sharoitidagi va chorvachilik asosidagi hayot tarzi bois xalq og'zaki ijodi muhim o'rin tutardi, shuningdek, badiiy adabiyot o'rnini ham egallar edi. Xalq og'zaki ijodi xalq hayotining turli tomonini aks ettirar va ijtimoiy munosabat, targ'ibot, ba'zan esa ilm-fan vazifasini ham o'tar edi. **Maqol va matallar.** Qadim davrlardan to bizgacha qadimgi qozoq ajdodlarning irod etgan maqol va matallari yetib kelgan. Ularda mehnat xalq ijodining o'zagi ekanini isbotlovchi omillar bor. Keyingi asrlarda ham maqol va matallar keng rivojlanib xalq donishmandligi xazinasini boyitdi. Ayrim maqollar o'zida falsafiy umumlashma mazmunni aks ettirib, mehnatning inson hayotidagi o'rnini ko'rsatadi: *Ekish vaqtidagi birdamlik o'rim paytida yo'qolmas.*

Chorvador va dehqonlar uchun amaliy yo'riqnoma singari jaranglaydigan maqol turlari ham bor: *Yozda qilsang gar mehnat, qishda ko'rasan rohat. Kuzning kelishi bahordan ma'lum. Oz mehnat, oz daromad. Otni yaxshi boshqarmasang, piyoda qolasan.*

Qadimdan va inqilobgacha qozoqlarda chorvachilik asosiy va yagona yashash vositasi bo'lgani uchun qozoq folklorida katta o'rinni chorvachilik mazmunidagi mehnat qo'shiqlari, maqol va matallar egallashi tabiiy. Ularda har xil hayvonlarning ta'rifi, egasining mehr-muhabbati, chorva hayvonini parvarishlash shartlari berilib, sevimli uy hayvonlarining yoki chorva mollarining dushmani bo'lgan hayvonning badiiy obrazi yaratilar edi. Ot, sigir inson do'sti va yordamchisi sifatida tasvirlanar edi. Otning qadri baland bo'lib, u haqda maqollarda shunday deyiladi: *Ot – yigitning qanoti, Pahlavon kelbatli onadan tug'iladi, chopqir ot asl biyadan.*

Maqol va matallar hayvonlarning insonga amaliy foydali jihatlarini ta'kidlab ko'rsatadi. Masalan, tuyaning turli zotlari haqida quyidagi maqollar bor: *Eng og'ir yuk qopini nor ko'taradi. Nor oldida yuk qolmas.* Maqollar hayvonlarning iqtisodiy tejamkorlikka sabab xususiyatlarini ham ta'riflaydi: *Manzil harajatlarini tuya qoplaydi, Yer – ona, chorva mollari uning farzandlari.*

Xalq jonivorlar haqida, shuningdek, ot haqida ko'plab matallar va qo'shiqlar yaratgan. Insonning bu sadoqatli yo'ldoshi ko'pincha tulpor (qanotli ot) deb atalgan.

Xalq tuya haqida qo'shiqlar yaratgan, bu kuchli va chidamli jonivorga o'z mehrmuhabbatini bildirib, uning yaxshi jihatlari – akl, kuch va tushunish xususiyatlarini tavsiflagan. Chorvachilik mazmunidagi turkum qo'shiqlarda bo'ri obrazi insonning dushmani sifatida katta o'rin egallaydi. Bo'rini xalq yirtqich deb bilib, undan chorvani asrash haqida o'zining o'gitini beradi. Mehnat qo'shiqlari afsunlar bilan chambarchas bog'lanadi, afsunlar qadimgi ko'chmanchi chorvadorlar hayotini yaxshilashga asosiy vosita bo'lgan.

Qozoq folklorida, boshqa xalqlarda bo'lgani kabi marosim qo'shiqlari muhim o'rin tutadi. Marosim qo'shiqlari turli tumanliligi bilan, qozoqlar hayotiy-maishiy tizimini ko'rsatadi. To'y qo'shiqlari qiz-ayollarning hayotdagi mavqeini, cho'l, sahro sharoitida o'z haq-huquqiga ega emasliklari, o'z taqdirini o'zi hal eta olmasligi kabi tomonlarni tavsiflaydi. Ota-ona roziligi bilangina turmushga chiqish odat bo'lgan. To'y qo'shiqlarining bir necha turlari bor. Ularning har biri marosimda o'z o'rni va qat'iy tartibiga ega. Birinchisi "jar-jar" bo'lib, qiz va yigit suhbat shaklidir. Unda yigit bundan buyon o'z qo'rg'oni qizga vatan bo'lishi, eng yaqin kishisi ham o'zi ekanini ta'kidlaydi. To'y qo'shiqlarining ikkinchi turi "Сын су" yoki "qыз танысу" bo'lib, qiz o'z qrindosh urug'lari bilan xayrlashadi. Kuyovning uyiga ketishdan avval qiz o'z o'tovini dugonalari bilan aylanib qo'shiq kuylagan, ba'zi vaqtlarda qo'shni ovullarni ham aylanib chiqqan. Qizning o'z uyi bilag ayriliq vaqti uzoq yillarga cho'zilgan. Chunki uni boshqa urug'ga berganlar va o'rtadagi masofani bog'laydigan vosita yo'q edi. Xayrlashuv qo'shiqlari ba'zan fojeiy xarakter kasb etadi.

Keyingi qo'shiq "Bet ochar" bo'lib kuyovning uyida ijro etilgan. Bu qo'shiq yosh kelinchakning kuyov xonadonida o'zini qanday tutish kerakligi haqidagi o'gitdan iborat bo'lgan.

Tonggi quyosh nurlaridan erta tur,

*Barchaning ko'zi oldida jilolanaverma,
Qorong'ida chorva moli o'tovga yaqinlashsa,
Uning biqiniga kaltak bilan urma. Behudaga
tiling so'zlamasin, bekorchilikdan
chaqimchilikni qilmagin,

Qariyalarni hurmat qil, Ularga
doimo yo'l ber.*

Marosim qo'shiqlarining asosiy guruhini motam qo'shiqlari tashkil qiladi. Ular ham bir necha turlarga bo'linadi. 1. "Estirtu" – o'lim xabari. Unda o'limning haq ekani, o'lgan kishining yaqinlariga obrazli qilib parallellarni keltiradi: hech narsa bu hayotda abadiy emas, bahorda maysa ko'karadi, kuzda esa sarg'ayadi, bahorda daraxtlar gullaydi, kuzda esa so'liydi va qish kirib keladi. Shundan so'ng kimning vafot etgani aytilgach, "konil ayту" kuylanadi. Bu shunday qo'shiqki, unda taskin, dalda berish mazmuni mujassamlangan bo'ladi. O'limdan qochib bo'lmaydi, tiriklar esa hayot haqida qayg'urishlari kerak, mazmuni ifodalanadi. Vafot etgan kishining yaqinlari (asosan ayollar – xotini, opasingillari, onasi) "jo'qtau" (yig'i-yo'qlov) qo'shig'ini butun yil davomida aytganlar. Ayrim jo'qtaular iste'dodli badihago'ylar tomonidan to'qilib xalq qo'shiqlariga aylanib, bizning davrimizgacha yetib kelgan va yozib olingan. Shunday qo'shiqlardan biri "Zauresh" bo'lib unda yosh qizidan ayrilgan otaning yig'i-yo'qlovidan iborat. Otaning qizidan tashqari 30ta o'g'li bo'lgan. Qahramon Omongeldi (1919 yilda o'ldirilgan) bevasining yig'i-yo'qlovi saqlanib qolgan.

Jo'qtau turi yozma adabiyotda ham rivojlandi. Qozoq klassik adabiyotining vakili Abay asarlarida jo'qtau uchradi. U o'z yaqinlari haqida marsiyalar yozgan. "Koshtasu" qo'shiq turi qozoq marosim folklorida ko'rinarli o'rin tutadi. Bu qo'shiqlar o'z yurtidan va yaqinlaridan qandaydir sabablarga ko'ra ayrilgan kishilar tomonidan to'qilgan. "Koshtasu" motivlari turli xil, isyonchilar taqdiri bilan bog'liq qo'shiqlarda hukumat tomonidan ta'qib qilingani uchun o'z yurtidan ketayotganlik holatlari tasvirlanadi. Sevishganlarning birbiriga yetisha olmaganligi va vidolashuvi mazmunidagi qo'shiq turlari ham bor.

Ertaklar. Qozoq folklorida katta o'rinni ertaklar egallaydi. Hayvonlar haqidagi ertaklarda insonlarning qiyofasi majoziy tarzda aks ettiriladi. Tulki boshqa xalqlardagi singari hiylagarlik, ayyorlik majozini anglatadi. Bo'ri yirtqich sifatida namoyon bo'ladi. Ayrim holatlardagina ijobiy obraz sifatida ko'rinadi. Sehrli ertakda yigit va bo'riga aylantirilgan qizning muhabbat tufayli asl holiga qaytib yigitga turmushga chiqishi bayon qilinadi. "Zag'izg'on", "Maxta va uning mushugi", "Aqlli echkicha", "Xon va chumolilar", "Tulki bilan bo'ri", "Tulki, chug'urchuq va qarg'a", "Ho'kiz va eshak", "Sirtlonlar", "Yo'lbars va sichqon", "Tulkining jazosi", "Itning bahosi", "Qaysar chumchuq" ertaklari orqali qozoq xalqining g'oyaviy-badiiy olami, dunyoqarashi, hayotga, voqea-hodisalarga bo'lgan munosabatini anglash mumkin. Aldar ko'sa va Jirinshe chechan faqat latifalarninggina emas, hajviy ertaklarning ham bosh qahramoni sifatida g'avd alanadi. "Ochko'z boy va Aldar ko'sa", "Aldar ko'sa va xasis do'st", "Aldar ko'saningsehrli qushi", "Aldar ko'sa va Alasha xon", "Aldar ko'saning uylanishi", "Jirinshe", "Xon va Jirinshe chechan" kabi ertaklarda bu ikki hajviy qahramonlarning sarguzashtlari kulgi vositasida bayon etiladi.

Dostonlar. Qozoq xalq og'zaki ijodida qahramonlik dostonlari salmoqli o'rin tutadi. "Qo'blandi botir", "Ertarg'in", "Qambar botir" dostonlarida qahramonlik, do'stlik hamda vatanparvarlik g'oyalari romantik bo'yoqlarda aks ettirilgan. SHu jihatdan qozoq xalq qahramonlik dostonlari mashhur o'zbek qahramonlik dostoni "Alpomish"ga juda yaqin turadi.

Qozoq folklorida "Qizjibek", "Qo'zi Ko'rpeshe va Bayan suluv", "Suluvshash" singari ishqiy-lirik dostonlar ham juda ko'p. Bu dostonlarda pok insoniy muhabbat tarannum qilinib, feodalizm jamiyatining yaramas tomonlari ochib tashlanadi. Masalan, "Qo'zi ko'rpeshe va Bayan suluv" dostonida tasvirlanishicha, oshiq va ma'shuqaning chin insoniy muhabbatiga Bayan suluvning boy xonadondan, Qo'zi ko'rpeshe'sha esa kambag'al oiladan bo'lganligi to'sqinlik qiladi. Mazkur doston qozoq xalqining ma'naviy-axloqiy qarashlari va ezgu orzu-istaklarining ko'lamini tasavvur qilish imkonini beradi. Ma'lumotlarga ko'ra, rus

shoiri A.S.Pushkin Orenburgda sayohat qilib yurganida qozoq folklori bilan qiziqadi. Rus shoiri uchun bu afsonani rus tiliga tarjima qilib beradilar¹.

Sariboy va Qoraboy agar farzandlarimiz biri o'g'il, biri qiz tug'lsa, ular birga turmush qurishadi, agar ikkalasi ham o'g'il bo'lsa og'a-ini tutinishadi, deb ahdlashadilar. Ikkisi ovda ekanligida Sariboyning qizi Bayan suluv, Qoraboyning o'g'li Qo'zi Ko'rpeshtug'iladi. Ular ovdan qaytayotganlarida Sariboy halok bo'ladi. Qoraboy o'g'lining taqdiri haqidagi ahddan qaytadi, shu maqsadda ovuli bilan uzoqlarga ko'chib ketadi. Bayan suluv ham Qo'zi Ko'rpesht ham bir-birlari haqida sirtidan biladilar. Qalmaq urug'idan bo'lgan Qodari Bayan suluvni qo'lga kiritmoqchi bo'ladi. Sariboy o'g'il farzandi bo'lmagani uchun Qodarni chaqaloqligidan boqib olgan edi. Qo'zi Ko'rpesht Bayan suluvni izlab, oxiri topib keladi. Qodari uni hiyla bilan o'ldiradi. Bayan suluv Qo'zi Ko'rpeshtga maqbara qurdirmoqchi bo'lganda Qodari bu ishda unga yordam beradi. Qiz uni quduqqa aldov bilan tushirib o'ldiradi. Bayan suluv Qo'zi Ko'rpeshtning qabriga kirib o'ziga pichoq sanchadi.

Dostonda muhabbatga sadoqat kuylanadi. Barcha dostonlarga xos bo'lgan xususiyat qahramon yigitning kuchliligi, dovyurakligi, jasur va mardligi asarda madh etiladi. Qo'zi Ko'rpeshtning qizni izlab yo'lga chiqqanida duch kelgan to'siqlarni yengib o'tishida ertaklarga xos mifik motivlarning qo'llanishi kuzatiladi. Qo'zi Ko'rpesht va Bayan suluv o'z muhabbatlari yo'lida kurashadilar, biroq ularning taqdiri fojiali tugaydi.

Ishq-muhabbat voqealarining fojiali yakunlanishini "Suluvshash", "Qizjibek", "Birjon va Sora" dostonlarida ham ko'rish mumkin. Shunga qaramay, bu ishqiy-lirik dostonlarda adolatparvarlik, insonparvarlik g'oyalari yetakchi rol o'ynaydi. Chunki Qo'zi ko'rpesht ham, Bayan suluv ham, Suluvshash va Oltoy ham, Qizjibek ham o'z maqsadlariga erishish yo'lida kurash olib boradilar.

Qozoq folklori boshqa turkiy xalqlar folklori, shuningdek, rus folklori bilan ham o'zaro mushtarak jihatlarga ega. Asar qahramonining yaqin, sadoqatli do'sti bo'lgan ot obrazi ham bu xalqlar folklori uchun umumiylik kasb etadi.

¹ История литератур народов Средней Азии и Казахстана. –М., 1960. – стр.301.

Qozoq xalqining maishiy turmush tarzi, tabiiy sharoiti, geografik joylashuvi ularning urf-odatlarini, anʼanalari bilan chambarchas bogʻliq. Ana shunga koʻra qozoqlarda XVIII-XIX asrlargacha asosan dostonchilik ommalashgan edi. Koʻchmanchilik sharoitida turmush kechirgan qozoqlar chorvachilik bilan tirikchilik qilar edilar. Qozoq choʻllariga tikilgan oʻtovlarda yasharkan, koʻngil yozish va ovunish uchun ovul oʻrtasiga katta kigiz yozilgan joyga xalq yigʻilgan va xalq oqinining dostonlarini tinglab hordiq chiqarganlar. Dostonlar oqin tarafidan bir necha kunlab doʻmbira joʻrligida ijro etilgan. Oqinlar eng hurmatga sazovor kishi boʻlgan. Chunki u soʻzga chechan, koʻp voqealarni bilguvchi, mulohazali, kishilarga taʼlim berib, hayot muammolariga yechim topa bilguvchi moʻtabar kishi hisoblangan.

Qozoq oqinlaridan Buxor jirov, Nisanboy, Doʻsxoʻja, Maxambet Utemisov va Xoliboy Mambetovlar qozoq xalq dostonlarini mahorat bilan ijro etish bilan cheklanmay oʻzlarining dostonlarini ham yaratdilar. Eng muhimi shundaki, xalq oqinlari tarafidan ijro etilgan va ularning oʻzlari yaratgan dostonlar yozma adabiyotning paydo boʻlishiga koʻprikk vazifasini oʻtadi. Xalq oqinlarining dostonlarida oʻzlari yashagan davrning muhim ijtimoiysiyosiy masalalari aks etdi.

Maxambet Utemisovning “Isatoy Taymanov” dostoni 1916 yildagi xalq qoʻzgʻolonlari voqealariga bagʻishlangan. Oqinning oʻzi ham qoʻzgʻolon ishtirokchilaridan boʻlib, dostonida uning orzusidagi qahramon qiyofasi yaratilgan. Isatoy obrazida xalqning ozodligi yoʻlida kurashib halok boʻlgan xalq qahramoni tasvirlanadi.

Choʻqon Valixonov (1835-1865)¹. Qozogʻistonning hozirgi Kustanay viloyatidagi Koʻchmurin mavzesida tugʻilgan. U qozoq xonlaridan Abilayxonning evarasi boʻlib, yoshligidan yaxshi taʼlim-tarbiya koʻradi. Ilk savodini qozoq maktabida chiqargach, bir qancha Sharq tillarini, arab, chigʻatoy, qirgʻiz va boshqa turkiy tillarni oʻrganadi.

Oʻn ikki yoshida Choʻqon Omskdagi kadetlar korpusiga oʻqishga kiradi, barcha fanlarni chuqur oʻrganadi, ayniqsa tarix, geografiya, etnografiya bilan jiddiy qiziqadi. Oʻzining

¹ Маънавият юлдузлари. - Т., 2001. 344-347-б.

kuchli bilimi bilan bilim yurti o'qituvchilarining e'tiborini qozonadi. 1853 yilda Cho'qon Valixonov Sibir o'lkasidagi polkda zobit bo'lib ishlaydi. 1861 yildan boshlab SanktPeterburg universitetining tarix-filologiya fakul'tetida tahsil oladi. Sibir generalgubernatorligida xizmat qiladi, Xitoy va Markaziy Osiyoga uyushtirilgan ilmiy ekspeditsiyalarda qatnashadi. Koshg'ar, Semipalatinsk, Ayako'z, O'pol, Jong'ar, Olako'l, Tarbog'atoy, Qorg'orali, Boyanavul, Ko'kchatov kabi joylarda bo'ladi. Ekspeditsiyalar davomida turli xalqlarning og'zaki ijod namunalari yozib oladi, etnografik, tarixiy ma'lumot va materiallarni yig'adi, ilmiy izlanishlar olib boradi.

Uning "Jung'oriya tarixi", "Koshg'ar safari kundaligi", "Qirg'izlar", "Xon Abiloy", "Xitoy imperiyasining g'arbiy o'lkasi va G'ulja shahri", "Ko'kitoy xonning oshi", "Dala musulmonligi", "Qozoqlar haqida yozmalar", "Sud reformasi haqida", "Qozoq shajarasi" kabi asarlari qozoq, qirg'iz, uyg'ur xalqlarining tarixi, etnografiyasi, madaniyati haqida bo'lib, ilmiy asoslarga egadir.

Cho'qon Valixonov xalq qo'shiqlari, ertak va afsonalari, dostonlarini yozib olib, ularni tartiblashtirgan. "Qo'zi Ko'rpeshe va Bayan suluv" dostonini rus tiliga tarjima qilib, xrestomatiyaga kiritgan. U folklorshunos olim sifatida ham ilmiy tadqiqotlar yaratdi. "Qozoq xalq dostonlarining turlari haqida", "O'rta yuz qozoqlarining afsona-ertaklari to'g'risida", "XVIII asr botirlari haqida tarixiy afsonalar" shular jumlasidandir. Qirg'iz xalq dostoni "Manas"ni oqinlardan yozib olib, ularni rus tiliga tarjima qildi va o'rgandi. Bu asarni "Iliada" va "Odisseya" asarlariga tenglashtirdi.

Adabiyotshunos sifatida ilk marta qozoq she'riyatining qurilishini o'rgandi, qozoq she'riyatining o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy tadqiq etdi. "Qozoq xalq poeziyasining turlari haqida" nomli maqolasida "Жыр", "O'lan", "Qora o'lan", "Qayim o'lan", "Yo'lov o'lan" kabi turlarga bo'lib ilmiy talqin qildi.

Cho'qon Valixonov musavvirlik bilan ham shug'ullangan. U 150 ga yaqin san'at asarlarini yaratdi. U ijod qilgan san'at asarlari "Vsemirnaya illyustratsiya", "Iskra", "Russkiy xudojestvennyy list" kabi jurnallarda e'lon qilingan.

ABAY QO'NONBOEV (1845-1904). Qozoq xalqining mutafakkiri, jamoat arbobi va shoiri Abay Qo'nonboev o'z merosi bilan qozoq adabiyoti, madaniyati xazinasiga ulkan hissa qo'shgan, qozoq adabiyotining eng buyuk siymolaridan hisoblanadi.

Abay Qo'nonboev XIX asrning ikkinchi yarmida yashadi. U hozirgi Qozog'istonning Semipalatinsk uezdiga qarashli Chingiztov rayonida chorvador oilasida tug'ildi. Yoshlik chog'larida madrasada o'qidi. Keyinchalik rus maktabiga qatnab rus tili va adabiyotini o'rgandi. Abay bir tomondan, sharq adabiyotining buyuk vakillari Firdavsiy, Navoiy, Nizomiy ijodi bilan, ikkinchi tomondan A.S.Pushkin, L.N.Tolstoy, M.E.Saltikov-Shchedrin asarlari bilan qiziqib, o'z bilimini oshirdi.

Abay ijodi yoshlik chog'laridan she'r yozish va o'lan aytishdan boshlandi. Uning juda ko'p o'lanlari xalq orasida mashhur. O'z davrining ilg'or g'oyali ziyolisi bo'lgan Abay ma'rifatparvarlik harakatiga boshchilik qildi. U xalqni savodxon qilish va ruslardan o'rnak olishga da'vat etdi. Abay lirik shoirdir. Uning she'rlarida tarqoq qozoq qabilalarini birlashtirish, yoshlikdan hunar va ilm o'rganish zarurligi g'oyasi tarannum etildi. Abay she'riyatini xalq hayotiga yaqinlashtirdi, o'z lirikasida ilg'or g'oyalarni tarannum etdi, xalq hayotining turli-tuman muhim ijtimoiy masalalarini o'z zamonasining ilg'or ziyolisi sifatida hal qildi.

A.Qo'nonboevning lirikasi xalq hayotini aks ettiruvchi, ta'sirchan, sho'x lirikadir. Uning ko'nincha do'mbira yordamida ijro etilgan va qisman yozib qoldirilgan o'lanlari turli-tuman mavzularda bitilgan. Abayning bir qancha lirik she'rlarida qozoq cho'lining realistlik manzarasi ona-yurtga bo'lgan zo'r ehtiros bilan chizilgan.

Shoir lirik qahramonning ruhiy olamidagi kechinmalar, po'rtanalarni obrazli aks ettiradi. Abay lirik qahramonining yuragi xiyonat ko'raverganidan, zarbalar yeb ilma teshik bo'lgan:

Yuragim mening qirq yamoq,
Xiyonatchil dunyodan.

Qanday qolsin omon sog',

Zarba yesa har nedan.

Odatda kiyimning yirtiq joyiga yamoq solinadi. "Qirq yamoq" deganda juda ham uvada bo'lib ketgan kiyimni tushunamiz. Demak, yurak ham xuddi shu ahvolga kelgan. Birinchi misradagi o'ziga xos tashbeh orqali kitobxon ko'z oldida hayotiy manzara jonlanadi. Dunyoning qanday ekanligi "xiyonatchil" so'zi bilan tavsiflangan. Odatda dunyo "bevafo", "foniy", "kajraftor", "shafqatsiz", "biri kam" kabi sifatlar bilan keladi. "Xiyonatchil dunyo" birikmasi esa xiyonatga limmo-lim to'la dunyo ma'nosini beradi. "-chil" qo'shimchasi bu o'rinda ruhiy-emotsionallikni oshiradi. She'rning keyingi bandida lirik qahramonning ko'ngil qo'ygan odamlaridan biri o'lgani, boshqasi dushmanga aylangani ta'kidlanadi: Biri o'ldi, biri yov,

Kimni suysa bu yurak. Kimi

qochqin, kimi dov,

Suyanarga yo'q tirkak.

Inson dunyoda mehrsiz yashay olmaydi. Lirik qahramonni qurshab turgan muhitda odamlar qochqin bo'lib ketgan, bir-biri bilan dovlashadilar. Shu bois u yaqin do'stni izlab topolmagach, tirkak bo'lgudek inson yo'qligini nadomat bilan so'zlaydi. "Biri, biri, kimi, kimi" kabi takrirga asoslangan birliklar she'rdagi ta'kid kuchini orttiradi va she'rning poetik ohangdorligini yuzaga chiqargan.

Keksalik keldi taqab

Unga aslo chora yo'q. Yoshlik-

chi yurar o'ynab Bizga undan

foyda yo'q.

Har bir ibtidoning intihosi bo'lganiday, umrning so'nggi fasli keksalik haqida shoir to'xtalib, uning taqab kelganini aytadi. Keksalikni ortga qaytarishning chorasi yo'q. Umr poyonida har bir inson o'z hayotini sarhisob qiladi, albatta. Ortga, o'tmishga, yoshlikka boqar ekan, umrning juda tez o'tganini his qiladi. "Keksalik", "yoshlik" mavhum ot

hisoblanadi, kitobxon ko'z oldida esa ularning obrazi paydo bo'ladi: keksalik asta "taqab" kelsa, "yoshlik-chi o'ynab yuradi".

Yuragi qon, g'amgin zot,
Qayrilib boq, men tomon.
Qonga botgan yurakning Xosiyatin
et bayon.

Xotimada lirik qahramon o'zi singari "yuragi qon g'amgin zot"ga murojaat qiladi. Chunki dardli inson qalbini shu kabi inson tushunadi, to'laroq anglaydi.

Shoir Abay qozoq she'riyatiga doston janrini olib kirdi. Uning "Iskandar" va "Mas'ud" nomli dostonlari hajm jihatdan uncha katta bo'lmasa-da, ularda shoirning kichik bir voqea orqali Iskandar va Mas'udga o'xshash realistik obrazlar yordamida ilg'or g'oyalarni olg'a surish mahorati yaqqol ko'rindi. Abay badiiy nasr sohasida ham qalam tebratgan yozuvchidir. Umrining oxirlarida yaratgan "Nasihat" nomli asari kichik-kichik didaktik va falsafiy mazmundagi nasriy hikoyalardan iborat bo'lib, ularda adibning ilg'or falsafiy va ijtimoiy qarashlari o'z aksini tongan.

Ma'rifatparvar A.Qo'nonboev Pushkin ijodini o'rgandi, uning asarlarini qozoq tiliga tarjima qildi. Abay birinchi qozoq bastakoridir. U o'z she'rlariga xalq kuylari asosida kuy batsalagan. Abay A.S.Pushkinning "Evgeniy Onegin" asaridan narchalarni qozoq tiliga tarjima qildi. O'zbek tilida Abayning "O'lanlar" va "Abay Qo'nonboev" degan nom ostida ayrim asarlari tarjima qilib bosilgan.

Sobit Muqonov. "Polvon cho'loq" romani.

Sobit Muqonovning "Polvon cho'loq" asarida 1916 yilgi xalq qo'zg'oloni davridagi voqealar tasvirlanadi. Asarning bosh qahramoni xalq oqini Polvon cho'loq – Nurmag'ambetning hayoti, boshidan kechirgan sarguzashtlari, xalq ozodligi yo'lidagi faoliyati yoritilgan.

Chor Rossiyasining zulm va istibdodi, xalqni ekspluatatsiya qilish yo'lidagi hiylanayranglari, millat ichida adovat urug'ini sochish kabi illatlarga qarshi kurashgan

mard o'g'lonlar obrazi Polvon cho'loq orqali tiniklashtirilgan. Rus zobitlari qozoqlarni o'z joylaridan ko'chishni buyurgan edi. Qozoqlarning Qayroqli ko'li bo'yidagi ovuliga uryadnik o't qo'yadi. Chunki ovul odamlari bu yerdan ko'chishni istamagan edilar. Boymirza va Qalamnirning uylari ham yonib ketadi. Ularning o'g'illari Nurmag'ambet bu vaqtda ovdan qaytayotgan edi. Baske qishloqning yonishiga nodsho sababchi ekanini aytadi. Yoz kelganda Nurmag'ambet uryadnikning uyiga o't qo'yib o'chini oladi.

Qishda bo'ri ovlagan vaqtda Nurmag'ambetning qo'llarini sovuq uradi. U barmoqlaridan ajraydi. To'qsonboyning yil oshida u Tuya polvon bilan kurash tushadi hamda yutadi. Pang ota uni Cho'loq polvon, deb ataydi. Polvon cho'loq tsirkda Qora maskani ham yutadi. Uezd boshlig'i Polvon cho'loqni chaqirtiradi va unga tsirkda ishlashni taklif qiladi.

Asar markazida tarixiy voqealar tasviri tursa-da, muhabbat mavzusi ham uyg'unlikda qalamga olingan. Polvon qozoqlarning odatiga ko'ra Balqash ismli qizni otda olib qochadi. Avvaliga ovul yigitlari u bilan urushmoqchi bo'lishadi. Biroq, Polvonning mardligini ko'rib ular: "Ovulimizning bitta qizi Polvonga sadag'a bo'lsin", deyishadi. U mavjud hukumatning zulmiga qarshi kurashadi, uezd boshlig'i xalqni Polvon bilan urushtirmoqchi bo'ladi, turli bahonalar bilan uni qamab qo'yadi. Polvon G'aliya ismli quvnoq, hushchaqchaq ayolga ko'ngil qo'yadi. Balqash uni rashk qiladi, Polvon G'aliyaga bo'lgan his tuyg'ularini tan oladi va xotiniga, ikki xotinning biri bo'lib o'tiraman desang, ixtiyoring, deydi. Garchi qizi Batenni ko'rib ko'ngli yumshasa-da, Balqashga bo'lgan munosabati soviydi. Polvon uezd boshlig'ining qizi Tatyani olib qochadi. Qizning otasiga, begunoh kishilarni qamoqdan ozod qilasan, bundan buyon hayotingga daxl qilmayman, deb xat qilib berasan, deb yozadi. Tatyani toqqa olib chiqib ketadi. Tatyana uning kuchliligi, mard va jasurligi uchun sevib qoladi. Uezd boshlig'i uning shartlarini bajaradi.

Polvon G'aliyaning oldiga Oqmo'laga boradi. Bu ayolga Qo'rdaboy ham oshiq edi. U polvonning ustidan uezd boshlig'iga ig'vo xati yozib qamatadi. Polvonning onasi Qalamnir G'aliyaga uni qanday qutqarish mumkinligini o'rgatadi. G'aliya turmaga borib hiyla-nayrang bilan Polvonni qutqaradi, turma yonib ketadi. Polvon hamma dushmanlardan o'ch

olishga onasidan ruxsat so'raydi. G'aliya uni bu niyatdan qaytarishga ko'ndiraman deb o'zini osmoqchi bo'lganda Polvon uni ushlab qoladi. So'ng sartaroshnikida yashirinadi. Uning onasi va otasini, G'aliyani jandarm qamab qo'yadi.

Polvon uezd boshlig'ining uyiga bostirib kiradi va to'pponcha o'qталadi. U polvonga pasport va hech kim tegmasin, degan mazmunda xat qilib beradi. Polvon yurt kezib yuradi. Uni hamma yerda hurmat bilan kutib olishadi. U to'qigan o'lanlar xalq orasida mashhur edi. Bir ovulda Polvonning o'zi fотиha bergan bola Kene uning o'lanlarini kuylaydi. Polvon bundan juda qattiq ta'sirlanadi.

Polvon yurtiga qaytadi. U endi ellikdan oshgan edi. Ovulga shov-shuvsiz kirib boraman desa ham uning yurtga qaytishi hamma yoqqa ovoza bo'lgan edi. U G'aliyaning uyiga kirib keladi. Bu vaqtda birinchi jahon urushi davom etib qozoqlardan soldatlikka odam olinayotgan edi. Hukumat xalqning norozilik bildirishini taxmin qilar edi hamda unga Polvon rahbar bo'ladi, deb qo'rqadi. "Davqora" va Sizdiq Yegorning uyida Polvonni o'ldirish rejasini o'ylashadi. Polvonni xalq yaxshi ko'radi, uni kim o'ldirganini xalq bilsa to'palon ko'tariladi, shuning uchun uni ov qilib yurganida o'ldirmoqchi bo'lishadi. Soldatlikka olish xabari kelgach, xalq Polvonga yuzlanadi. Polvon "Kurashamiz! Qo'zg'alamiz!" deydi. Barcha qozoqlarni birlashishga chorlab nutq so'zlaydi. U ovdan qaytayotganda orqasidan otib qo'yishadi. Uning oti yo'lga olib chiqqach, odamlar uyiga olib kelishadi. Kun botay deganda Polvon olamdan o'tadi. Uni qarag'ayning tagiga qo'yishadi. Yon-atrofdan Polvonga "Birlashamiz!" mazmunida xatlar kelgan edi. Odamlar xatlarni o'qishadi. Polvonning qarchig'ayi uning qabriga kelib qo'nadi va osmonga uchadi. "Polvon esini taniganidan beri nodshoga qarshi bosh ko'tarishni orzu qilar edi. Mana, odamlar ko'tarildi. Bu Polvonning arvohi parvoz qilgani emasmi?" – deyishadi.

MUXTOR AVEZOV (1897-1961). Muxtor Umarxonovich Avezov Semipalatinskning Chingiz tog'larida tavallud topdi. U bolaligidan she'riyatga, adabiyotga mehr qo'ydi. Qozoq ma'rifatparvari Abay asarlari qo'lyozmalarini o'qib savod chiqardi. Bir necha muddat Semipalatinskдagi o'quv yurtida va o'qituvchilar seminariyasida tahsilni davom ettirdi.

Bo'lg'usi yozuvchi M.Avezov 1928 yilda Leningrad Davlat universitetini tugatib, O'rta Osiyo Davlat universiteti qoshidagi aspiranturada o'qidi.

M.Avezovning dastlabki ijodi 1917 yildan boshlangan. U o'sha davrda yangi soha hisoblangan dramaturgiyada qalamini sinadi: "Enlik-Kebek" nomli dramatik asarni yaratdi. Keyinchalik "Chegarada", "Sinov soatlarida", "Yalang'och qilich", "Nomus gvardiyasi" va "Olma bog'ida" kabi dramatik asarlari dunyoga keldi. Qozoq milliy teatrining rivojida va shakllanishida mazkur sahna asarlarining o'rni kattadir.

M.Avezov nasrda ham barakali ijod qildi. Qozoq realistik nasrining taraqqiy etishida yozuvchi asarlarining ahamiyati beqiyos. Uning "Qarash-qarash", "Burgutli ovchi", "Izlar", "Elkama-elka" kabi asarlari realistik metod asosida yaratilgan. Yozuvchining "Abay" asari yirik hajmli epopeya bo'lib, uni "qozoq xalqi hayotining qomusi" deb ataydilar. M.Avezov epopeyani yaratishdan avval "Abay" pesasini yozdi, Abay haqida ilmiy-tanqidiy maqolalar yaratdi, u haqdagi xalq o'rtasida tarqalgan rivoyatlarni yig'di, xalq og'zidan yozib olingan o'lan va turli qo'shiqlarni tartiblashtirdi, o'rgandi. Ana shu izlanishlar samarasi sifatida "Abay" epopeyasi maydonga keldi. Roman-epopeya to'rt jilddan iborat bo'lib, tarixiybiografik roman hisoblanadi. Bu asar XIX asrning ikkinchi yarmidagi qozoq xalqining hayotini real tasvirlaydi. Asarda qozoq shoiri Abay hayoti qalamga olingan bo'lsa, o'z navbatida u yashagan ijtimoiy hayot voqeliklari, siyosiy tuzum holati bayon qilinadi. Shoir

Abayning otasi Qo'nonboy, onasi Uljon, rafiqasi Aygerim, buvisi Zere kampir, akasi Takejon, do'sti Erbo'l kabi obrazlar hayotiy tasvirlangan.

M.Avezovning mazkur asari nafaqat qozoq realistik adabiyotida, balki jahon adabiyotida ham tarixiy-biografik asar sifatida shuhrat qozongan.

Adabiyotlar:

1. Қаратоев М. "Қазакская литература".- М., 1980.
2. Абай Құнанбоев. Асарлар. - Т., 1980.

3. Ч.Айтматов, М.Шаханов. Чўққида қолган овчининг оҳи зори. - Т., 1999.
4. С.Сайфуллин. Машаққатли йўл.- Т., 1984.
5. М.Авезов. Абай. Роман. - Т., 1968.
6. Маънавият юлдузлари. - Т., 2001.

QIRG'IZ ADABIYOTI

Reja:

- 1. Qirg'iz xalq og'zaki ijodining kichik janrlari.**
- 2. "Manas" eposi haqida.**
- 3. Qirg'iz yozma adabiyotining shakllanishi.**
- 4. XX asr qirg'iz adabiyoti.**

Tayanch so'z va iboralar: Qirg'izlar, qirg'iz folklori, qirg'iz dostonlari, Manas dostoni, yozma adabiyot, XX asr qirg'iz adabiyoti taraqqiyoti, Aali To'qumboev, T.Sotilg'anov, Ch.Aytmatov.

Qirg'iz xalqining madaniyati va adabiyoti asosan xalq og'zaki ijodi shaklida rivojlandi. Bizgacha yetib kelgan xalq ashula va qo'shiqlari, maqol, ertak va dostonlaridan qirg'iz xalqining uzoq asrlar davomidagi ko'chmanchi chorvachilik hayoti ularni o'z xo'jayinlariga qarshi olib borgan kurashlari haqqoniy aks ettirilgan. Folxlor asarlarida qirg'iz xalqining mehnatsevarlik, vatanparvarlik va adolatparvarlik g'oyalarini ifodalovchi juda ko'p qo'shiqlar, ertaklar, dostonlar mavjud. Bu asarlarning yaratuvchilari va ijro etuvchilari mehnatkash xalqdir. Shuning uchun ko'pincha xalq hayotiga oid turli-tuman marosimlar, chorvachilik, dehqonchilik bilan bog'liq voqealar, nihoyat kambag'allar bilan boylar o'rtasidagi keskin to'qnashuvlar o'z aksini topgan.

Maqol va matallar. Maqollar xalqning uzoq yillik tajriba va kuzatishlari asosida yuzaga kelgan hayotiy hukm va xulosalari, ibratni o'zida mujassamlashtirgan,

donishmandlik o'gitlaridir. Jahonning barcha xalqlarida maqol janri yoxud shunga muvofiq keluvchi o'git, pand, nasihatni o'zida aks ettiruvchi asarlar mavjud. Ajdodlarning o'zidan keyingi avlodlarga qoldirajak hikmatli so'zlari folklorning ana shu kichik hajmli janriga singdirilgan. Qirg'iz xalq maqollari mavzu jihatdan keng qamrovli. Vatan, tinchlik, do'stlik, mehnat, insoniy fazilatlar, urf-odat, marosimlar kabi mavzulardagi maqollar juda ko'plab yaratilgan.

“Shamol bo'lmasa daraxtning uchi qimirlamaydi”, “Mol egasiga o'xshamasa xarom o'ladi”, “Har kim o'z ko'mochiga o'zi kul tortadi”, “Kuch-birlikda”, “Birlashgan o'zarbirlashmagan to'zar”, “Birlashgan kuch yengilmas”, “Ko'pchilik-mo'lchilik, ozchilikkamchilik”, “Dehqonga yer xazina”, “Uyat o'limdan qattiq” singari maqollar boshqa turkiy xalqlar maqollari bilan o'xshashligini kuzatish mumkin. Biroq, bu turdagi qirg'iz maqollari struktur va poetik jihatdan o'ziga xos farqlanadi.

Matal qirg'iz folklorida maqol atamasi bilan birga “maqol ilakaptar” deb qo'llanadi. Birikmaning ikkinchi qismi o'zbekcha “laqab” tushunchasiga muvofiq keladi. “Manake” va “Ola baytal, aqling bo'lsa suvga tort” kabi matallar faqat qirg'iz xalq og'zaki ijodidagina mavjud. Birinchi mataldagi Manake afandisifat kishi obrazi bo'lib, uning turli kulgili xolatlarga tushib qolishini nazarda tutib so'zlashuvda “Manakega o'xshaysan...”, “Manake singari ish tutibsan” kabi jumlar qo'llanadi. Manake mataliga asos bo'lgan voqea qirg'iz folklorida saqlangan.

“Ola baytal, aqling bo'lsa suvga tort” matali ham Momuqul ismli kishining yumoristik obrazi bilan bog'liq. Unda o'zi o'ylamay ish qilib qo'yib, keyin boshqaga ish o'rgatib kulgili holatga tushuvchi kishilar tanqid qilinadi.

Qirg'iz xalq og'zaki ijodida maqol va matallarga asoslangan yana bir janr borki, ular qofiyalangan va ta'limiy xarakterdagi sanat-nasoyatlardir. Nasihatlarning xalq dostonlari tarkibida kelishi xarakterli xususiyatdir. Unda oqinning muayyan mavzu yuzasidan fikru qarashlarini anglatish uchun nasihat beriladi. Sanatlar kompozitsiyasi asosan maqollardan tashkil topadi. Sanat atamasi “sanamoq”, “tartiblashtirmoq”, “tizmoq” mazmunidan kelib

chiqqan. Xalqqa ma'lum bo'lgan maqollardan tashqari oqinning o'zi ijod etgan hikmatli so'zlari, o'gitlari ham sanatlar tarkibidan joy oladi.

Masalan, quyidagi sanatta qirg'iz xalq maqollari keltirilgan hamda sanatni ijro etuvchi muallifning maqollar mazmuniga yaqin fikrlari ham bildirilgan: Bor yoki boy bo'lsanggina moling sochilar, yo'q bo'lsa, yoki kambag'al bo'lsanggina mulzam bo'lasan, boshingga mushkul ish tushmaguncha, moling arzon sotilmaydi. Kesmasang terak yiqilmaydi, yetimning orti yopilmaydi, chaqmoqsiz olov yoqilmaydi, loysiz devor qurilmaydi, yomonga yaxshi gap aytsang ham, qapog'on itdek irillaydi, yaxshi odamning yonida yurgan odam o'lguncha xor bo'lmaydi, g'iybatchi odam hech yerga sig'maydi.

Sanatlarning mavzu jihatdan saralab olinishi "terma yir" deyiladi. Xuddi maqollar singari nasihat va sanatlar ham yosh avlodni yaxshilikka, ibrat olishga undaydi, yomonlikka qarshi kurashishga chorlaydi.

Ertaklar. Qirg'iz xalqi ertaklarining ko'pchiligida, qiziqarli syujet va realistik voqealar bilan afsonaviy unsurlar aralash holda hikoya qilinadi. "Sirli quduq", "Oltin o'g'il, kumush qiz", "Xizmatkor Mambet", "Dimog'dor Bekmirza", "Aldarko'saning nayranglari", "Xasis boyning jazosi", "Bir qalpoq oltin" kabi ertaklar shular jumlasidan. Ko'pgina qirg'iz hajviy ertaklarida bosh qahramon rolda xalq orasidan chiqqan dono Ko'sa va kal obrazi gavdalanadi. Bunday hajviy ertaklar orasida Aldarko'sa nomi bilan bog'liq bo'lgan ertaklar o'zlarining g'oyaviy o'tkirligi va badiiyligi bilan ajralib turadi.

Dostonlar. Qirg'iz xalq og'zaki ijodida xalq qahramonlik dostonlariga ertak va afsonalar asos bo'lgan. Qirg'iz xalq dostonlari tarkibida qahramonlik mavzusidagi dostonlar ko'pchilikni tashkil qiladi. "Ko'rmanbek", "Ertobildi", "Ertushtuk", "Jonil Mirzo" kabi xalq qahramonlik dostonlarida xalqning erk va ozodlik haqidagi orzu umidlari, kurashlari, bahodirlarning vatan uchun kurashi sarguzashtlari tasvirlanadi.

Qirg'iz dostonlari tarkibida "Manas"ning o'rni va ahamiyati juda katta. Nafaqat qirg'iz folklorida, balki jahon adabiyoti arenasida bu dostonga hajm jihatdan teng keladigan asar topilmaydi. "Manas" dostoni "Iliada" va "Odisseya" eposlaridan ham ulkan bo'lib, 500 ming

baytdan iborat. Doston o'zbek tiliga shoir Mirtemir va bolalar yozuvchisi Tursunboy Adashboev tomonidan tarjima qilingan. Asar she'riy shaklda yozilgan bo'lib, uchta katta qismga bo'linadi. Birinchi qism Manasning tug'ilishi va bolaligi, sarguzashtlari bayoniga bag'ishlangan bo'lsa, ikkinchi qism Manasning o'g'li Semetey, uchinchi qism uning nabirasi Seytekning hayoti va boshidan kechirgan sarguzashtlarini hikoya qiladi.

Qirg'iz biylaridan bo'lgan Jaqip garchi boy badavlat bo'lsa-da, farzandsiz edi. U bir yig'inga kirganda farzandsiz kishilarga odamlarning ta'nalari ko'ngliga botib ketadi va uyiga kelgach xotini Chiyirdiga hasratini to'kib soladi. Jaqipga bir kishi "ayol kishining izzat nafi qattiq qo'zg'alsa biror natija berishi"ni uqtiradi. Jaqip Chiyirdiga ta'sirli so'zlar aytadi. Chiyirdi homilador bo'ladi va bir necha vaqt o'tgach, ayol yo'lbarsning yuragiga boshqorong'i bo'ladi. Jaqip unga tog'u o'rmonlarni kezib yo'lbarsni tutib yuragini keltiradi. Chiyirdining oy kuni kelib, o'g'il farzand dunyoga keladi. Uning yelkasida yoli va nori bor edi. Jaqip o'g'lining tug'ilishidan oldin tush ko'radi. Tushida bir avliyo unga "o'g'ling Manas bo'lsin, el yurti har doim qo'riqlasin" deydi. Manasning tug'ilishi munosabati bilan otasi qirq kecha kunduz to'y qilib beradi.

Manas kun sayin, soat sayin o'sa boshlaydi. U shunday baquvvat va pahlavon bola bo'ladi, o'rtoqlari bilan o'ynasa, ularning qo'li yoki oyog'ini bexos shikastlab qo'yadi. Shunda u tog'u toshlarga chiqib daraxtlarni tomiri bilan qo'porib, suvlarning oqimini o'zgartirib, o'ziga mashg'ulot topib o'ynaydi.

Manas butun elga polvon bo'lib mashhur bo'ladi. U har doim yonida qirq yigiti bilan yuradi, qirg'iz xalqini afg'on, qalmoq, xitoy bosqinchilaridan himoya qilib, dushmanlarga qarshi kurashadi. Asli xitoylik bo'lgan Alaooke bilan do'stlashadi. Alaooke ham Manasga hamisha sadoqatli do'st sifatida qoladi. Sarguzashtlarining birida boshqa yurt vakili bo'lgan Sanirabikaga uylanganda Manas, uning kanizaklariga o'zining qirq yigitini uylantiradi. Manasning onasi Chiyirdi keliniga o'z xalqining tiliga muvofiq "Xonikey" ismini qo'yadi. Manas boshqa ayollarga ham uylansa-da, Xonikey Manas umrining oxirigacha mehribon, sadoqatli, vafoli yor bo'lib qoladi.

Dostonda Manasning yurt ozodligi uchun olib borgan kurashlari mahorat bilan berilgan. Birinchi qism qahramonlik mavzuida bo'lsa, dostonning Semetey va Seytekka bag'ishlangan qismlari ishq-muhabbat mavzuidadir.

“Manas” dostonini kuylovchilar manaschi baxshi deyilgan. Qirg'iz xalq yozuvchisi Chingiz Aytmatovning bergan ma'lumotiga ko'ra baxshi Sayoqboy Qoralaev “Manas” dostonidan bir million misrani yod bilgan. Dostonda qirg'iz xalqining tarixi, madaniyati, etnografiyasi, geografiyasi haqida ma'lumotlar berilgan. “Manas” dostonini ta'bir joiz bo'lsa qirg'iz xalqi tarixining entsiklopediyasi deyish mumkin.

TO'XTAG'UL SOTILG'ONOV (1864-1933). Qirg'iz xalqining shoiri, oqini va bastakori To'xtag'ul Sotilg'an o'g'li 1864 yilda tavallud topdi. Bolaligidan xalq qo'shiqlari va dostonlarini tinglab ulg'aydi. Qo'biz chertib, o'zi ham qo'shiq va dostonlar ayta boshladi. Bundan ilhomlanib o'zi ham she'r yozib, kuylar yaratdi. “Qizlarga”, “Alimxon” kabi lirik she'rlar bilan bir qatorda “Eshon xalfa” singari hajviy she'rlar yaratib, ularda mutaassib ruhoniylarni fosh etdi. “Qashshoq” she'rida kambag'al dehqon obrazini yaratishga muvaffaq bo'ldi.

To'xtag'ul ana shu ishlari uchun tuhmat bilan qamoqqa olinib, Sibirga surgun qilindi. Surgunda olti yildan keyin Krugo-Boyqol temir yo'l qurilishiga ishga yuborildi. Bu erda rus muhojirlari yordami bilan surgundan qochdi, darbadarlikda yurdi, 1910 yilda o'z yurtiga qaytib keldi. Shundan so'ng yana qamoqqa olindi, uni yurtdoshlari kafillikka olib qamoqdan saqlab qoldilar.

To'xtag'ul Sibirdagi o'z boshidan o'tkazgan mudhish voqealarni “Tutqunning jiri”, “Quvg'indi”, “Eshmambet bilan uchrashuv” jirlarida juda yaxshi tasvirlab berdi. Uning she'riy asarlari qirg'iz yozma adabiyotining taraqqiyotida katta o'rin tutadi. To'xtag'ul Sotilg'anov 1933 yilda vafot etgan. 1964 yilda To'xtag'ulning “Sog'inib keldim” to'plami o'zbek tilida bosilib chiqdi.

ALI TO'QUMBOEV (1904-1988). Taniqli qirg'iz adibi, Qirg'iziston respublikasi xalq shoiri, Respublika Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi Aali To'qumboev Qirg'izistonning

Chon Kemin ovulida (hozirgi Kamin rayoni) dehqon oilasida dunyoga keldi. Dastlab eski maktablarda o'qidi. So'ngra 1927 yilda O'rta Osiyo universitetini bitirdi.

A.To'qumboevning ijodiy faoliyati 1924 yilda boshlangan. Qirg'iz yozma adabiyotining tug'ilishi va shakllanishi uning nomi bilan bog'langan. U ijtimoiy hayot voqealiklarini tanqidiy ko'z bilan ko'rib, hajviy-siyosiy mazmundagi she'riy asarlarni yaratadi. Bunday she'rlarda Chalkar (Ari), Bolka (Bolg'a) taxalluslarini qo'llaydi. Aali To'qumboev zodagon boylarni tanqid qildi, jaholatni qoralab, ma'rifat va ozodlikni tarannum etdi. Uning she'rlarida xotin-qizlar erki, huquqi, ozodligi masalasi ham qalamga olingan. "Ayol oynasi" asari shular jumlasidandir. A.To'qumboev "Mehnat gullari", "Ataka", "Birinchi she'rlar", "Tutqun Marat" dostonlarini yaratdi. Uning ijodida roman, qissa, doston, ballada va falsafiy lirikaning eng yaxshi namunalarini uchratish mumkin. "Yaralangan qalb" qissasi shular jumlasidandir. Urush yillarida A.To'qumboev "Jangchiman", "Qasos olamiz", "Olg'a" she'rlarini, "Manas vatandoshi", "Yigirma sakkizlar haqida", "Oq yo'l" dostonlarini yaratdi, ko'pgina ommabop maqolalar yozdi. Uning "Tong oldida" she'riy romani, o'nlab she'riy to'plam va dostonlari bosilib chiqdi. Ular orasida "Mening Qirg'izistonim", "Mening yulduzim" kitoblari ajralib turadi. A.To'qumboev dramada ham qalamini sinab ko'rdi. Uning "O'rmon hokimi", "Qasos" kabi asarlarida vatanparvarlik g'oyalari ifodalanadi. A.To'qumboev tanqidchi va tarjimon sifatida ham faoliyat olib borib, qirg'iz adabiyoti rivojiga o'z hissasini qo'shdi.

CHINGIZ AYTMATOV HAYOTI VA IJODI (1928-2008).

Chingiz Aytmatovning sara asarlari hozirgi jahon klassik adabiyotining uzviy bir bo'lagi hisoblanadi. Bu asarlar uslubi va janri jihatidan o'zaro farqlanadi, biroq umumiy jihati shundaki, kitobxon vaqti vaqti bilan uni qayta o'qishni istaydi va bundan qoniqish hosil qiladi. Yozuvchi asarlarining o'ziga xos psixologizmi kitobxonda kuchli hissiy munosabat uyg'otadiki, bu his-tuyg'ular jamiyatda mavjud ma'naviy mezonlarga tayanadi.

Chingiz To'raqulovich Aytmatov 1928 yil, 12 dekabrda Qirg'izistonning Talas vodiysi Shakar ovulida ma'rifatli oilada tug'ildi. Uning otasi To'raqul Aytmatov ziyoli shaxs bo'lib, davlat arbobi va olim edi. Onasi Nagima Xazievna mahalliy teatrdan aktrisa bo'lgan. Yosh

Chingiz dastlab rus-tuzem maktabida, so'ng qirg'iz maktabida o'qidi. 1937 yildagi qatag'on ularning oilasini ham chetlab o'tmadi. Otasi To'raqul Aytmatovga "xalq dushmani" degan ayb qo'yilib, qatag'on qilindi. Xuddi shu vaqtlarda bo'lg'usi yozuvchi insoniy g'urur o'gitini oldi. "Kimning o'g'lisan?" degan savolga buvisi boshini quyi solmasdan, odamlarning ko'ziga tik qarab otasining ismini aytishga undadi. Ushbu hayot darsi uning hayot yo'riqnomasiga, keyinroq ijod tamoyiliga aylandi. Urush yillarida oltinchi sinfni tugatgach, u Shakar ovulida kotiblik qildi, soliq agenti, traktorchilar brigadasida hisobchi bo'lib ishladi. Ch.Aytmatov Jambuldagi zooveterinariya texnikumida o'qidi, so'ng qishloq xo'jalik institutining zootexnika fakultetida tahsilni davom ettirdi. Talabalik yillarida respublika matbuotida kichik xabarlar, lavhalar, ocherk va maqolalar yozib chop ettirdi. Xuddi shu yillarda filologiya sohasi bo'yicha ilmiy izlanishlarini boshladi. Uning "Asliyatdan uzoq tarjimalar", "Qirg'iz tilining atamashunosligi haqida" kabi ilmiy maqolalari yaratildi. U qishloq xo'jaligi institutini bitirgach, shu soha bo'yicha 1956 yilgacha ishladi. Badiiy adabiyotga bo'lgan oshuftalik uni Moskvadagi ikki yillik adabiyot institutiga yetakladi. Ch.Aytmatov "Pravda" gazetasining Qirg'izistondagi muxbiri, "Literaturniy Kirgizistan" jurnalining redaktori, Qirg'iziston yozuvchilar uyushmasining raisi, "Inostrannaya literatura" jurnalining muharriri, Rossiyaning Lyuksemburg davlatidagi elchisi, "Issiqko'l forumi"ning boshlig'i, Qirg'iziston kinematografchilar uyushmasi boshqaruvining raisi, "Turkiston umumiy uyimiz" deb nomlangan Markaziy Osiyo ijodkorlari tashkilotining boshlig'i kabi vazifalarda faoliyat olib bordi. 1990—1994 yillarda sobiq ittifoq va Rossiyaning Benilyuksdagi elchisi, 2008 yilning martiga qadar Qirg'izistonning Frantsiya, Belgiya, Lyuksemburg, Niderlandiyadagi elchisi bo'lib ishladi. 2006 yilda "Asr dastxati" kitobining nashrida ishtirok etdi.

Chingiz Aytmatov 1963 yilda laureat bo'ldi, uch marta (1968, 1977, 1983) davlat mukofoti bilan taqdirlandi, Qirg'iziston xalq yozuvchisi, mehnat qahramoni (1978) unvonini oldi, Oliy sovet deputati, Qirg'iziston Markaziy qo'mitasining a'zosi, Osiyo va Afrika mamlakatlari birdamligi bo'yicha qo'mita rahbari sifatida faoliyat olib bordi.

Chingiz Aytmatovning adabiyotga bo'lgan muhabbati dastlab oilasida shakllangan. Uning buvisi yosh CHingizga xalq ertaklari, qo'shiq va dostonlarini aytib berguvchi ayol bo'lgan. Ijod olamiga u 1950-yillarda kirib keldi. Institutda o'qib yurgan kezlari u ilk hikoyalarini yoza boshladi va matbuotda e'lon qilindi. Uning ilk asari "Gazetafurush Dzyudo" hikoyasi edi. Birin-ketin "Hoshim", "Sepoyachi", "Oq yomg'ir", "Bo'tako'z", "Baydamtol daryosida", "Og'ir kechik" hamda "Yuzma-yuz" hikoyalari yozildi.

1958-yilda yozuvchining ilk kitobi "Yuzma-yuz" nashr etildi. Yozuvchini dunyoga tanitgan asari "Jamila" qissasi edi. Uning iste'dodini hatto tanqidchilar ham yuqori baholagan edilar. Qissa 1958 yilda chop etildi. Ikki yil davomida jahonning 30 dan ortiq tillariga tarjima qilindi, frantsuz yozuvchisi Lui Aragon uni frantsuz tiliga tarjima qildi va asarga so'zboshi yozib, unga yuksak baho berdi, "muhabbat haqida yozilgan dunyodagi eng ajoyib qissa" deb atadi.

Qissadagi voqealar jahon urushi davrida ro'y beradi. Urushdan oyog'i yaralanib qaytgan Doniyor hamda eri urushga ketgan Jamilaning chin muhabbati qissada hikoya qilinadi. Qissa bosh qahramonlarining sof ko'ngilligi, mehnatkashligi va insoniyligi kitobxonni befarq qoldirmaydi. Ularning muhabbati oldida har qanday eski urf-odatlar, turmush qiyinchiliklari, turli to'siqlar arzimas ekanligi mahorat bilan ko'rsatib berilgan. Asarning shuhrat qozonish sabablaridan biri unda erkak va ayol muhabbati tasvirlangani uchun emas, balki inson hayotining mazmuni masalasi markazga qo'yilganidir.

1960-yillarda "Bo'tako'z", "Birinchi muallim", "Sarvqomat dilbarim", "Momo yer" qissalari yaratildi. Mazkur asarlarda Qirg'izistonning og'ir holati, ijtimoiy hayotdagi turg'unlik, jaholat va xurofotni yengish mavzusi, inson ruhiy olamining g'alabasi qalamga olinadi. Qissa janrida ijod etishni davom ettirgan Ch.Aytmatov 1970-yillarda "Erta qaytgan turnalar" asarini yaratdi. Asarda urush yillaridagi og'ir vaqtlarda bolalik bilan xayrlashib ulgurmay darhol katta hayotga qadam qo'ygan o'smirlar haqida hikoya qilinadi. Ushbu qissa avtobiografik xarakterga egaligi bilan ajralib turadi. Ma'lumki, yozuvchining bolalik, o'smirlik yillari urush davrlariga to'g'ri kelgan, shu bois ham qissada muallif hayotidagi ayrim lavhalar o'rin olgan.

“Oq kema” qissasi bolalik olami haqidagi fojeiy ruhdagi asardir. Bu asar 1970-yillarda yaratilgan yozuvchining eng yaxshi qissalaridan biri hisoblanadi. Yozuvchi dastlabki asarlarini qirg'iz tilida yozib so'ng rus tiliga o'giran bo'lsa, “Oq kema” qissasidan so'ng asarlarni rus tilida yozib keyin qirg'iz tiliga tarjima qiladigan bo'ldi. Rus tilini erkin bilishi yozuvchining nafaqat keng muxlislar ommasining e'tiboriga tushish va millionlab kishilarning muhabbatiga sazovor bo'lish imkonini berdi, balki rus zamonaviy klassik yozuvchilari qatoridan munosib o'rin egallashiga omil bo'ldi.

“Sohil bo'ylab chopayotgan Olapar” asari zamonning eng dolzarb masalalarini qamrab olgan falsafiy mazmundagi qissadir. 1990-yillarda “Cingizxonning oq buluti” qissasi, “Kassandra tamg'asi” romani yaratildi.

1980-yillarda Ch.Aytmatov roman janrida izlanadi. “Bo'ronli bekat” (“Asrga tatigulik kun”) va “Qiyomat” romanlarini yozdi. Bu asarlar insonning o'z-o'zini xalokatga mahkum etishidan, dahshatli inqirozlardan ogoh etuvchi asarlar sifatida maydonga keldi. Shuningdek, zamonning og'ir masalalari bo'lgan giyohvandlik, ma'naviy qashshoqlik va tubanlik, qalb tozaligi, insoniylik kabilar yoritildi.

Ch.Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” romani asari 1980 yilda “Новый мир” jurnalida e'lon qilindi. Asar Frunzeda kitob holida bosilib chiqdi. 1981 yilda Moskvada “Molodaya gvardiya” nashriyotida “Bo'ronli bekat” sarlavhasi bilan chop etildi. Roman haqida jamoatchilikda yaxshi fikrlar, taqrizlar paydo bo'ldi, asar hozirgi romanchilikning eng sara namunasi sifatida e'tirof etildi. Asarga yozilgan so'zboshida yozuvchining quyidagi so'zlari berilgan: “Ma'lumki, mehnatga muhabbat inson qadr-qimmatini belgilovchi zaruriy me'yorlardan biridir. Shu ma'noda Edigey Jongeldin chin ma'noda haqiqiy mehnatkashdir. Zamin shundaylar tufayli barqarordir. U o'z davri bilan mustahkam bog'langan deb o'ylayman. Uning mohiyati shundaki, u o'z davrining farzandi. Shuning uchun ham romanda tilga olingan muammolarga murojaat etar ekanman, kechagi jangchining, bugungi temir yo'l ishchisining taqdiri orqali dunyoni ko'rish men uchun muhim edi. Men qo'limdan kelganicha shunga intildim”.

Asar voqealari Sario'zak cho'lidan o'tgan poezd yo'li atrofidagi besh-olti xo'jalik oila kishilari hayoti bilan bog'lanadi. Biroq, ularning sarguzashtlari asnosida butun bir millatning taqdiri, kelajagi haqida bong uriladi, insoniyat va tabiatda ro'y berayotgan ofatlar haqida bong uriladi. Poezd stantsiyasi yaqinida kosmodrom joylashgan bo'lib, bu yerdan ikki kosmonavt fazoga uchirilgan edi. Ular o'zga sayyoradan hayot signalini olishgach, u yerga qo'nishadi va yerdagidan o'zgacharoq, urush va inqirozlarsiz, yovuzliklarsiz sayyora mavjudligini ko'rishadi va yerga qaytib kelishmaydi. Shu vaqtda Edigeyning yaqin do'sti Qozongap vafot etadi. Uning vasiyati o'limidan keyin Ona Bayit qabristonidan makon topish edi. Ona Bayit qabristoniga esa kosmodrom qurilgan edi. Biroq Edigey qancha urinmasin kosmodrom boshlig'i va qorovul Qozongapni u yerga dafn etishga ko'nmaydi. Bir kunlik dafn marosimi ichida Edigey bir asrlik millat taqdiri va tarixini ko'z o'ngidan o'tkazadi. U do'stining vasiyatini bajarolmay poezd yo'lidagi kimsasiz joyga uni ko'madi. Qabriston va kosmodrom yozuvchi anglatmoqchi bo'lgan tarix va bugungi kunning to'qnashuvi ramzi sifatida talqin etilgan. Romandagi Edigey inson hayotda yashashni o'rgansa, u inqirozga yuz tutmaydi, degan fikrda bo'ladi. Uningcha, o'tmish haqidagi xotiralarni unutgan inson faqat bugungi kun bilangina yashaydi. Asarda markaziy o'rinda turuvchi muammolardan biri ham tarixiy xotiradir.

Ch.Aytmatov asarlariga xos bo'lgan xususiyatlardan biri yozuvchi aksariyat asarlarida xalq afsona va rivoyatlari, mifik elementlarni kiritadi. Manqurt haqidagi rivoyat o'tmishini, ajdodlarini, tarixini, demakki, milliy o'zligini yo'qotganlar taqdiri bayonidir.

Uzoq davrlarda qabilalar chorvachilik bilan tiriklik qilib yashardilar. Ularga jungjanlar bosqinchilik qilib yosh yigitlarni asirga olar, turli qiynoqlarga solardilar. Asirlarning sochini qirib o'rniga tuyaning yangi so'yilgan terisini yopishtirib cho'lning eng ichkari jazirama joyiga tashlar edilar. Asirlardan ko'pchiligi azoblarga dosh bermay o'lar, tirik qolganlari xotirasini yo'qotib, o'zining kimligi, avlod ajdodini unutgan bo'lar, xo'jayini nimani buyursa shuni bajaruvchi manqurtga aylangan bo'lardi. Boshiga yopishtirilgan tuya terisi boshni qisib, aqldan ozdirar darajada azob berar, vaqtlar o'tgach, soch tashqariga emas ichkariga o'sib odamni miyasidan butkul ayirar edi. Shunday asirlikka tushgan

yigitning onasi o'g'lini cho'l ichidan topadi. Nayman ona o'zini tanitadi, "Isming Jo'lomon, otangning ismi Do'nanboy!" deb uqtirsa-da, o'g'il o'z onasini tanimaydi va xo'jayinning buyrug'i bilan uni otadi. Nayman onaning ruhi qushga aylanib cho'lda parvoz qilarkan, go'yo uning so'nggi so'zlarini takrorlayotganday bo'ladi.

Yozuvchi bu rivoyatni keltirishdan asosiy niyati zamonaviy manqurlarning borligi va ularning loqayd, mas'uliyatsiz, o'z tarixi va millati taqdiriga beparvoligidan hayotdagi fojealarning urchib borayotganligini ta'kidlashdir. Qozongapning o'g'li Sobitjon ana shunday zamonaviy manqurlardandir. U otasining vasiyatini bajarish uchun emas, tezroq uni ko'mib, ortiqcha tashvishdan qutulish va shaharga qaytib ketishga urinadi. Uning uchun ajdodlar yodi degan tushuncha yo'q. Kosmodromdagi leytenant ham Sobitjon kabi manqurt, u marhumni qabristonga ko'mishga ruxsat bermaydi.

Asarda inson va tabiat muvozanatining buzilishi, hayvon turlarining yo'qolib borayotganligi Qoranor laqabli ot misolida ko'rsatiladi. Stalin qatag'onining fojealari o'qituvchi Abutolib taqdiri orqali bayon etiladi. Aytish mumkinki, "Asrga tatigulik kun" roman – ogohlantirish sifatida jaranglaydi.

"Qiyomat" romani inson qalbining hayqirig'i, chunki olamda shu qadar yovuzliklar ro'y bermoqdaki, sukut saqlash mumkin emas. Yozuvchi ko'plab dolzarb masalalarni giyohvandlik, insoniyat inqirozi, tabiat va insoniyatga vahshiylarcha munosabat, urush xavfi, yuksak orzu va ishonch, e'tiqodning yo'qolishini ko'ndalang qo'yadi. Davlat rejasini bajarish va go'sht ishlab chiqarish uchun sayg'oqlarning yalpi qirib yuborilishi, qamishlarning yoqib tashlanishi, ko'lning qurishi kabi vayrongarchiliklar yer sayyorasini yo'q qilib yuborishga olib kelishi mumkinligi haqida bayon qilinadi.

Romanning bosh qahramoni Avdiy Kallistratov yovuzlikka qarshi kurashadi, biroq bu uning qo'lidan kelmaydi. Giyohvand yigitlar uni Iso Masih singari chormixga osib, o't yoqib yuborishadi. Hatto ona bo'ri Avdiyni himoyasiz ko'rganda ham unga tashlanmagan edi, insonning insonga vahshiyliги darajasi yovvoyi hayvondan ham yuz karra ortiqligi dahshatlidir.

Asarda Akbara va Toshchaynar voqeasi inson va tabiat munosabatini ko'rsatish uchun keltirilgan. Bo'ri oilasi o'z naslini saqlab qolishga urinadi, odamzod uning bolalarini ikki marta ovlaydi, Akbara undan qasd oladi, Bo'stonning bolasini olib ketayotganda bo'rini otaman deb ota o'z farzandini otib qo'yadi. Bu o'rinda ko'k ko'zli ona bo'ri timsoli butun mavjudotning, tabiatning ramzi sifatida tasavvur uyg'otadi.

Romanda Iso va Pontiy Pilatning suhbat munozaralari bor. Butun borliq va yaratiqqa yaxshilik va muhabbat sog'inish insonning barkamolligi sari yo'ldir. Inson hayotining mazmuni o'z ruhiy kamolotini mukammallashtirishdadir, deydi Iso Pilatga. Biroq, buni insonga qanday tushuntirmoq kerak? Har bir insonga qaysi yo'lni tanlash xohishi berilgan. Uning oldida ikkita yo'l turadi: ezgulik va yovuzlik. Inson va tabiatning o'zaro munosabati ma'naviyat masalasiga aylanadi.

Chingiz Aytmatov asarlarida inson va tabiat bilan bog'liq juda ko'p muammolar qamrab olingan. Bu asarlar o'zganing dardi uchun qayg'urish, atrofdagilarga shafqatli bo'lish, loqayd bo'lmaslik va qo'ldan kelgancha yordam berishga intilish tuyg'ularini o'stiradi. Shu bois bo'lsa kerak, yozuvchining o'zi bu haqda: "Tashvishlanmasam va iztirob tortmasam, izlamasam va to'lqinlanmasam - o'sha kun hayotimdagi eng og'ir kun bo'lar edi", deydi.

Ch.Aytmatov asarlari insonni atrofida bo'layotgan voqea-hodisalarga tiyrak nigoh bilan boqishga, o'z qondoshiga va jonli tabiatga munosabatda shafqatli bo'lishga, ajdodlarga, tarixga ehtirom bilan yondashishga undaydi.

Саволлар

1. Қирғиз халқ оғзаки ижоди ҳақида сўзланг.
2. Достон жанрига таъриф беринг. Қирғиз халқ қаҳрамонлик достонларининг асосий хусусиятлари нималарда кўринади?
3. Манас достонининг тузилиши ва мазмуни, шуҳрати ҳақида сўзланг.
4. Т.Сотилғонов ва Али Тўқумбоев ижодининг ўзига хос жиҳатлари нималарда намоён бўлади?

5. Ч.Айтматов ижодининг илк даври ҳақида нималар биласиз?
6. Ч.Айтматов қиссалари ҳақида сўзланг.
7. Ч.Айтматов романларининг бош ғояси, умумбашарий масалалар тўғрисида нима дея оласиз?

Adabiyotlar:

1. История киргизской литературы.- М., 1970.
2. Ч.Айтматов, М.Шоханов. “Чўққида қолган овчининг оҳи-зори”. - Т., 1998.
3. А.Тўқимбоев. Тонг олдида. Шеърый роман. - Т., 1985.
4. Манас. - Т., 1993.
5. Айтматов Ч. Танланган асарлар. 2 жилдлик. - Т., 1978.
6. Айтматов Ч. Қиёмат.- Т., 1986.
7. Айтматов Ч. Кассандра тамғаси.- Т., 2003.

TURKMAN ADABIYOTI

Reja:

1. Qadimgi turkman xalqi haqida.
2. Turkman xalq og'zaki ijodi namunalari.
3. Turkman yozma adabiyotining shakllanish jarayoni.

Tayanch so'z va iboralar: turkman, daxlar, massagetlar, ahamoniylar, Burhoniddin Sivosiy, Ozodiy, Mahtumquli.

Qadimgi davrlarda hozirgi Turkmaniston hududiga kiruvchi joylarda daxlar, massagetlar, alanlar, asslar va boshqa qabilalar chorvachilik va ko'chmanchilik asosida hayot kechirganlar. Bu qabilalar mahalliy sharqiy – eron lahjasida so'zlaganlar. Eramizdan avvalgi I ming yillikda bu hududda Baqtriya, Xorazm, So'g'diyona va Marg'iyona singari boy va madaniy davlatlar rivojlandi. Eramizdan avvalgi V asrda O'rta Osiyodagi davlatlar o'zlarining mustaqilligini boy beradi, Ahamoniylar hukmronligi ostida qoladi. O'rta Osiyo xalqlari haqidagi saqlanib qolgan ilk yozma ma'lumotlar ham shu davrlarga to'g'ri keladi. Ahamoniylar davlati tarkibiga kiruvchi keng hududda rasmiy til oromiy tili edi. Shunga muvofiq oromiy yozuvi belgilari turli eron shevalari tovushiga moslashtirilgan edi. O'rta Osiyoda uchta yozuv turi bor edi. Sug'diyonada – so'g'd, Eron, uning shimoliy-sharqiy hududlari, xususan Turkmaniston hududida – pahlaviy yozuvi hamda O'rta Osiyodagi turkiy tilda so'zlovchi xalqlar foydalangan uyg'ur yozuvi edi.

Ahamoniylar ishg'ol etgan hududda o'z yozuvlarini joriy etishdan tashqari o'z dinlarini ham targ'ib etdilar. Bu davrga oid adabiy yodgorliklar saqlanib qolmagan. Mazkur xalqlarning folklori haqida grek tarixchilari Gerodot, Ktesiy va b. Asarlarida, "Avesto", Firdavsiyning "Shohnoma"sidagi afsona va rivoyatlardan ma'lumot olish mumkin. Qadimgi xalqlarning og'zaki ijodi namunalari turkman folklorida - mifik obrazlar dev, ajdarho – yovuzlik ibtidosi, semurg' va pari – yaxshilikning boshlanishi sifatida saqlanib keladi. Lekin bu obrazlar o'zaro zid ma'noga ham ega bo'ladi. Ayrim o'rinlarda devlar insonlarga ko'maklashsa, boshqa o'rinda buning aksi bo'ladi.

O'rta Osiyo xalqlarining barchasida qadimiy qahramonlik obrazi Rustam yoki Rustami Zol o'zining mashhurligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bu obraz kuch va qahramonlikni xalqning baxt-saodati uchun kurash ramzini aks ettiradi. Eramizdan oldingi VI asrda hozirgi Turkmaniston hududidan Aleksandr Makedonskiy o'tadi. Bugungi kungacha yetib kelgan ertak va afsonalarda bu sarkardaning nomi uchraydi. Makedonskiyning O'rta Osiyoga yurishi va g'alabasi Gretsiyaning sharq madaniyatiga ta'siriga sabab bo'ldi. O'rta Osiy va hozirgi Afg'oniston hududida Makedonskiy hukmronligining tugallanishidan so'ng grek-baqtriya davlati tashkil topdi. Grek-baqtriya

davlatida Gretsiya va Hindistonning turli madaniyatlari o'z tajassumini topdi. Hozirgi Turkmaniston hududida Parfiya davlati poytaxti Niso (Ashxobodga yaqin joylashgan) shahri vayronalarining qoldiqlari topilgan. Bu davlatning iqtisodiy va siyosiy aloqa, munosabatlari kengaydi; g'arbda Rimgacha, sharqda Xitoygacha ko'lamni egalladi. Eramizdan avvalgi I asrda Parfiya davlati dunyoning qudratli davlatlari qatorida edi. Eramizning uchinchi asrida Parfiya davlati Sososniylar davlatiga o'rnini bo'shatib berdi. Bu davrda ayniqsa, VI asrda adabiy hayotning jonlanishi seziladi, hind tilidan tarjimalar ko'payadi. Tarjima adabiyotining ildizlari turkman xalq og'zaki ijodi – ertak va dostonlarda ("Bulbuligo'yo", "To'tinoma" va hayvonlar haqidagi ertaklar) ko'rinadi.

VIII asr boshlarida O'rta Osiyo arablar tomonidan ishg'ol etiladi va bu hududda davlat tili arab tili bo'ladi. IX asrda adabiyotda tasavvuf ta'limotining vahdatul vujud yo'nalishi shakllanadi. IX asrda arablar xalifaligi o'zining ta'sir kuchi va hukmronligini yo'qotadi, davlat tepasiga (poytaxti Buxoro) kelib chiqishi eroniy bo'lgan Somoniylar keladi. Natijada arab tili o'rniga tub aholining jonli so'zlashuv shevasi dariy yoki yangi eron tiliga almashdi. Keyinchalik bu til Eron va Tojikistonning adabiy tiliga asos bo'ldi. Eron adabiyoti, dini, an'ana va urf-odatlariga qiziqish kuchaydi. IX asrda yangi eron tili va adabiyoti rivojlana boshladi.

Turkiy xalqlar sirasiga mansub turkman xalqi o'zining tarixiy taraqqiyoti davomida murakkab yo'lni bosib o'tdi. Bu xalqning adabiyoti, san'ati, madaniyati xalq og'zaki ijodi ko'rinishida taraqqiy etdi. Har bir xalqning og'zaki ijodi uning tarixi, xalq hayoti, turmush tarzi, dunyoqarashi haqida ma'lumot beruvchi ilk manba hisoblanadi. Turkman xalq og'zaki ijodi namunalarida shu xalqning urf-odat, an'analari, milliy qadriyatlari, hayot tarzi, orzu-umidlari, etik-estetik tamoyillari aks etadi.

Turkman xalq og'zaki ijodida ertak, ashula, qo'shiq va doston janrlari juda keng tarqalgan. Ashula, qo'shiq va ertaklar turkman folklorida eng qadimgi janrlardan biri hisoblanadi. Turkman latifalarida boshqa turkiy xalqlarda bo'lganidek, yumoristik qahramon bosh obraz hisoblanadi. Kamina va Mushfiqiy Nasriddin Afandi obrazi singari aqlli, dono, tadbirli, hozirjavob, boylarni dog'da qoldiruvchi, xalqning manfaatlari uchun

kurashuvchi qahramonlardir. Turkman latifalariga baʼzan yumor, baʼzan zaharxanda kulgi – hajv pafosi xos.

Ertaklar. “O’zi bir qarich, soqoli ikki qarich”, “Gulnorjon”, “Dev va uch opa-singil”, “Shaxzoda va toychoq”, “Bir yillik podsho”, “Vazir va bolalar”, “Oypopuk” nomli ertaklarda turkman xalqining nafaqat badiiy-estetik idrokini, balki kelajakka bo’lgan umidbaxsh nigohini sezish mumkin.

Keyinchalik xalq ertaklari syujetlaridan keng foydalanish asosida xalq qahramonlik va ishqiy-lirik dostonlar yuzaga keldi. Turkman xalq dostonlarining biror qismi sharq mumtoz adabiyoti asarlari va diniy kitoblar (Masalan, “Layli va Majnun”, “Yusuf va Zulayho”) mazmunini qamrab olgan bo’lsa, bir qismi uchun ertaklar va rivoyatlarning syujetlari asosiy manba bo’lib xizmat qilgan. (Shohsanam va G’arib, Zuhra va Tohir, Asli va Karam).

Dostonlar. Turkman xalq og’zaki ijodida Go’ro’g’li tsiklidagi dostonlar alohida o’rin tutadi. O’zbek, qirg’iz va ozarbayjon xalqlari orasida keng tarqalgan syujetlarni turkman folklori uchun ham tipologik hodisa hisoblanganligining guvohi bo’lamiz.

“Yusuf va Zulayxo”, “Layli va Majnun”, “Shohsanam va G’arib”, “Zuhra va Tohir”, “Asli va Karam” kabi dostonlar turkman xalq og’zaki ijodi namunalaridir. Bu dostonlar o’zbek, ozarbayjon, turk folklorida ham uchraydi. “O’g’uznoma” va “Kitobi Dada Qo’rqut” nomli dostonlar turkman folklorida ham yaratilgan bo’lib, boshqa turkiy xalqlardagi variantlar bilan hamohangdir.

“Go’ro’g’li” turkumidagi dostonlarning birida uning tug’ilishi, bolaligi, ulg’ayishi va boshidan o’tgan sarguzashtlari tasvirlanadi. Chambil yurti poshosi Jig’alibekning ikki o’g’li bor edi. Yurtni boshqarish o’g’li Alibekka o’tadi. Alibekning homilador xotini oy kuni yaqin qolganida vafot qiladi. Bir muddat o’tgach Alibek ham olamdan ko’z yumadi. Kunlardan bir kuni Jig’alibekka uning cho’poni podadagi echkilardan biri qabristonga borib, u erda qandaydir jonivor yoki biror narsaning bolasini emizib kelishini aytadi. Jihalibek odamlari bilan borib qarasa Alibekning xotini qabridan bir bola echkini emib, yana qabrga emaklab tushib ketayapti. Bolani sinash uchun lattadan tayyorlangan qo’g’irchoq va yog’ochdan

yasalgan ot o'yinchoqni qo'yib qo'yadilar va uzoqdan yashirinib kuzatib turadilar. Go'dak qo'g'irchoqni yirtib otib yuborib ot o'yinchoqni o'ynay boshlaydi. Bolaning o'g'il ekanini bilishib uni o'zlari bilan olib ketishadi. Qabrda tug'ilgani uchun uni Go'ro'g'li deb ataydilar.

Dostonning yana bir variantida Xunxor podshosi Jig'alibekdan ot tanlab berishni so'raganda u eng ko'rimsiz otni zotdor deb ko'rsatadi. Podsho sen meni masxara qilyapsan deb, jahli chiqadi va Jig'alibekning ko'zini o'ydiradi. "Ko'rning o'g'li" degan ma'noda Jig'alibekning nevarasi shunday nom oladi. Jig'alibekka o'zi ko'rsatgan otni berib podsho ularni saroydan haydaydi. Bu ot keyinchalik Go'ro'g'lining tulpori G'irot bo'ladi.

Go'ro'g'li boshqa turkiy xalqlar dostonlarida bo'lganidek turkman dostonchiligida ham el-yurt manfaatlari yo'lida kurashuvchi, jasur, haqiqatparvar, aqlli hukmdor obrazi sifatida namoyon bo'ladi. Go'ro'g'li Og'a Yunus va Gulshirin degan pari qizlarga uylanadi.

Go'ro'g'li farzandsiz bo'ladi, Xunxor elidan Avazxonni olib kelib o'g'il qilib tarbiyalaydi. Go'ro'g'lining bir yuz yigirma yil yashashi, lekin farzand ko'rmasligi bashorat qilingan edi. U Rayhon arab kabi dushmanlarga qarshi kurashadi, yurtning tinchligi yo'lida jonini fido qiladi, dushmanlar bilan jangda kurashib halok bo'ladi.

Yozma adabiyot. Turkman yozma adabiyotining rivoji XIV asrlarga to'g'ri keladi. Bu davrda Burhoniddin Sivosiy va Sayyid Imomiddin Nasimiylar yashab o'z asarlarini yaratdilar. Ularning ijodiy merosi turkman adabiyoti tarixini o'rganishda muhim hisoblanadi. Fors tili adabiyot tili va arab tili ilm-fan tili bo'lib turgan vaqtda Sivosiy she'rlarini birinchi bo'lib o'z ona tilida yaratdi. Shoir Xorazmda tug'ilib, hayotini Kichik Osiyo shaharlarida o'tkazgan. Turkman she'riyatiga aruz vaznini birinchi marta olib kirdi.

Turkman shoirlarining XVI asrda Hindistonda tashkil topgan boburiylar davlatini idora qilishda ishtirok etganligi haqida ham ayrim ma'lumotlar mavjud. Bayramxon, Anisiy, Abdurahim singari shoirlar shular jumlasidandir. Ta'kidlash o'rinliki, turkman she'riyatining etakchi mavzusi didaktika bo'ldi. Chunki tarqoq turkman qabilalarini birlashtirishga chaqiriq va da'vat uchun asosiy vosita adabiyot edi. Keyingi davrlarda

Ozodiy, Maxtumquli va Mullo Nafas kabi zabardast turkman shoirlari ijodida ham pand nasihat asosiy mavzulardan edi.

Har bir turkiy xalqning adabiyoti muayyan davrlarda taraqqiyot cho'qqisiga chiqqan. Shuningdek, turkman mumtoz adabiyotining taraqqiy etgan davri XVII- XVIII asrlar deb belgilanadi. Bu davrda ko'plab turkman shoirlarining jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy voqealarni aks ettiruvchi she'riy asarlari, dostonlari va boshqa asarlari yaratildi. Shobanda taxallusli shoirning lirik she'rlari, "Shoh Bahrom", "Gulu Bulbul", "Xo'jamberdi" dostonlari, Ma'rufiyning "Sayful muluk Midhal Jamol", "Yusuf va Ahmad", "Davlat Er" dostonlari, Shaydoyining "Qissai Sanavbar" dostonlari turkman mumtoz adabiyotining namunalari sifatida maydonga keldi. Nurmuhammad G'arib Andalib yozma adabiyotda dostonchilikni rivojlantirdi. U yaratgan dostonlar tarkibidagi "Layli va Majnun" asari "Xamsa" anʼanalari asosida bitilgan bo'lib, turkman xalqida mashhur bo'ldi.

Mahtumqulining ijodi turkman mumtoz adabiyotida alohida o'rin tutadi. Shoir asarlari turkman mumtoz adabiyotining rivojlanishiga omil bo'ldi, son va sifat jihatdan turkman adabiyotini boyitdi. Saidiy, Kotibiy, Miskin qilich, Bayram Shoir, Ko'rmullo, Mullo Murt va Durdi Qilichlar Maxtumquli yaratgan maktabdan ta'lim olib turkman she'riyatini yangi bosqichlarga ko'tardilar.

Maxtumquli (1733-XVIII asrning 80 yillari). Turkman adabiyotining mumtoz shoiri Maxtumquli adabiyotga havasi baland oilada dunyoga keladi. Uning bobosi yoshligida Go'rko'z nomli qabilaga kelib qoladi va shu yerda ishlab qoladi. Bir qancha vaqt o'tgach, u o'zi mustaqil dehqonchilik bilan shug'ullanadi. Maxtumqulining otasi Davlat Mamad Ozodiy shoir edi. Uning bola-chaqasi ko'p bo'lib, uning uchinchi o'g'li bobosining taxallusini olgan Maxtumquli taxminan 1733 yilda tug'iladi. Bo'lg'usi shoir dastlab ovul maktabida o'qiydi. Bo'sh vaqtlarida poda boqadi. To'qqiz yoshidan qo'shiqlar to'qiydi. So'ngra Xivada Sherg'ozi va Idrisbobo madrasasida ta'lim oladi. U Buxoroga borib Ko'kaltosh madrasasida ham tahsil oladi. Maxtumquli zargarlik hunari bilan ham shug'ullanadi. Shoir Xiva, Buxorodan tashqari Ozarbayjon, Eron, Afg'onistonda ham sayohatda bo'ladi.

Maxtumquli haqida ba'zi rivoyatlar bor. U dushmanlarga bir necha bor asir tushib qoladi va topqirligi bilan o'zini va oilasini qutqarib qoladi. Bu voqeaga o'xshash mazmun uning she'rlaridan birida namoyon bo'ladi. Maxtumquli yoshligida Mengli ismli bir qizni sevgan, lekin qalin to'lay olmagan uchun qizni boshqaga sotib yuborishadi. Shoir Oqqiz ismli ayolga uylanadi. U ikkita o'g'il ko'radi, biroq ular yoshligida o'lib ketishadi. Uning boshqa farzandi bo'lmaydi. Oilaviy baxtsizlik shoirning ko'pchilik she'rlarida aks etgan. Shoir XVIII asrning 80 yillarida vafot etadi. Shoir o'limidan oldin o'zini qorli tog'lar ko'rinadigan joyga olib chiqishlarini iltimos qilgan va u yerda hayotning foniyligi haqida she'r o'qigan. Maxtumqulining qabri Atrek bilan Sanggi tog' oralig'idadir. Shoirni otasi Ozodiy yoniga dafn etganlar.

Shoirning ijodiy merosi taxminan 16-17 ming misradan iborat. U qo'shiqlardan tashqari g'azallar ham yozgan. Sharq she'riyati an'anasiga ko'ra misralarning so'ngida shoirning nomi uchraydi. Ba'zi she'rlarda Firog'iy taxallusi ham bor. Mahtumquli she'riyatining mavzulari ancha keng. Uni quyidagicha guruhlash mumkin: 1. Qahramonlik mavzusi. 2. Axloqiy-ta'limiy. 3. Tabiat manzarasi (Peyzaj lirikasi). 4. Ishqiy she'rlar. Bundan tashqari qadimiy rivoyat va afsonalarga asoslangan syujetli qo'shiqlar ham mavjud. Turkman qabilalari o'rtasidagi tarqoqlikka barham berish, birlashishga chaqiriq uning ijodida asosiy o'rin tutadi.

Maxtumqulining she'rlari nafaqat turkmanlarda boshqa turkiy xalqlarda ham keng ommalashgan, ko'pchilik she'rlari hofizlar tomonidan kuyga solinib ijro etilgan. Shoirning g'azallari va she'rlarida lirik qahramon sevgisi yo'lidagi fidoiy oshiq timsolida gavdalanadi:

Qon etibdir falak bag'rim firoqda,
Doimo kezarman yor deb so'roqda,
Ka'ba tarafida, Shomda, Iroqda,
Mening sohibjamolimni ko'rdingmi?

Shoir ijodiy merosida mumtoz adabiyotning murabba' janrida yozilgan she'rlar ham uchraydi.

Ishq duch kelsa bir mardga,

Aylanar to'zon gardga
Meningday o'zin dardga Solgan
bormi, yoronlar?

She'rning mazmuni, kompozitsion qurilishi, obrazlilik jihatidan o'zbek shoirlari Mashrab va Huvaydo ijodiy merosidagi namunalarni yodga soladi. Ko'rinadiki, Maxtumdul she'riyati va o'zbek adabiy aloqalari munosabatida mushtarakliklar juda yaqin. Shoirning "Ko'ring", "Raygon ayladi", "Bo'lmas", "Namasan", "Adolat yaxshi", "O'tib boradi" kabi she'rlari xalqona uslubda, sodda shakl, ravon til bilan yozilganligi uchun xalqning ko'nglidan joy olgan. Shoir she'riyatining bosh g'oyasi ezgulik, o'z xalqiga sadoqat, vafo, yaxshilik bilan nom qoldirish, sahovat kabilarga chaqiriqdir. Inson hayotda yashar ekan, sahovatli bo'lishi kerakligi, boylikka ro'ju qo'yish yomon oqibatlarga olib kelishini bot-bot takrorlaydi:

Bir pul tushsa bir iflosning qo'liga
Ko'ksin ochib, kezar qishning yeliga.

Moddiy boylik vafo qilmasligi, kishi boymi yoki kambag'almi bir kuni hammasi ham dunyodan o'tib ketishlarini, hayotning asl mazmuni yaxshilik qilib yashash ekanini misralar mazmunidan uqib olish mumkin. Shoir quyidagicha yozadi:

Bir nechani qilding moling bisyori,
Bir nechani qilding bir pulning zori
Yaxshi yomon odam zotining bori
Navbat bilan o'tib borishin ko'ring.

Shoir kishilarni ko'p o'rinda mard va nomardga ajratadi. Baxil, saxovatsiz, takabbur, adolatsiz, shafqatsiz odamlarni nomard deydi. Ularning mavjudligi elu yurtga ziyon ekanligi ko'rsatiladi. Mard va nomard obrazlarining ziddi orqali shoirning dunyoqarashi, ijtimoiy holatlarga munosabatini anglab olish mumkin: Nomard yurar mudom o'limdan qochib, Uyiga kelganda zahrini sochib.

Mard yigit mehmonga quchog'in ochib,

Nomardning mehmondan qochishin ko'ring.

Inson axloqi, ichki olami haqidagi shoirning fikr-mulohazalari, tanqidiy qarashlari barcha davrlar uchun o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Quyidagi misralar ham go'yo bugungi kunimiz uchun ham aytilgandek taassurot qoldiradi:

Nomard qayga borsa, xizmat bitirmas,
Mard yigitlar bahosini yitirmas, Nodonga
sir aytsang, ichida turmas, Sirdosh
bo'lma, yiroq ayla o'zingni.

Maxtumquli she'riyatining mag'zi butunligi, xikmat va o'gitlarga boyligi, turfa obrazlar mavjudligi bilan asrlar osha yashab kelmoqda.

1996 yilda Xivada Maxtumquliga haykal o'rnatilganda Turkmaniston prezidenti S.Niyozov "Maxtumquli o'zbek va turkmanlarga birday bo'lgan mutafakkir shoirdir. U bizning faxrimiz va vatandoshimizdir. Maxtumqulini bilmagan bironta o'zbek ham, turkman ham yo'q", degan gaplarni aytdi. O'zbekiston Prezidenti I.Karimov o'z dokladida Mahtumqulining ijodi o'zbek xalqi uchun juda qadrlı ekanligi, uning she'rlarida adolat va ezgulik kuylanganligini aytdi. Shoir ijodini o'zbek va turkman maktablarida keng o'rganish kerak ekanligini ham ta'kidlab o'tdi.

Mullanafas. Taxminan 1810 yilda Turkmaniston janubidagi Saraxs atrofida tug'ilgan. Uning otasi Qodirberdi bolalarni o'qitgan, shuning uchun uni Mulla Qodirberdi deb atashgan. Turkman olimi A.Ashurovning bergan ma'lumotiga ko'ra shoirning ismi Tangriberdi ham bo'lishi mumkin. Bo'lg'usi shoir Xivada o'qiganda ustozı unga shu nom bilan murojaat qilgan ekan¹. Mullanafasning hayot yo'li va oilaviy hayoti haqidagi ilk ma'lumotlarni Hojali mulla Murodberdi o'g'li rus sharqshunosi A.N.Samoylovichga yuborgan. Ushbu ma'lumotga ko'ra shoirning Mulla Rasul va Muhammadrahim ismli o'g'illari bo'lgan. Mulla Rasulning ikki o'g'li bo'lib, biriga shoirning ismi qo'yilgan, ikkinchisi Omonjondir. Shoirning Bo'stontoj ismli xotini bo'lganligi uning "Zuhra-Tohir" dostonida ma'lumot uchraydi.

¹ Э. Очилов. Ишқ мулкининг шоҳи. / Муллонафас. Муҳаббат фасли. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. 3-бет.

Mullanafasning bolaligi haqida ma'lumotlar yetarli emas. Ayrim manbalarga ko'ra uning ilk savodni otasining qo'lida chiqarib, keyin qishloq maktabida Mamatsolih eshon qo'lida o'qigani, so'ngra Buxoro va Xiva madrasalarida tahsil olgani haqida ma'lumot olish mumkin. Madrasada tahsil olish davrida shoir arab va fors tillarini o'rganadi, sharq mumtoz adabiyotini chuqur o'zlashtiradi. Mumtoz adabiyotning yirik vakillari Ahmad Yassaviy, Imomiddin Nasimiy, Alisher Navoiy, Muhammad Fuzuliy asarlarini yod oladi. Mullanafas she'r yozish va soz chalish bilan mashg'ul bo'lgan. Madrasada o'qishni tugatgach, o'z qishlog'iga qaytib, mullalik qilgan. Mullanafas shoirlardan Kamina va Miskin bilan do'stona munosabatda bo'lgan. Shoir Turkmanistonning ko'p joylarida sayohatda bo'lgan, SHarq mamlakatlarining bir necha yerlarida bo'lib, o'sha joyning adabiyoti va madaniyatini o'rganganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Mullanafasning 1875 yilda vafot etganligi taxmin qilinadi. Uning qabri Mari viloyati Vakilbozor tumanidagi Hoja Abdulla qabristonida.

Ijodiy merosi. 1. 1940 y. She'riy to'plam. Gurganli Oxundov nashrga tayyorlagan. 27ta she'r. 2. 1947 y. Boymuhammad Qoriev nashrga tayyorlagan. 75ta she'r kiritilgan. 3. 1955 y. V.Shomurodov va O'.Yozimovlar nashrga tayyorlagan. 70ta she'rdan iborat. 4. 1961, 1962, 1963, 1973 y. kitoblar nashr etildi.

Sho'ro davrida Mullanafasning diniy-tasavvufiy mazmundagi asarlari e'lon qilinmagan. Shoir 200 yillik yubileyi munosabati bilan A.Ashirov tomonidan "She'rlar to'plami"da bu kamchiliklar bartaraf etildi.

Shoir Mullanafasning yuzdan ortiq she'rlari ma'lum. Aksariyati xalq og'zidan yozib olingan. Uning "Go'zal yorni istab", "Bari gal", "Bir pari", "Tilla g'ozim", "Go'zalim", "Tuysa", "Nor kezgin", "Duch bo'lar" kabi she'rlari xalq o'rtasida mashhur bo'lgan.

Shoir ijodining asosiy qismini ishq-muhabbat mavzuidagi she'rlar tashkil qiladi. Adabiyotshunos olim A.Kekilov shoirning lirik asarlarini 3 guruhga: ijtimoiy, pandnasihat, sevgi haqidagi she'rlarga bo'ladi. Yangi topilgan asarlari bo'yicha uning diniytasavvufiy she'rlari mavjudligini aytish mumkin.

Ijtimoiy mavzudagi she'rlarida o'z davrining haqiqiy qiyofasini yorqin bo'yoqlarda tasvirlaydi. Qirq yil moya bo'lguncha, bir yil bo'lib nor kezzgin misrasida shoir hayotni donishmand bir kuzatuvchi sifatida namoyon bo'ladi. Qorao'g'lon, Avezmurod kabi xonlarga bag'ishlangan 20ga yaqin she'rlari bor. "Qojarboy", "Mardlarning mardonidir" kabi she'rlari mard, jasur sarkardaga bag'ishlangan. Ayrim she'rlarida zamondan, odamlardan nolish, shikoyat ohanglariga duch kelamiz. Bir gavharman nodonlarning qo'lida, deydi shoir.

Ishq mavzui Mullanafas she'riyatining negizini tashkil qiladi. "Zuhra-Tohir" dostonida shoir o'zini ishq mulkining shohi deb ataydi:

Ishq mulkining shohiman, qoshimda mahramim yo'q...

A.Kekilov Mullanafasni turkmanning sayroq bulbuli deb ataydi. Yosh olimning misol qidirib shoirning to'plamidagi "Nor kezzgin" she'rini o'qib qolib ta'sirlangani va nima maqsadda kitobni olgani esdan chiqib va butun to'plamni oxirigacha o'qib chiqqanini A.Kekilov keltiradi. Shoir she'rlarida ohorli tashbehlar bor. Oqlikda bahs aylar bu tan Qirq chillaning qori bilan.

Mullanafas she'riyati xalqona sodda va ravon uslubda bitilgan.

Ohu bolasini parvarish etsang,

Suv o'rniga shakar-sharbatlar tutsang.

Guldan yemish berib, oqibat kutsang, Sendan
yuz burar cho'l ovozi kelsa.

Nafs bandasining badiiy portretini hayotiy manzara asosida tasvirlaydi:

Nafs bandasi sevar davlatni, molni, Bir kun xasta bo'lib
ketsa majoli.

Xatto qimirlashga qolmasa holi, Oyoqqa
qalqar pul ovozi kelsa.

“Olarda kirar jonim, berarda chiqar jonim” maqoli qo’yidagicha yangraydi:

Baxillarning joni chiqar ber desang, Qayta jon kirar ol
ovozi kelsa.

“Dushmaning filday bo’lsa ham, qoshingda pashshaday zaif bo’lsin” degan fikrni quyidagicha ifodalaydi:

Dushmaning fil agar bo’lsa begumon
Qoshingda pashshaday bemador bo’lsin.

Yoki: Mingta yulduz bitta to’lin oy emas.

Mullanafas she’rlarida badiiy san’atlar asosida go’zal ifodani yuzaga chiqargan.

Talmeh: Qorun mulkin topsa ayol yoki er, “Pulim
oz” deb yana mudom qayg’u yer.

Hatto Nuh yoshiga yetsa ham kam der, Yoqmas
quloqqa: “O’l!” ovozi kelsa.

Husni ta’lil: Naylay, visol ilmidan dars bermadi ustoding...

Irsoli masal: Qul boy bo’lsa tanimaydi og’asin,
Eshak ham semirsa, tepar egasin.

Yor menga javob qildi: “Mehnatning tagi rohat”.

Savollar

1. Turkman xalq og’zaki ijodi janrlari qaysilar?
2. Turkman maqollari, qo’shiqlari va ertaklari mazmuni va badiiyati nimalarda ko’rinadi?
3. “Go’ro’g’li” turkumidagi dostonlarning asosiy xususiyatlari qanday?
4. Maxtumquli hayot yo’li.
5. Maxtumquli ijodiy merosi qanday?
6. Mullanafas she’riyatining mavzu ko’lami va obrazlari haqida so’zlang.

Adabiyotlar:

1. Turkmenistan turk edebiyati.- Ankara. Kultur bakanligi. 1998.
2. Кор-оглы. Туркменская литература.- М., 1972.
3. Тоҳиров Қ. Ўзбек туркман адабий алоқалари. - Т., 1979.
4. Махтумқули. Танланган асарлар. - Т., 1976.
5. Камина. Танланган асарлар.- Т., 1957.
6. Муллонафас. Муҳаббат фасли. – Т., 2010.

TURKIY XALQLAR ADABIYOTIDAN NAMUNALAR

TURKIY YODNOMALAR

ALII ER TO'NGA MARSIYASI

Alp er To'nga o'ldimu,
Esiz ajun qoldimu. Zamon
o'chin oldimu Endi yurak
yirtilur.

Bo'ri bo'lib uldilar, Yirtib
yoqa turdilar.

Yig'lab-siqtab yurdilar.
Ko'z yoshlarim mo'l bo'ldi.

Dunyo fursat ko'zladi, O'g'ri
tuzoq sozladi.

Beklar begin izladi,
Qanday qochib qutular.

Odatdan zo'r narsa yo'q,
Boshqa bahona ham ko'p.
Otsa zamon poylab o'q,
Tog'lar boshi yanchilur.

Beklar oti charchadi,
G'am beklarni yanchadi.
Yuzga za'far sanchadi, Chehralari
sarg'ayur.

Dushman o'tin o'chirgan, O'z
joyidan ko'chirgan.

Ko'p ishlarni bajargan, Tegdi
o'limning o'qi.

Kayumars mifi. Axrimanning yomon qilmishlaridan Hudo hayratda qoldi. Uning neshonasidan ter chiqdi. Terni artib tashlaganda ter donasidan Kayumars tug'ildi. Hudo Kayumarsni Axriman yoniga jo'hatadi, Kayumars Axriman yonigaetib kelib uning yelkasiga minib oladi.Va shu holda dunyoni aylana boshlaydi. Nihoyat, Axriman bir xiyla bilan Kayumarsni yelkasidan uloqtirib tashlaydi, uninh ustiga minib olib yeyajagini aytadi.Seni qaysi tomoningdan yeyay deb so'radi Axriman. Oyoq tomonimdan deb javob berdi Kayumars, toki dunyo go'zalligidan uzoqroq bahra olib turayin. Ammo Kayumars Axrimanning u aytgan gapining teskarisini qilishini bilar edi.Axriman Kayumarsning bosh tomonidan yeya boshladi. Beliga yetganda Kayumarsning urug'donidan ikki dona yerga tushadi. Ulardan o'simlik o'sib chiqadi. O'sha o'simliklardan bir o'gil, bir qiz(Meshe va Meshona) paydo bo'ladi.

Odami Od mifi. O'tgan zamonda Nuh payg'ambar bo'yi bulutga yetadigan bir duradgor ustani chaqirib, kema yasab berishini so'rabdi. Bu odamning ismi Odami od ekan. U nihoyatda baland bo'yli, kuchli bo'lib, daryo va dengizlardan baliqni ushlab, quyosh issig'ida baliqni nishirib yeb ketaverar ekan. Odami od Nuh payg'ambarni yelkasiga mindirib toqqa olib chiqib ketibdi. Qaerda baland draxt bo'lsa, kema uchun kesmoqchi bo'libdi. U chinorni tomir-nomiri bilan sug'urib olib, o'z yelkasiga ortib, ustiga Nuh payg'ambarni o'tkizib dengizga ravona bo'libdi.Odami odning qorni hech to'ymas ekan. Nonushtasiga bir hovuz suvga non to'rg'ab yer ekan. U kemani bitirib, hamma odamlarni kemaga solib, dengizga tushib, O'zi kemani tortib ketibdi.

O'G'UZNOMA (mazmuni)

I

1. Bo'lsin, dedilar. Uning nishoni ushbudir:

2. Toki bundan keyin sevinch tongaylar.
3. Yana kunlardan bir kun Oy qog'onning ko'zi yorib ko'paydi (bo'lindi).
4. Erkak o'g'il tug'dirdi.
5. O'sha o'g'il yuzining rangi ko'k edi.
6. Og'zi otash kabi qizil edi. Ko'zlari qo'yko'z,
7. Sochlari, qoshlari qon-qora edi.
8. Nozik farishtalardan ham ko'hliroq edi.
9. O'shal o'g'il onasining ko'ragidan og'iz sutini emib,

II

1. Bundan ortiq (hech ham emmadi) ichmadi; xom et, osh-ovqat sharob so'randi.
2. Tilga kira boshladi. Kirq kundan so'ng ulg'aydi (katta bo'ldi).
3. Yuridi, o'ynadi. Oyog'i ho'kizning oyog'idek,
4. Bellari bo'ri bellaridek, yag'rini kish (silovsin) yag'ridek,
5. Ko'ksi ayiq ko'ragidek edi.
6. Badanini butkul qalin tuk qonlagan edi.
7. Yilqi boqib yurar edi.
8. Otlarga minardi, kiyik (yovvoyi hayvon)larni ov qilib ovlar edi.
9. Kunlar o'tgandan so'ng, kechalar o'tgandan so'ng yigit bo'ldi.

III

1. Bu chog'ga bu yerda bir ulug' o'rmon bor edi.
2. Ko'plab irmoqlar, ko'p daryolar bor edi.
3. Bu yerda kelganlar ko'ndan ko'p bo'lgani kabi bunda uchgan qushlar ham ko'p edi.
4. O'sha o'rmon ichida katta bir qiat (karkidon) bor edi.
5. Yilqilarni, kishilarni yer edi.
6. Juda katta yomon bir mahluq edi.
7. Qiynoq va mashaqqatlar keltirib elu yurti azob-uqubatga botirgan edi.
8. O'g'uz qog'on botir, xoksor, bir mard kishi edi. Bu qiatni ovlamoq istadi.

9. Kunlardan bir kun ovga chiqdi.

IV

1. Cho'qmor olib, yoy-o'q olib otlandi.
2. Yana qilich bilan qalqon olib bir bug'uni ovladi.
3. Ushbu bug'uni tol chivig'i (novdasi) bilan,
4. Daraxtga bog'ladi va ketdi. SHundan so'ng tong otdi.
5. Tong erta bilan keldi. Qiat bug'uni yeb qo'yganligini ko'rdi.
6. Yana bir ayiqni tutib keltirdi.
7. Oltin belbog'i bilan o'sha daraxtga bog'ladi va ketdi.
8. Shundan so'ng yana tong otdi, tong erta yana keldi.
9. Ko'rdikim, qiat ayiqni ham yeb qo'yibdi. XI

1. Ular kelishdi. Qirq stol qirq kursi yasatdirdi.
2. Turli ovqatlar, turli sharoblar,
3. Nozu ne'matlar, qimizlar yedilar, ichdilar.
4. To'ydan so'ng O'g'uz qog'on 5. Beklarga, el-yurtga yorliq berib
6. Dedikim:
7. Men senlarga bo'ldim qog'on, Olaylik qo'lga yoy va qalqon.
8. Tamg'amiz bo'lsin bizning-olijanoblik,
9. Ko'k bo'ri bo'lsin bizga o'ron, Temir cho'qmor olur darmon, XXV

1. Ko'k yolli erkak bo'ri keldi.
2. Ushbu ko'k bo'ri O'g'uz qog'onga aytdikim:
3. «Endi lashkaring bilan bu yerdan otlan, O'g'uz!
4. Otlanib el-yurtlarni, beklarni bo'ysundir.
5. Men senga yo'lboshlovchilik qilaman» —dedi.
6. Erta tongda O'g'uz qog'on ko'rdikim,
7. Erkak bo'ri lashkarning

8. Oldida yurib borardi.

9. (O'g'uz) sevindi, yana ilgarilab yuraverdi

XL

1. Uchallasiga ulashtirdi va dedikim:

2. «Ey inilar! O'qlar senlarga bo'lsin

3. Yoy o'qni otadi.

4. Senlar o'klardek bo'ling» — dedi. Yana shundan so'ng

5. O'g'uz qog'on buyuk bir qurultoy chaqirdi.

6. Askarlarni, el-yurtni chorlab chaqirdi.

7. Kelishdi, kengashib o'tirishdi. O'g'uz

8. Qog'on ulug' o'rdada ...

9. ... So'l yog'ida uch o'qlar, o'ng tomonida o'tirdi.

XLI

1. Qirq quloch yog'ochni o'rnatib, uning

2. Uchiga bir oltin tovuq yasatti.

3. Quyiga bir oq qo'yni bog'latdi. So'l 4. Tomonda ham qirq quloch yog'och o'rnatib,

5. Uning uchiga bir kumush tovuq yasattirdi.

6. Quysisiga esa bir qora qo'yni bog'latdi.

7. O'ng yoqda buzo'qlar o'tirdi.

8. So'l yoqda ucho'qlar o'tirdi.

9. Qirq kun, qirq kecha oshadilar.

XLII

1. Ichdilar, xursandchilik qildilar. Shundan so'ng O'g'uz qog'on,

2. O'g'illariga yurtini ulashib berdi. Yana dedikim:

3. «Ey o'g'illar! Men ko'n yashadim, ko'n urushlar ko'rdim,

4. Nayzani o'q qilib otdim, ayg'ir minib ko'n yo'rtdim.

5. Dushmanlarni yig'latdim, do'stlarimni kuldirdim

6. Ko'k Tangri oldida burchimni o'tadim.

7. Yurtimni sizlarga qoldiraman, dedi...

TURK ADABIYOTI

JALOLIDDIN RUMIY

*Ey yuzimni dahr aro misli qamar qilgan o'zing,
Band-bandim so'ylatib, ahli nazar qilgan ko'zing.
Ey shamolingdan daraxtim raqs aylab, o'ynagan,
Noming aytsam, og'zimi shahdu shakar qilgan so'zing.
Sen bilursanki daraxtim ne uchun raqs aylagay,
Barg berdingmi samar yo besamar qilgan o'zing?
Bargidin ham bir nishon yo'q, mevasidin – bir nishon, Ey
daraxtim sabrini zeru zabar qilgan o'zing.*

* * *

*Gul kabi gulshan tomon ketmoqdasan,
Sendaman men, sen qayon ketmoqdasan?
Lolu gung bo'ldi seni savsan ko'rib,
Gulruxim, savsan tomon ketmoqdasan.
Mayfurush ikki labingdin, ey sanam,
Bergali mastlarga jon ketmoqdasan.
Dilrabolar ortinga yulduz misol,
Sen to'lin oysan, jahon ketmoqdasan.
O'zga bir otash yoqursan har kima,*

*Toshmi temirdil – nihon ketmoqdasan. Men
sening zarrang bo'lib raqs aylagum, Ey
quyosh, ravzan tomon ketmoqdasan.
Surma yanglig' ko'zga solgayman seni, Ey
dil, ey dil, beomon ketmoqdasan.*

* * *

*Bir soniyada meni guliston qiladir,
Bir soniyada yana zimiston qiladir.
Bir soniyada fozilu ustod aylar,
Yosh bola misoli yana nodon qiladir. Bir
nasda urib tosh, meni sindiradir,
Bir nasda yana misoli sulton qiladir.
Bir nasda oftob bila teng aylar,
Bir nasda qaro tunu shabiston qiladir.
Tutdim etagidin ikki qo'lim birlan,
Toki ko'royin deb, ne doston qiladir. Xush
dardining mayiga menman qadah, Garchi
meni mastlarga xon qiladir. Shul-chun
shakaridan oladirman tun-kun, Toki
laqabimni shakariston qiladir.*

* * *

*Dilbarim qilgay vafo andakkina,
Chiqdi xush aylab sado andakkina.
Menga bir kuldi kecha ul navbahor, Bo'ldi
ro'zgorim ziyo andakkina.*

*Oq atirgul chiqdi xandon aylabon,
Bo'ldi bog'im xushnavo andakkina. Ul
nafis tongim manga berdi nafas, Shul
nafasdin men ado andakkina.*

*Oq bulutim qo'ndi daryo bo'yiga,
Xok bo'lgil, men – samo andakkina.
Men yog'ay yomg'ir bo'lib, gullar ochib,
Bo'lki, men bergum safo andakkina.
Menga muhlat bergil, o'zdin ketmagil,
Sabr aylay, dilrabo, andakkina. Kofir
o'lgayman, aning ishqida gar Sabr
qilsam, ey Xudo, andakkina.*

* * *

*Dilimning dardini hargiz huvaydo aylayub bo'lmas,
Bu ko'ksim ichra bir sir bor, ki naydo aylayub bo'lmas.
Sening husning bizim ko'zlarga toki tola nur bermas,
Jamoling bog'ida aslo tamosho aylayub bo'lmas.

Seni to so'ylamaskan til, umrlar o'tsa hamki bil,
Sening la'li labingdan bir tamanno aylayub bo'lmas.
Bu olamda faqat tanho senga yuz burmaguncha to,
Sening chehrang bilan dilni musaffo aylayub bo'lmas.
Mehr nuring qilib ifsho, kishi zarrangga yetmas to,
Masiho dahrining tarkini aslo aylayub bo'lmas.

Butun olam tiniq ko'zgu, ki ishq mayxonasidir bu
Mayu ishq mastligin bir joyda barno aylayub bo'lmas.
Agar oshiq dilidan kim xabarsizdir, shuni bilkim,
U shaydolikni bilmaydur va shaydo aylayub bo'lmas.
Bu olam uzra gar lyso chiqib kelmas ekandir to,*

Bu gumbaz uzra bir sayru tamosho aylayub bo'lmas.

Labining bodasidinikim quyibdir Shams qalbiga,

Bukun bir qatrasini ham huvaydo aylayub bo'lmas.

* * *

Kel ey, jonimga jononim, uying qayda, uying qayda?

Kel ey, dardimga darmonim, uying qayda, uying qayda?

O'zing manzursanu nozir, o'zing ninhonu ham hozir,

Sen ey, naydoyu ninhonim, uying qayda, uying qayda?

Meni mahjur etursan yor, g'am ichra yig'layursan zor,

Sen ey, sen mohitobonim, uying qayda, uying qayda?

O'zing jonsan, o'zing jonon, o'zing husn ahliga sulton,

Seni derman, seni jonim, uying qayda, uying qayda?

Musalsal zulflaring hayhot, dilimni ayladi barbod,

O'zing shoh birla sultonim, uying qayda, uying qayda?

Kel ey, sen Shamsi Tabreziy, tun oqshom yo sahar kezi,

Daf ayta fitna burhonim, uying qayda, uying qayda?

Qara, arsh tomiga ketdim, sening zavqing hadis etdim,

O'zing jon birla jononim, uying qayda, uying qayda?

* * *

Labing shahriga bir kunga meni mir aylasang erdi,

Labingning la'lidin jonimga taqrir aylasang erdi.

Parishon zulflaringni tushda ko'rgan kechadin boshlab,

Parishondirmanu hayron, ta'bir aylasang erdi.

Jahon oqillarini zulflaring devonalar qildi,

O'shal zulflarni bir bor menga zanjir aylasang erdi.

G'amingdin ko'zlarim ikki tiflday oncha yig'larkim,

Sen, ey sen, toshbag'ir, bag'ringni taqdir aylasang erdi.

Chiroying Ka'basi yo'lida ehrom boylamishman, ko'r,

Necha talbiya aytdim, bir takbir aylasang erdi.

Dilim keksaydi, ey xushbaxt sarv, dardu g'aming birla,

Anga ergashmading hargiz, ani nir aylasang erdi.

Sening g'amzang o'qidin bejarohat qolmadi bir dil,

Meni ham ul aroda barchaga bir aylasang erdi. Ki

husning oyatidin bori aqlim ham tamom o'ldi, Karam

aylab ul oyatdin tafsir aylasang erdi.

Necha jonlarni oldingu necha jonlarni zor etding,

Bu ishda, ey sanam, rahmu karam bir aylasang erdi.

Meni o'ldirgali yetdingu muhlat bermading bir on,

Tuganmas nolayu zorimni oxir aylasang erdi.

Sening ishqingni o'tida kuyib bo'ldi dilim butkul,

Bu dardimning davosiga taboshir aylasang erdi. G'amu

hajring bilan oxir bukun men o'lgali yetdim,

Meningdek xastaga, ey yor, tadbir aylasang erdi.

Yuzing oftobi birla birlashibdir ul Zuhul zulfing, Qilibdir

necha qirg'inlarki, ta'sir aylasang erdi.

Yuzimni ostonangga surib bir nolalar qildim,

Bu hijron qissasidin qissa tahrir aylasang erdi. Na ham

derdim, sening bir eskidan qolgan qulingdirman, Meni

ko'ngil uyingda qayta tasvir aylasang erdi.

* * *

Dilga ketdim, dilga kirdim bir zamon, Dilni
holidin topay deb bir nishon.

O'z dilim ahvalidin olsam xabar,
Tushmish undan bu jahonga zo'r fig'on.
Men hakimlardin eshitdim qissalar,
Shahru vodiylarda ham – ko'p doston.

Barcha faryod ayladi dil dastidan,
Bu hadisdan ko'nglima tushdi gumon.
Dil sari qildim safarlar tinmayin,
Ko'rmadim lek xoli dildan bir makon.
Oqilu oriflar ichra birma-bir
Aylanarkan dil misoli tarjimon.
Dilni dil sultonlari bilgay faqat,
Bexiradlar qadrini bilmish qachon?

* * *

*Jonim mening, jonim mening, ey kufri iymonim mening,
Sen istasang gavhar bo'lur boshdin oyoq konim mening.
Kufrimni iymon aylasang, jismim to'la jon aylasang,
Dardimga darmon aylasang, ey dardu darmonim mening.
To bizga solgaysan nazar nur ayla bu xoki bashar,
Ovoz bergil sarbasar, men – senu, sen shonim mening.
Senda nihon ming bir sifat, naqsh ila aksing beaded,
Mol bermasang ham mayliga, boling to'la jonim mening.
Shohona jomdin soqiyo, menga sharob tut beriyo,
Gar tutmasang – shuldir jazo, yer birla yaksonim mening.
Bu jon o'shal kondin kelur, neshvoz sultondin kelur,
Qaytib vatandin ham kelur, gar yetsa burhonim mening.
Xomush bo'loyin bul zamon, hech kimga qilmay bir fig'on,
Kim Shamsi Tabreziy kelib, nurlandi ayvonim mening.*

* * *

*Bu xilvat uyda biz birlan bu kech dildor tebrangay,
Dilim ko'ksimda raqs aylar, eshik, devor tebrangay.
Bu shodlik g'ul-g'uli zo'rkim, bu oshiq ahlini ko'rkim,
Agar ming na'ra uyg'ongay, bu dil bir bor tebrangay.
Haqiqatdir, buni ko'rkim, bu ishrat majlisi ichra
Shahidlar bor – yotgaylar, shahidlar bor – tebrangay.
Uning aksi jamoli gar ko'rinsa to'qqiz ayvondin,
Zamin gardun misoli aylanur, davvor tebrangay.
Toshib o'ynaydi daryolar uning shavqi jamolidin,
Adirlar, tog'laru toshlar qilib izhor, tebrangay. Bu
ko'ngil misli gul yanroq, anga bir yel solur titroq, Bu
holat birla guftordin bo'lib xushtor, tebrangay.*

*Bu dunyo xalqini ko'rgil, dili kar ham dili ko'rdir,
Shuning-chun zohidu obid bila asror tebrangay. G'alat
aytdim bu ma'nidin, ki zohid birla obidmas, Bu majlis
ichra ul rohib ila zunnor tebrangay. Tilimni tiydim, ey
do'stlar, bu gan bir joyga yetgay gar, Bu shahru kent,
borliq – barcha majnunvor tebrangay.*

* * *

*Borgil, dili xushlarga ayt, mastlar salom aytmoqdalar,
Ham ko'ldagi qushlarga ayt, mastlar salom aytmoqdalar.
Ul mir kabi soqiyga ayt, mastlar salom aytmoqdalar,
Umri uzun, boqiyga ayt, mastlar salom aytmoqdalar. Ul
sho'r ila g'avg'oga ayt, mastlar salom aytmoqdalar,
Ham sud ila savdoga ayt, mastlar salom aytmoqdalar.*

*E oy, yuzingdin oy xijil, mastlar salom aytmoqdalar, Ey
rohatu oromi dil, mastlar salom aytmoqdalar.*

*Ey jonga jon, ey jonajon, mastlar salom aytmoqdalar,
Ey sen – buyonu, ming – uyon, mastlar salom aytmoqdalar.
Ey orzu, ey orzu, mastlar salom aytmoqdalar,*

*Ey narda ichra orazi, mastlar salom aytmoqdalar. Ey
senga yuz sulton fido, mastlar salom aytmoqdalar,
Ko'yida oy obu ado, mastlar salom aytmoqdalar.*

*Ey borni yo'q qilgan o'zing, mastlar salom aytmoqdalar,
Tingla bu mastning ham so'zin, mastlar salom aytmoqdalar.*

* * *

*Ey jahon, ezdi meni savdolaring, savdolaring,
Qildi talx umrimni bu halvolaring, halvolaring.
Marvaridu duru la'ldin to'ladir charx etagi,
Senga bergay borini – savg'olaring, savg'olaring.
Sel bo'lib ketmoqdadir oshiqklarining jonlari,
Chorlagaydir ul sening daryolaring, daryolaring.
Kecha bergan maylaringdan men bukundirman xarob,
Erta nelar ko'rgizur da'volaring, da'volaring? Men
o'zimning sodda jonimga turib boqsam bukun, Rangini
qilmish sariq safrolaring, safrolaring. Gavharingning
zavqin istab ayladim dildan nazar, Oyda ko'rindi
sening siymolaring, siymolaring.*

Men seni oy deb xato qildim, g'alat aytdim suxan,

Sen kimu oy kim – bo'lur hamrolaring, hamrolaring?

*Shamsi Tabreziy shuning-chun aytur o'z noming bilan, Ey
mudom ko'nglim aro g'avg'olaring, g'avg'olaring.*

* * *

*Yo'q bo'lishda yo'q bo'lish – dinim mening, Borliq
ichra yo'qlik – oinim mening.*

*Do'st ko'yiga yayov ketmoqdaman,
Charx tulnorindadir zinim mening.
Yuz jahon ko'rgum agar bir lahzada, Bo'lgay
u ilk sayru sayronim mening.*

*Men nechun kezgum jahon do'st axtarib?
Do'st – jonim ichra, ul – jonim mening.
Avliyolar faxridir Shamsulhaqim,
Tishlarining sini Yosinim mening.*

* * *

*Tebranur har bitta shox, lek o'zga shoxdin mevasi, Har
kishi bir o'zga maydin mast bo'lib tebrangusi.*

*Ilarda ichra ikki yuz xotin yuzin yirtar, valek
Har biri gar bir ayoldir, o'zga juftning bevasi.
Har baliqning tanglayi sayyod qarmog'indadir,
Yangrayur goh ul baliq, goh bul baliqning nolasi.
Mutribi ishq ahlini, ey Shamsi Tabreziy seni,
Hech qachon yig'latmasin charxning ajib bu shevasi.*

* * *

*Ey ko'ngil, jonon tomon ketmoqdasan,
Kim nazarlardan nihon ketmoqdasan.
Oy misol chok aylabon ko'ylaklaring, Oftob,
osmon tomon ketmoqdasan.
Ey zaminda o'ltirursan, aslida*

Etti ul ayvon tomon ketmoqdasan.

Suratingdir bunda mehmonlar bilan,

Eng buyuk mezbon tomon ketmoqdasan.

Eng buyuk naqqoshdadir ul mo'yqalam, Naqshu

surat ichra jon ketmoqdasan.

Suvdayin ketmoqdasan tunroqqa sen,

Ey hayot, bo'ston tomon ketmoqdasan.

Bu jahondan g'am chekib olamjahon,

Charx urib, raqs aylabon ketmoqdasan.

Qancha el g'aflatda yotgay noayon,

Barcha eldan noayon ketmoqdasan.

Holimizni ko'rgilu yetkiz xabar,

Kim buyuk sulton tomon ketmoqdasan.

* * *

Ketgusi aqlu hushu tan birla jon, sen ketmagil,

Menga mendin sen azizroq, sen ishon, sen ketmagil.

*Oftob birlan falak – bori sening soyangdadir, Ketsa
gar bul oftobu osmon, sen ketmagil.*

Ey kaloming nok ham tab'i latifdin ham latif,

Ketsa gar og'zimda til, tab'i ravon, sen ketmagil. Jumla

iymon ahlining eng so'nggi damdin xavfi bor,

Ketmagil, ey bori iymon, qol omon, sen ketmagil.

Ketmagil, ketsang, mening jonimni ham ol birgakim,

Sen agar mensiz ketursan – hech qachon sen ketmagil.

Bog' bilan bo'ston erur sen birla bu ro'yi jahon,

Bo'lsa gar bul bog'u bo'stonlar xazon, sen ketmagil.

Tosh dilimni men kuyib suv ayladim, hajring bila

Toshga aylandi Badaxshon la'li, kon, sen ketmagil.

Zarradir gar kimsa, aytur: ketmagil, ey oftob,

Banda bo'lsa, aytur ul, ey sulton, sen ketmagil.

Lek sen obi hayotsan, bori xalqlardir baliq,

Ey kamolu rahmatu, ey ehson, sen ketmagil. Bu mening

ko'ngil tumorim mangulikdin ham uzun, Sen o'zing yozding

uni, qilding bayon, sen ketmagil. Sen o'zing yuz mingta

bayt, yuz ming g'azaldin ham baland, O'n sakkiz ming

olamu yuz ming jahon, sen ketmagil.

Shamsi Tabreziy sening la'li labing birla hayot,

Ey hayot, men birla qol, ey jonga jon, sen ketmagil.

"MA'NAVIY MASNAVIY"DAN

Tinglagil nay ne hikoyat aylagay, Ayriliqlardan
shikoyat aylagay.

Kim nayistondin meni to kesdilar,
Hasratimdin mard, ayol dod etdilar.

Siyna istarmen firoqdin noralar,

Shavq dardidin desam afsonalar,

Kimsakim tark ayladi o'z aslini, Qayta
izlar ro'zg'orin vaslini.

Men bu inson qavmin ohu zoriman,

Holi xush ham holi badning yoriman.

Shubhadan kim bo'ldi menga yorlar, Ich-ichimdin
izlamas asrorlar.

Nay sadosi otashedur, bod emas,
Kimda otash yo'q – u odamzod emas.

To'rt yo'lovchi haqida rivoyat

Borishardi turk, arab, forsu yunon,
Shunda bir kimsa – anisu mehribon – Xayr,
deb bir tanga savg'o ayladi.

Yo'qki savg'o, balki g'avg'o ayladi.

Fors dedi: "Bozor tushaylik shul zamon,
Aqchaga angur olaylik, do'sti jon!"

"Qo'y bu ganni, deb uni kesdi arab, -
Eynab olsak aqchaga, bo'lgay ajab!"

Turk dedi: "Behuda bu ganlar bari,
Mevalar ichra uzumdir sarvari!"

Shunda yunon ham aroga soldi so'z:
"Hay xarid etmoqqa stafilʼ durust!"

Bas, ular bitta qarorga keldilar,
Lek tushunmay, bahsu g'avg'o qildilar.

Barchada xohish uzum erdi faqat,
Barchasi birdek, uzum, derdi faqat.

Lek aroga shum jaholat tushdi, bas,
Tish, qovurg'a lat yedi, tondi shikast.

G'ofilu g'aflat so'zidin mojaru,
Bizniki – birlik bila sulhu saloh.

RUBOIYLAR

Ey, senki yasharsen, shodu xurram bo'lgil,
Har yerda yana azizu mahram bo'lgil.
Umringni halolu nok kechir, ilm o'rgan, To
zebi bashar, ziynati Odam bo'lgil.

Ey dil, ko'zingni och, jahon o'tgusidur,
Umring bu jahonda roygon o'tgusidur. Tan
manzilida mahbusu g'ofil qolma,
Manzil osha manzil karvon o'tgusidur.

Har lahza g'aming chekib, g'aming olgaymen, Har
lahza g'aming bila yana qolgaymen. Harchandki
g'aming chekib-chekib jon berdim, G'am ulki,
g'aming chekib-chekib, tolgaymen.

Gar baliq esang, suzgoli daryoying o'zim, Gar
ohu esang, kezgali sahroying o'zim.

Men senga asirmanu sen – menga nafas,
Surnoyingu surnoyingu surnoying o'zim.

Men oshiqi ishqmanu musulmon boshqa,
Men zaif chumolimen, Sulaymon boshqa,
Mendan alamu ohu jigarnora so'ra,
Bozorchai qassobfurushon boshqa.

Man zarra-u, xurshidliqo sensan, Man
xasta-u, ayni davo sensan. Qanotim
yo'q, ucharman poyingda zor, Man
qadahman, yor, qahrabo sensan.

* * *

***Agar o'lsam tanimni keltiring, do'stlar, Vujudimni
nigoringa bering, do'stlar.***

Labimdin bo'sa olsa ul masihim,

Tirilsam gar – yaqo tutmay turing, do'stlar.

* * *

Voh, dilimni g'amga bandi qildi yor, Kech-kunduz
dilni tig'siz tildi yor. Kecha-kunduz nola
cheksam qayg'irib,

Pinhon-ninhon, shirin-shirin kuldi yor.

* * *

Ma'shuqa oftob ila bahs boyladi,
Oshiq ham o'zini chun xas o'yladi.
Ishq bahor yeli kabi esdi chunon,
Qurmagan shox bo'lsa, bas, raqs ayladi.

* * *

Ishqimdin pokroq obi zilol yo'qdur,
Ishqimdek g'amu dardi halol yo'qdur.
O'zgalar ishq faqat hol bo'lsa gar, Dilbari
nigoringa zavol yo'qdur.

* * *

Lutfetsang tosh ham jonona bo'lg'ay,

*O'shal dam shevasi mastona bo'lg'ay.
Zulfigning zanjiri gar bo'lsa zohir,
Luqmoni Hakim ham devona bo'lg'ay.*

* * *

*Jamoling namozim,ko'zingdir ro'zam,
Labing ishqida man — gado,daryuzam*.
Aybliman,netay,yor,sarxush edim man, Suyingni
ichdimu sindirdim ko'zang.*

* * *

*Ishqing otashidin men tomchiga zor,
Xayoling tushlarimda manga yodgor. Suving
sharob yanglig' yondirdi mani,
Charxnalakdek aylanurman nolakor.*

* * *

*Dildor manga aytdi: "Oyning o'ziman,
Ne berursan bo'sa bersam ko'zimnan?"
"Tillo!" – dedim,dedi: "Tillo ne kerak?"
"Jonni!" — dedim, dedi:"Mayli, roziman!"*

* * *

*Ayt, nechun oshiq mudom dildan judo?
Yorining zulfini deb bo'lg'ay ado.
Jo erur oshiq dili rubob aro,
Pardasida yoshirun munglig' sado.*

* * *

*Zulfinin har tolasin bir joni bor,
Zulfinin dardida man bo'ldim xumor. San
dema: "Voh, muncha ko'n g'am-hasrating?"
Hasratim huriliqo nozicha bor.*

YUNUS EMRO

Men bir ajib holda keldim,
Kimsa holim bilmas mening. Men
so'ylayman, men tinglayman,
Kimsa tilim bilmas mening.

Mening tilim qush tilidur,
Mening qo'lim Do'st qo'lidur.
Men bulbulman, Do'st gulimdur,
Biling, gulim so'lmas mening. Ul
Do'st menga kelsin demish,
Sundim qadah, olsin demish.
Oldim qadah, ichdim sharob,

Endi ko'nglim o'lmas mening.
Ne Turim bor, ne turorim,
Hech yerda yo'qdir qarorim.
Haqqa munojot qilmoqqa
Tayin yerim bo'lmas mening.
So'r, turganim yerni mendan,
Ko'rsaturman, kelsang senga.
Bir zarracha Haqdan ayru

Ko'zim hech ne ko'rmas mening.

Tur tog'ida bir tajalliy

Boq Musoni nelar qildi!

Yunus aytar: Haq nazdida

So'zim yerda qolmas mening!

Menim bunda qarorim yo'q,
Men bunda ketmoqqa keldim.

Bozurgonman, matoim yo'q, Olganga
sotmoqqa keldim.

Men kelmadim da'viy uchun Mening
ishim sevgi uchun.

Do'stning uyi ko'ngullardir,
Ko'ngullar tonmoqqa keldim.

Do'st asiri daliligim,
Oshiqlar bilgay neligim,
Bekor qilib ikkilikni,
Birlikka yetmoqqa keldim.

Ul Xojamdir, men quliman,
Do'st bog'ining bulbuliman.
Ul Xojamning bog'larida
Shod bo'lib o'tmoqqa keldim.

Bunda tonishmagan jonlar, Unda
tonishmagay onlar.

Bunda tonishib Do'st ila,
Holim arz etmoqqa keldim.

Yunus Emro oshiq bo'lmish, Ma'shuqi
dardidan o'lmish.

Asl mardning eshigiga
Holim arz etmoqqa keldim! ***

Tajalliyotining nuriga to'ymas vujudim tog'lari,
Jismim kemasining zero mahkam emasdir bog'lari.
Qatradin daryolar tuzgan jon qushi nobandin uzgan,
Yuz ming daryolarni suzgan, kel suraylik bu chog'lari.
Yorga oid til sharhini pok ayla, arit o'zgadan,
Zeroki, sulton taxtidir bunda qo'ymaslar zog'lari. Pastlashsa
gar "Hubbul vatan" qolmas ishonchli bir maskan, Ko'zdan
oqib bitar sevgan har dam yuragim yog'lari.

Qo'l bermasa elga oqil, o'zi ham tushmagay tilga,
Dardli holin dardli bilar, dardni ne bilsin sog'lari?
Ma'shuqlikning sarnosini har kimga kiydirgan esang,
Turmas ko'zinda zarracha Firdavsi a'lo bog'lari. Yunus
husning kitobini zavq-la tomosha aylamish Anda solar
oshiqlara tog' ustiga, ko'r, tog'lari.

Ko'nglim tushdi bir savdoya, kel, ko'r, meni ishq nayladi, Boshimni
berdim g'avg'oya, kel, ko'r meni, ishq nayladi.

Men yurarman yona-yona, ishq bo'yadi meni qona, Na
oqilman, na devona, kel, ko'r meni, ishq nayladi.

Men yurarman ldan ela, Do'st so'rarman dildan dila,
G'urbatda holim kim bila, kel, ko'r meni ishq nayladi. Rangim
sariq, ko'zimda yosh, bag'rim g'arib, bo'g'zimda tosh, Holim
bilgan dardli qardosh, kel, ko'r meni, ishq nayladi.

G'urbat elida yurarman, do'stni tushimda ko'rarman,
O'yonib majnun bo'larman, kel, ko'r meni, ishq nayladi.
Goh to'zarman yerlar kabi, goh esarman yellar kabi,
Goh tusharman sellar kabi, kel, ko'r meni, ishq nayladi.
Toshqin suvday oqarman, dardli jigarim dog'larman,
Eslab Shayximni yig'larman, kel, ko'r meni, ishq nayladi.
Yo qo'lim ol, turg'iz meni, yo vasliga yetkaz meni,
Ko'p yig'ladim, kuldir meni, kel, ko'r meni, ishq nayladi.
Men Yunusi bechoraman, boshdin oyog'i yoraman,
Do'st qo'lida ovvoraman, kel, ko'r meni, ishq nayladi.

Ishqsiz odam dunyoda, asli odam emasdir, Har
biri bir narsaga sevgisi bor, oshiqdir.
Allohnig dunyosida yuz ming turli sevgi bor,
Qabul qilgil o'zingga, ko'r, qay biri loyiqdir.

Biri Rahmonir rahim, biri Shaytonir rojim, Gunohi
savoblari sevgisiga taalluqdir. Dunyoda
Payg'ambarning boshiga tushdi bu ishq,
Tarjimoni Jabroil, ma'shuqasi Xoliqdir.

Umaru Usmon, Ali Mustafo yoronlari
Shu to'rtovlon ulug'i, Abu Bakr Siddiqdir. Olam
faxri Muhammad Me'rojga chiqqanida,
Tangridan tilagani ummatiga oziqdir. Yunus,
sen o'z aybingni, o'ylagil, boshqani qo'y,
Birovlarning aybiga sen qarama yoziqdir.

Sendin kelur jafolar,
Men ohu zor etmayin.
Tushdim ishqing o'tiga,
Yonayin, tutamayin. Boq
kezarman yona yona, Oh,
jigarim to'ldi qona.

Ishqingda men devona,
Ko'p ham nola qilmayin. Sening
ishqing dengiziga, Tushayin,
g'arq bo'layin. Qo'lim tutar
kishim yo'qdir, Meni tutgin,
cho'kmayin.

Sakkiz jannat hurlari,
Kelsalar jam bo'lishib.

Loyiqing bo'lmaganni
Men ularga qo'shmayin.
Yunus Emro sen bu so'zni
Yuz bor aytsang oz erur,
Eshitganlar oshiq bo'lur,
Haddan ortiq cho'zmayin.

Har kim manga ag'yor esa
Haq tangri yor bo'lsin anga.
Har qayonki, borar bo'lsa, Bog'u
bahor bo'lsin anga.

Menga og'u bergan kishin,
Shahdu shakkar bo'lsin oshi.
Har bir ishi oson kechsin, Haqdan mador bo'lsin anga.
Oldimda kim choh qazisa,
Taxtin baland etsin tangri.
Ortimdan kim toshlar otsa, Gullar
nisor bo'lsin anga.

Sho'r toleim tilaganga
Shirin umr bo'lsin nasib.
Menga o'lim tilasa kim
Umri chinor bo'lsin anga.
Kim istasa xor bo'lsam,
Dushman qo'lida zor bo'lsam.

Do'stlari shodu dushmani

Do'stu hamkor bo'lsin anga. Miskin

Yunusning dunyoda, Kulganini

eshitmayin.

Yig'lashini istasa kim,

Ko'zim bihor bo'lsin anga.

Ko'ngul, zerikmading sen bu safardan,

Allohim saqlasin seni xatardan. Kishikim

kishining qahrin keltirsa, Uzoqroq

ketgani a'lo nazardan. Tug'ilibman,

g'urbat ezar bag'rimni, Bag'ir qoni sizar,

tomar jigardan.

Vatan bo'ldi tikan, g'urbat guliston,

Ham afzal bo'ldi og'u nayshakardan.

Gavhar deganlari ilmu hunardir, Hunar afzal erur durru guhardan. Yunus, ko'ksing ochib yoringga ketding, Allohim saqlasin seni xatardan.

NOZIM HIKMAT

KARAM KABI

Havo qo'rg'oshinday og'ir!... Baqir

baqir

baqir

baqirayman...

Choning qo'rg'oshinni bir-bir,
Erit moqqa
Chaqiryanman...
U aytadi menga: ey sen,
O'z ovozingdan yonasan,
Kul bo'lasan
Karam kabi, Yonib

yonib
yonib
yonib...

"Dard ko'p, hamdard yo'q"
yuraklarning qulog'i kar,
havo qo'rg'oshinday botar...
men aytaman unga, xo'p
men,

Kul bo'layin Karam kabi Yonib

yonib
yonib
yonib...

Men yonmasam,
Sen yonmasang, Biz
yonmasak...

Qanday ichar qaro tunlar,
Oydinlikdan qonib, qonib?!...
Havo tunroqday qorindor,
Havo qo'rg'oshinday og'ir... Baqir

baqir baqir
baqiryapman,
Choping, qo'rg'oshinni
mumday
Eritmoqqa
Chaqiryapman...

HOZIRGI ZAMON TURK ADABIYOTI

NAJIB FOZIL QISAKURAK

Kutgan

Sen tog'dagi qochoq jayronsan, Men
izingga tushgan ishqiboz.

Dunyoni yordamga chaqirib sarson Bo'zlama, olamda bor ikki ovoz...

Senga vahm solar bu ovloq yo'llar,
Ortingdan yetadi oyog'im sasi. Quchib
vujudingni noma'lum qo'llar,
Ko'ksingni yondirar otash nafasi...

Kimsasiz xonangda qish kechalari,
Vahima qurshasa meni eslagin. Bilki,
qurshayotgan mening qo'llarim, Bilki,
shamol emashujum boshlagan.

Ko'ksimdan havoga ufurdim zahar...

So'ndiradi bir gul kabi umringni. Qochib
yursang-da sen shaharma-shahar, Menga
tonshirasani so'nggi kuningni.

O'lasan... qoladi yo'llar beega Men
mozor-la sirdosh bo'lib kutaman.

Kelasan... bir kuni sen uchrashuvga...
Tunrog'ingda bir tosh bo'lib kutaman!...

VIDO

Qo'limda sukutning zorini tingla,
Tingla da, ko'nglimni qo'yaver, yitsin,
Sochlarimdan tutib, ko'r ko'zlaring la, Yoshli
ko'zlarimni o'yaver, yitsin.
Boraver, kuzatib borar qaroqlar,
Ko'lankang kichrayar, sekin yiroqlar.
Ortingdan noylagan qaroqqa boq da, Bir
lahza tikilib turaver, yitsin.

Sochingning taqimi belingga tushdi,
Umidim sen ketgan yo'lingga tushdi. Qurigan
yanroqday qo'lingga tushdi,
Istasang... shamolga beraver, yitsin...

BU YOMG'IR

Bu yomg'ir, bu yomg'ir, bu qilday nozik, Nafasdan
nafisroq yoqqan bu yomg'ir.

Tinib qolmasin deb olarman hadik Oynalar
yuzimni tanimay qolur.

Bu yomg'ir tanamni qiygan bir arqon,
Bo'g'zinga og'riqsiz qadalgan nichoq.
Suyagim tosh botar, etim chalajon,
Shig'alab, sanchilib, mayin yog'ajak...

Bu yomg'ir telbalik vahmidan ustun,
Qorong'u, quvilmas tushunchalardan.
Jinlarning miyamga solgani tugun
Suvlardan, saslardan va kechalardan...

OZARBAYJON ADABIYOTI

Nizomiy Ganjaviy

“Xusrav va Shirin” dan

Xusrav Farhod birla munozara qilib,

Farhod tog' qozmoqligi so'zi

Burun so'rdi: ne yerliksan tiyu san?
Ayittikim, oshiqlar shahridan man

Ayitti: anda ne san(o)at qilurlar?

Ayitti: jon sotib, qazg'u olurlar.

Ayitti: jonni sotmoqlik xato ul,

Ayitti: ishq yo'lida ham ravo ul.

Ayitti: kertimu oshiq erursan?

Ayitti: bor ko'zung oxir ko'rursan.

Ayitti: ne qadar sevdung san oni?

Ayitti: so'zga sig'maz hech bayoni.

Ayitti: ko'rdungmi (ul) kuntek jamolin?

Ayittikim: bali ko'rdum xayolin.

Ayitti: mihridin bo'lg'aymusan nok?

Ayittikim: magar bo'lsam o'lub xok.

Ayitti: gar yo'luqsang ko'rsa seni?

Ayitti: ko'zga surgum tuproqini.

Ayitti: gar ko'zungni xasta qilsa?

Ayitti: roziman tek ko'zga ilsa.

Ayitti: gar azin er sunsa ilkin?

Ayitti: tilgaman tosh birla boshin.

SAYYID IMODIDDIN NASIMIY

Tinglagil bu so'ziki, jondir so'z, Oliy
osmon makondir so'z.

Shash jihatdan munnazah anglayu boq, Sho'ylakim
xoliqa jahondir so'z.

Nozilu munzal, anglakim, birdir, O'zi-o'ziga
tarjimondir so'z.

Aqli kull, arshu kursi, lavhi qalam, Chor
unsur-la osmondir so'z.

Zohiru botin, avvalu oxir
Oshkoru ham nihondir so'z.

Ey uqulu nasab edan isbot,
Qamuga so'z yetar, hamondir so'z.

Kofu nundan vujuda keldi jahon, Agar
anglar esang ayondir so'z.
Isoyi pok, Odamu Ahmad,
Mahdiyyi sohib uz-zamondir so'z.

Bu bayonni tilarsan anglamoqni,
Kim nechakim falon, falondir so'z.

“Jovidonnoma”ni olib ko’r qo’lga, To
bilursanki nechuk jondir so’z.

Oqil ersang so’zingni muxtasar et, Ey
Nasimiy, chu bekarondur so’z.

Jamoling sirri Qur’on manzilidir,
Dudog’ing obi hayvon manzilidir.

Al ul-arsh istivo ko’rdim yuzingda – Ki,
yuzung arshi Rahmon manzilidir.

Bihamdulloh, mani ko’nglumda doim Xayoli
joni jonon manzilidir.

Ko’ngulda ayladim, jono maqoming,
Qo’narsan, qo’nki, mehmon manzilidir.

Soching kufrinda har kim kofir o’ldi, Aniq
bildiki, iymon manzilidir.
Qonudan kechmaka xavf ayladi yel,
Chu bildikim, Sulaymon manzilidir.

Kel, ey Sayyid Nasimiy, orif o'lkim Jahon
chun ahli urfon manzilidir.

Ushbu jon jononasi sensan, Habib,
Yaxshilar farzonasi sensan, Habib,
Kuntu kanzan xonasi sensan Habib, Vahdat
durdonasi sensan, Habib.

FUZULIY

Shifoyi vasl qadrin hajr ila bemor o'landan so'r,
Zuloli zavq shavqin tashnai diydor o'landan so'r.

Labing sirrin gelub guftora bandan o'zgan so'rma, Bu
ninhon nuktani bir voqifi asror o'landan so'r.

Go'zi yoshlularing holin na bilsun mardumi g'ofil,
Kavokib sayrini shab to sahar bedor o'landan so'r.

Xabarsiz o'lma fatton go'zlaring javrin chekanlardan, Xabarsiz
mastlar bedodini hushyor o'landan so'r.

G'amingdan shamtak yondim, sabodan so'rma ahvolim, Bu
ahvoli shabi hijron banim-la yor o'landan so'r.

Xarobi jomi ishqam, nargisi masting bilur holim, Xarobot
ahlining ahvolini xummor o'landan so'r.

Muhabbat lazzatindan bexabardir zohidi g'ofil,
Fuzuliy, ishq zavqin zavqi ishq vor o'landan so'r.

Azal kotiblari ushshoq baxtin qora yozmishlar,
Bu mazmun ila xat ul safhai ruxsora yozmishlar.

Havosi xokinoying sharhini tahqiq edan mardum, G'ubor
ila bayozi diydai xunbora yozmishlar.

Gulistoni sari ko'ying sifotin bob-bob, ey gul
Xati rayhon ila jadval chekub gulzora yozmishlar.

Girub mayxona qilsang takallum, jon bo'lur shaksiz, Musavvirlar
na suratkim daru devora yozmishlar.

Iki satr aylayub ul ikki maygun la'llar vasfin,
Go'ranlar har birin bir chashmi gavharbora yozmishlar,

Muharrirlar yozonda har kima olamda bir ro'zi,
Bango har kun dili sadporadan bir nora yozmishlar.
Yozonda Vomiqu Farhodu Majnun vasfin ahli dard, Fuzuliy
odini go'rdim sari tumora yozmishlar.

Aliakbar Sobir.

Savdogar va o'g'il

Bir savdogar o'z do'konida
Savdo qilar o'g'li yonida
Savdo rasmin toza olgan yod:
Sotardi kim, olardi ziyod. Makr-u
nayrang tutgan har ishi, Aldov
edi olish-berishi.

O'g'il olib undan andoza,
Qalloblikni o'rgandi rosa. Bir
kun ota hech nima demay, O'z
ishi-la ketdi ko'rinmay.

O'g'il dedi: - Shu fursat qulay,
Otam yo'g'-u, puldan o'maray.
Qo'l kassada, ko'zi oladir,
Shu choq ota kelib qoladir.
Dunyo tordir ota ko'ziga,
Bir musht tushdi o'g'il yuziga.
Do'kon kirib, nuroniy bir chol,
Dedi: - O'g'lim menga quloq sol!

Nima eksang – olasan shuni,
Hunaringga o'rgatding buni.
Tarbiyaga farzand muhtojdir, Ota
ishi unga bir tojdir.
Xoh yaxshi-yu, xoh yomon ishlar, Bari
sendan, bil, o'rganishar!

Sen halolmi – farzanding halol, Sendan
ko'rib o'sar shu nihol!

O'rgimchak bilan ipak qurti

O'rgimchak yam-yashil barglarda bir kuni
Ipak qurtni ko'rib kamsitdi uni. - Muncha
imillaysan, tezroq yur, o'rtoq, To'r ham
to'qirkansan o'lguday no'noq.

Mana, tomosha qil ish sur'atimni, To'r
to'qish mahoratimni! Har kim ko'rib
deydi: - Ishiga qarang, Naqadar tez
to'qir, ustasi farang!

Ipak qurti kulib dedi: - Juda soz,
Sening to'rlaringdan lekin foyda oz.
Sen to'qigan o'sha turli xil parda
Faqat ziyon berar uchragan yerda. Endi
o'z ishimni aylasam bayon,

Mehnatim mahsuli barchaga ayon. Qizlar
kiyar men to'qigan ipakdan ko'ylak, Bas
etaylik bahsni, so'zim yo'q bo'lak.

QOZOQ ADABIYOTI

Abay

Yuragim mening qirq yamoq, Xiyonatchil
dunyodan.

Qanday qolsin omon sog', Zarba
yesa har nedan.

Biri o'ldi, biri yov,
Kimni suysa bu yurak. Kimi
qochqin, kimi dov,
Suyanarga yo'q tirkak.

Keksalik keldi taqab
Unga aslo chora yo'q. Yoshlik-
chi yurar o'ynab Bizga undan
foyda yo'q.

Yuragi qon, g'amgin zot,
Qayrilib boq, men tomon.
Qonga botgan yurakning Xosiyatin
et bayon.

O'LAN

O'lan so'zning poshshosi, so'z sarasi, Qiyindan
qiyiltirar er donasi.

Tilga yengil, yurakka iliq tegib,
Ten tekis, silliq kelsin aylanasi.

Saralanmay bulg'ansa so'z orasi, Bu
oqinning bilimsiz bechorasi. Ham oqin,
ham tinglovchi ko'ni nodon, So'z
tanimas bul yurtning bir norasi.

So'z boshi avval hadis, oyat bo'lur, Shirasi
ham ma'nosi g'oyat bo'lur.

Payg'ambar ham so'zini o'lan qilgan,
O'lan aytay, shoyadki ko'nglim to'lur.

O'landay xutba o'qiy keksa mullo,
O'lan aytib yig'lagan valiyullo. Hamma
ham chamasicha o'lan o'qir, O'lan
bilan yozilgan kalimullo.

O'langa ishqimiz bor qadim choqdin,
Lekin qanday naf bo'lur maqtanmoqdin.
Ichi zar, sirti kumush so'z yaxshisin
Keltirar kim ham bor mo'l qozondin.

So'zni chertib so'zlasang har kim siylar, Maqol
qo'shib so'zlarkan keksa biylar.

Oqinlari beaql, nodon ekan,
Bekor so'zni teriday nuqul iylar.

Qo'lida ham qo'bizi, ham do'mbira,
Hammaga maqtov o'qir, qo'ymas sira,
O'lan aytib xayr tilar elni kezib,
So'z qadrin yerga urar, bo'lib xira.
Mol uchun so'zni bezar, vijdon sotar,
Mol uchun bo'yin egar, molday yotar.
Mol uchun ham aldaydi, ham avraydi, E
xudo, shu oqinlar qachon qotar?

Boylarni maqtayverib so'z qolmabdi,
O'lan aytib, mol yig'ib, boy bo'lmabdi.
O'lanning qadri ketdi el ichida,
Qadrini ketkizganlar yo'qolmabdi.

Keksa biydek maqolga burmagayman, Yo
oqindek xayr tilab yurmagayman. So'zim
o'zga, tinglovchi, sen ham tuzal,
Behuda gandan suhbat qurmagayman.

El chongan botirlardan so'ylab bersam,
Oshiqlar, ma'shuqlardan kuylab bersam.
Anchayin hangoma deb tinglardingiz, So'zlarning
sarasini so'ylab bersam.

Ammo aql chaqirilmagan mehmon emish, Aqli
borga bunday umr zindon emish.

Kechiring, nodonlarga tegib o'tsam,
Bu elda to'g'ri aytgan yomon emish.

To'g'ri so'zlik o'lanim, o'zing ko'rkam, Mayli,
tatimasa ham so'yla bardam.

Bu yurt so'z oshig'imas, mol oshig'i,
Roziman, mingdan biri tushunsa ham.

O'zi bilan yovlashgan yurtim, tingla!
O'zi bilan dovlashgan yurtim, tingla!
Dardingga davo bo'lsin o'lanlarim,
Bir-birini ovlashgan yurtim, tingla!

Nahot senda qolmagan nomus va or?
Nahot nomus va insof emas darkor?
Teran o'y, teran ilm yo'ling ochsin,
Yolg'on o'lan va so'zdan odam bezor.

Nasihatlar

(O'ttizinchi so'z)

O'ttizinchi so'z. Bizda bir maqtanchoqlik degan yaramas narsa bor. Asli shu narsaning nima keragi bor o'zi? Zotan, bu – or-nomussizlik, nodonlik, o'ysiz-xayolsizlik hamda na botirlik va na odamgarchilikdan xabari yo'qlikning alomatidir! Tag'in, bezrayib turib: "E,

bor xudoyo! Kimdan kim ortiq ekan shunchalik! Birovning nasibasini birov topib berarmidi hech? Kimning boshi kimning egari qoshida yuribdi... Birov mening qozonimni qaynatib beribdimi, yo men birovning qo'liga qarab qolibmanmi?" – deb keriladi.

O'ttiz birinchi so'z. Kishi eshitgan narsasini unutmaslik uchun to'rtta shart bor: avvalo, buning uchun zehqli bo'lmoq kerak; ikkinchidan, bir narsani ko'rganda yo eshitganda – unga chin yurakdan ixlos qo'yib, fahm-faosat bilan uqib olmoqlik lozim; uchinchidan, eshitganlarini ichida bir necha marta takrorlab, ko'ngilga jo qilmoq kerak; to'rtinchidan, ko'ngilga boshqa narsalarni mutlaqo keltirmaslik va kelsa ham unga zarracha e'tibor bermaslik kerak. Masalan: beg'amlik, beparvolik, o'yin-kulgi yoki qayg'u-hasratga berilmaslik va boshqa narsaga ixlos qo'ymaslik kerak. Aks holda, bu to'rt narsa aql bilan ilmga putur yetkazadigan omillardir...

O'ttiz ikkinchi so'z. Ilm o'rganishni talab qilgan kishi, avvalo, uni bilishi kerak. Buning bir nechta shartlari bor. Bularni bilmay turib, o'rganilgan ilm yuqmaydi.

Avvalo, o'rganilayotgan ilm-hunarni oxir bir kun kelib biron kori-holimga yarab qolar, deb o'rganmasdan, hayotda uni turmushga tatbiq qilish maqsadida o'rganmoq kerak. Chunki ilmni faqat bilib qo'yish uchungina o'rgansang va shu bilan qanoat hosil qilsang, bunday ilmning ukimga keragi bor? Kishi o'zining bilmagan narsasini bilib o'rgansa – bundan qanchalik huzur-halovat tonishini asti qo'yavering! Agar sen ilmga astoydil mehr qo'yib o'rgansang, senda, yana ko'proq bilsam ekan, degan muhabbat paydo bo'ladi. Shundagina sen ko'zing ko'rgan har bir narsani ko'nglingga mahkam tugib, uqib oladigan bo'lasan... Ikkinchidan, ilmni o'rganganda yaxshi niyat bilan o'rganish kerak. Ammo birov bilan bahs boylashmoq, talashishmoq uchun o'rganish kerak emas. Bahs, avvalo, ko'ngildagi ishonchni mustahkamlash uchun bo'lsa – bu zarar emas, lekin haddan oshib ketsa – kishini tuzatishdan ko'ra ham ko'proq buzib qo'yishi mumkin. Buning sababi, bahs qiluvchilar ko'proq haqiqatni aniqlash uchun emas, balki bir-birlarini yengmoq uchun harakat qilishadi. Bunday bahs xusumatni kuchaytirib, odamgarchilikni yo'qotishgacha olib boradi. Bunday holda asosiy maqsad ilm o'rganish bo'lmay, odamning yuzini yolg'on so'zga buradigan bo'lib qoladi. Bunday maqsad faqat buzuq kishilardagina bo'ladi. To'g'ri

yo'ldan ketayotgan yuzta odamni adashtirgan kishi, egri yo'ldan ketayotgan bitta notavonni to'g'ri yo'lga solgan kishidan satqai ketsin! Bahs – bu ham aslida ilm o'rganishni bir yo'li. Biroq unga ortiqcha hirs qo'yish yaramaydi. Chunki bahsga ortiqcha hirs qo'yishdan mag'rurlik, maqtanchoqlik, xusumat, yolg'onchilik, hatto arzimagan narsadan janjal chiqarish va birovga musht ko'tarish kabi yomon fazilatlar tug'iladi.

Uchinchidan, har bir harakatin tufayli haqiqatga erisha oladigan bo'lsang, o'lsang ham bu yo'ldan qaytma, mahkam tur! Axir o'zing shubha qilgan narsaga o'zgalar qanday qilib ishonch bildirsin? O'zing hurmat qilmagan narsani o'zgalar nega hurmat qilsin?

To'rtinchidan, ilmni ko'proq o'rganish uchun odamda yana ikki narsa bo'lishi lozim: biri – molohaza yuritish, ikkinchisi esa – muhofaza qilimshlikdir. Bu ikki xususiyatni borgan sari kuchaytira borish kerak. Bu narsa kuchaymay turib ilm o'rganish qiyin.

Beshinchidan, ... aql kasali degan to'rt narsa bor, shundan ehtiyot bo'lish kerak. Shularning orasida beg'amlik, benarvolik degan narsa bor, zinhor-zinhor shu narsadan ehtiyot bo'li! Chunki bu, birinchidin – xudoning, ikkinchidan – xalqning, uchinchidan – davlatning, to'rtinchidan – ibratning, beshinchidan – aqlning, or-nomusning dushmanidir; or-nomus bo'lgan yerda bular bo'lmaydi.

Oltinchidan, senda ilmni, aqlni bir me'yorda saqlaydigan fe'l-atvor, xulq degan narsa bor. Sen shu narsani ehtiyot saqla! Ko'rgan narsangga qiziqaversang: yo birovning o'rinli, yo birovning o'rinsiz ganiga ishonib ketsang, yoki to'g'ri kelgan narsalarga ko'ngil qo'yaversang – fe'l-atvoringning buzilib ketishi hech gan emas. Fe'l-atvoring buzilgandan keyin esa o'qib ilm o'rganganingdan hech foyda yo'q. Ko'kragingda unga o'rin bo'lmagandan keyin, uni qaerda saqlaysan! Aksincha, kiroyi ilming bo'lgandan keyin, uni ehtiyot qiladigan fahm-farosating, aqlu-hushing, or-nomusingni qo'ldan bermaydigan fe'latvoring va g'ayrating bo'lsa – nur ustiga a'lo nur! Lekin bu ehtiyotkorliging, shubhasiz, aql uchun, or-nomus uchun qilingan bo'lsin!

O'LJAS SULAYMON

ARG'UMOQ

Yilqisi bilan mashhur,
Qadim qinchoq yerida
Oqib boradi uyub,
Kuygan o'tgan selida
Tomirimda qaynar qon,
Tulporidan saylab ber
Eldiray misli bo'ron,
Ostin-ustun bo'lsin yer
Ellar alanga olsin.

Arg'umoqning qonida
Qiyof, alafar qolsin,
Tuyoqlar to'zonida
Yashash, kurash nimadir,
Bilib qo'ysin arg'umoq
Jasorat bizda taqdir,
Guldirab ketsin so'qmoq.

QIRG'IZ ADABIYOTI

ALI TO'QUMBOEV

Besh yuz yil! Nazar solib ko'r-chi yerni, Shu
yillar o'zgartibdi talay elni.

Va lekin o'zgarta olgani yo'q

Bobomiz – ulug' shoir Alisherni.

Alisherning shuhrati oshar doim, She'riyat
toji shu'la sochar doim.

Ozodlik qo'shiqlari yillar osha,
Erk tongin nur nardasin ochar doim.

Alisher o'lmas shoir bir umrga,
Biz bilan doim kuylab yurar birga. Besh
yuz yil sayrab kelgan tolmas bulbul, Jo'sh
urib, tinmay o'tar tildan-tilga.

Alisher, sening tiling – mening tilim,
Alisher, sening diling – mening dilim,
Kel, birga jo'r bo'laylik, orzularing,
Ochildi chaman bo'lib mana bugun.

TURKMAN ADABIYOTI

ROSTGO'Y BOLA

Bir kishining o'g'li bo'lgan ekan. Ularning qirqta oltin tangasi bor ekan. Otasi shu qirqta oltin tangani o'g'lining eski chononining yoqasiga tikib, uni savdogarlarga qo'shib yuboribdi.

- O'g'lim, hecham yolg'on ganirma, halol bo'lg'in, - deb o'g'liga buyuribdi. Savdogarlar yo'l yurishsa ham mo'l yurishibdi, bir joyga yetib borishganda ularga qaroqchilar hujum qilishibdi. Qaroqchilar o'zaro maslahatlashib, "mana bu yalangoyoqqa u-bu narsa bersakmikan" deyishibdi.
- Ey, yalangoyoq, sendan nimani ham olish mumkin?
- Menda qirqta oltin tanga bor, - deb javob beribdi bola.

- Senda qirqta oltin tanga nima qilsin? –deyishibdiqaroqchilar kulib.

Shunda bola chononning yoqasini yirtib oltin tangalarni ko'rsatibdi.

- Nega bularni bizga ko'rsatding? – deb so'rashibdi qaroqchilar. – Biz senga pul bermoqchi edik, endi bo'la buni ham olib qo'yamiz.

- Hechqisi yo'q, otam halol bo'l, yolg'on ganirma, deb o'rgatgan, - deb javob beribdi bola.

Hayron bo'lgan qaroqchilar savdogarlarga mol-mulkini, nullarini qaytarib berib, halol mehnat qilish uchun qaroqchilikdan voz kechishibdi.

MAXTUMQULI

Ko'ring

Har yigitning aslin bilay desangiz,

Ma'arakada o'tirib turishin ko'ring. Birov

bilan oshna bo'lay desangiz, Avval o'z

so'zida turishin ko'ring.

Uzoq yaqin yo'lga borar bo'lsangiz, Mardlik

qilichini solar bo'lsangiz.

Bir bedovni saylab olar bo'lsangiz

Siynasin, sag'risin kerishin ko'ring.

Bir pul tushsa bir iflosning qo'lga

Ko'ksin ochib, kezar qishning yeliga.

Xaridor bo'lsangiz qizga, kelinga,

Adabin, ikromin, o'tirishin ko'ring.

Mard yigitning ot yarog'i shay bo'lsa,
Etishar har yerda hayda hay bo'lsa,
O'zi Xotam bo'lib, yana boy bo'lsa,
Chor atrofdan mehmon kelishin ko'ring.

Bir nechani qilding moling bisyori,
Bir nechani qilding bir pulning zori
Yaxshi yomon odam zotining bori
Navbat bilan o'tib borishin ko'ring.

Tangri bezor, biling zakotsiz boydan,
Siz ham qoching zinhor ul kelar joydan.
Mardga bir ish tushsa, ko'rar Xudoydan,
Nomardning hamrohdan ko'rishin ko'ring.

Nomard yurar mudom o'limdan qochib, Uyiga
kelganda zahrini sochib.

Mard yigit mehmonga quchog'in ochib,
Nomardning mehmondan qochishin ko'ring.

Zolimlar unutar zikri Ollohni,
Arzon olib, qimmat sotar g'allani.
Sudxo'r noinsoflar halol tillani
Xarom foydasiga berishin ko'ring.

Mard yigitning ishi suhbat soz bo'lar,
Ko'ngli qish bo'lmayin, doim yoz bo'lar,
Yaxshining ko'nglida gina oz bo'lar,
Yomonning kunda bir urushin ko'ring.

Qadrdon, qardoshdan uzoqda turib,
Qadsiz yot bilan qarindosh bo'lib,
Maxtumquli, nosozlarga duch kelib,
Xo'janing, sayidning yurishin ko'ring.

BORMI YORONLAR?

Ishq yo'lin havas aylab,
Kelgan bormi, yoronlar?
Dardimni bayon etsam, Olgan
bormi, yoronlar?

Bo'libman mastu shaydo, Yuz
ustiga ming savdo.

Olamda menday rasvo
Bo'lgan bormi, yoronlar?

Tashim dard, ichim biryon, Nola
qilarman giryon. Meningday
mastu hayron Qolgan bormi,
yoronlar?

Yolg'on dunyoni bo'ylab,
Aylangil kulib o'ynab.

Ishq qozonida qaynab
O'lgan bormi, yoronlar?

Ishq duch kelsa bir mardga,
Aylanar to'zon gardga
Meningday o'zin dardga Solgan
bormi, yoronlar?

Yetti holim o'limga,
Tob etmayin zulmga,
Yig'lamayin holimga
Kulgan bormi, yoronlar?

Maxtumquli, jon cheksa,
Rahm etmaslar yosh to'ksa,
Ishqing yo'lida, yo'qsa
Tolgan bormi, yoronlar?

ROYGON AYLADI

Qayg'u g'amda aziz umrim so'ldirib, Shum
falak azobim roygon ayladi.

Yozgan kitoblarim selga oldirib Ko'zlarim
yo'lida giryon ayladi.

G'aflatda u dushman oldi elimni,
Tarqatdi har yonga do'stu tengimni.
Besh yil bo'yi yozgan kitob she'rimni Qizilboshlar olib, vayron ayladi.

Bir nechamiz qo'li bog'liq qul bo'lib,
Nechalar niyoda sarg'ayib so'lib,
Kimni berib, uning bahosin olib, Har
kimga belgili baho ayladi.

Shum falak azobin menga bildirdi,
Yig'lamoqdan gul yuzlarim so'ldirdi.
Qo'lyozma kitobim selga oldirdi
Dushmanimni Jayhun daryo ayladi.

Nechalar dunyoda bo'ldi bir kishi,
Nechaning tomog'in to'ydirmas oshi,
Nechaning motamdan qutulmas boshi, Kecha
kunduz vovaylato ayladi.

Kuydirar shum falak jabru jafosi,
Inonmang, yolg'ondir ahdi vafosi.
Maxtumquli, yo'q bu so'zning xatosi, Falak
alif qaddim duto ayladi.

EY DO'ST

Sensiz ko'zimga hargiz ko'rinmas jahon, ey do'st, Na
jahon, balki tanda gar bo'lsa yuz jon, ey do'st.

Do'stlaringga bu fe'ling bevafoqlik emasmi?

Jonga jabring orttirding ochganda zabon, ey do'st Ulki ruxsoring ko'rib, ko'ngil qaddingdan
yara,

Jon bermay qutulmoq yo'q hech unga imkon, ey do'st.

Vaslingga umid tutgan uzmish ko'nglini jondan,
Ko'zing jahon jallodi, qoshingdir kamon, ey do'st.

Dasturi zamon budir: mazlumlarga lutf etgil,
Shavqing o'ti avj olsa, bergaysan omon, ey do'st.

Umidli oshiqlarga vasl umidin man' etting.
Oshiqlarga jabr undan bo'lmagay oson, ey do'st!

Maxtumquli bir maxluq, men oshig'u sen ma'shuq,
Gar desang, keraging yo'q, borayin qayon, ey do'st?

YIROQ AYLA O'ZINGNI

Dalli ko'nglim, suhbatini yo'q betavfiq
Nomardlardan yiroq ayla o'zingni. Suyganni
suy, suygan bilan bo'l rafiq, Suymagandan
yiroq ayla o'zingni.

Nomard qayga borsa, xizmat bitirmas,
Mard yigitlar bahosini yitirmas, Nodonga
sir aytsang, ichida turmas, Sirdosh
bo'lma, yiroq ayla o'zingni.

Yomon kishi zar bersang ham, xos bo'lmas,
Jonningni baxsh etsang hamki, rost bo'lmas.
Bo'yni egib, arz etsang da, do'st bo'lmas, Sarxush
bo'lma, yiroq ayla o'zingni.

Maxtumquli, bardosh aylagil dardga,
Jonim qurbon bo'lsin har tanti, mardga,
Og'zi kulgan, qalbi buzuq nomardga Yaqin
bo'lma, yiroq ayla o'zingni.

ADOLAT YAXSHI

Aslo odamzotga achchiq so'z qilmang,
Faqiru miskinga dalolat yaxshi. Baxilga
uchramang kular yuz bo'lmang, Ishni
bitirmoqqa kafolat yaxshi.

Etimni ko'rganda kular yuz bo'lgil,
Qo'ldan kelsa, unga taom tuz bergil,
G'aminni ko'rganda shirin so'z bergil, Chorasiz
qullarga himoyat yaxshi.

Yigit uldir, so'zga aylasa amal,
Qo'ldan kelmas ishga etmasa jadal,
Ollohning amriga qilmagil badal,
Bekka saho, shohga adolat yaxshi.

G'ariblik bir darddir odam o'ldirmas, O'ldirmas,
hayotda lekin kuldirmas.

Bo'riga ojizlik it ham bildirmas,
Albatta, dushmanga siyosat yaxshi.

Maxtumquli, shukr, shirin til berdi,
Daraxtlar ko'karib, samar, gul berdi.
Go'ro'g'li Rayhonga qanday yolbordi?
Omonlik deganga diyonat yaxshi.

AYRILMA

Mast bo'lib yurgancha begona yurtda, Unib
o'sgan o'z yurtiingdan ayrilma. Mag'rur
kaklik kabi nafs degan dardda Domga
tushib, qanotingdan ayrilma.

Tavakkal et xalqqa siring berib bor,
Sabrli bo'l, besabrlik ham bekor. Har
qaerga borsang, nasibangdir yor, Boy
bo'lay deb izzatingdan ayrilma.

Nomardlar ham yaramaslar, nochorlar,
Tuzing ichib, ishing bo'lsa qocharlar, Siringni
fosh etib, aybing ocharlar.

Qadring bilgan ulfatingdan ayrilma.

Gadolarning ko'ngli shohlikni tilar,
Nodon ko'ngli yolg'on so'zni rost bilar.
Beqadrlar dushmaningga do'st bo'lar, Ta'lim
bergan ustodingdan ayrilma.

Birov qashshoq bo'lib, birov boy bo'lar, Har
kishining baxti iqboli kular.

Boshga nima kelsa, tilingdan kelar, Maxtumquli,
xalq yodidan ayrilma.

Bo'lmas

Har ahmoqqa aytma dardu so'zingni,
Hasrat o'ti jisming yoqqancha bo'lmas:
G'ussa bilan dona-dona ko'zingdan
Achchiq yoshlaringni to'kkancha bo'lmas.

Qanoatda, izzatda tut o'zingni,
Tama' qilib, sarg'aytirma yuzingni.
Har nomardga hayf aylama so'zingni,

So'zingning binosin yiqqancha bo'lmas.

Mag'rur bo'lib kezma umring guliga,
Duch bo'larsan bir kun xazon yeliga,
Yuz yil yashab tushsang ajal qo'liga,
Chapingdan o'ngingni boqqancha bo'lmas.

Ko'ngli qora bilan bo'lmanglar ulfat,
Yuqar undan turli-tuman kasofat,
Ko'mirga har necha aylasang izzat,
Manglayga qorasi yuqqancha bo'lmas.

Maxtumquli hargiz topmadi omon,
Yomon tilning zahri tig'lardan yomon, Yomon til yonida zahri ko'p ilon, -
Chaqsa-da bir chiqin chaqqancha bo'lmas.

KO'RDINGMI

Yog'du sochar – ketar zulmat tunida, Mening
sohibjamolimni ko'rdingmi?

Bahor ayyomida, navro'z kunida,
Mening sohibjamolimni ko'rdingmi?

Anqo sifat «huv» deb ko'kka uchgan qush, Kechasi
tirikdir, kunduzi behush.

Navoiy jandalik! egni hirqano'sh,

Mening sohibjamolimni ko'rdingmi?

Qon etibdir falak bag'rim firoqda,
Doimo kezarman yor deb so'roqda,
Ka'ba tarafida, Shomda Iroqda,
Mening sohibjamolimni ko'rdingmi?

Oshiqlar ohida, Qulzum bahrída,
Qubbat-ul islomda, Jayhun nahrída,
Sadro sahrosida, Iso shahrída,
Mening sohibjamolimni ko'rdingmi?

Hazrat Ali etgach, olamga da'vi
Qofdan Ka'ba ketdi hazratning chavi, Yo
iqlim egasi – Ahmad Yassaviy!

Mening sohibjamolimni ko'rdingmi?

Maskan tutmish qora tog'ning burnida,
Alining mulkida, Iso o'rnida,
Erning orqasida, ko'kning qo'ynida
Mening sohibjamolimni ko'rdingmi?

Maxtumquli chekar yorning g'amini,
Kezib tona bilmas ro'yi zaminni,
Yo oti Jabroil, haqning amiri
Mening sohibjamolimni ko'rdingmi?

XARIDORI BO'LMASA

Zamona shundaydir, ko'zga ilmaslar Har
yigitning qo'lda bori bo'lmasa.

Tilladek so'zing bir pulga olmaslar, Har
kishining e'tibori bo'lmasa.

Tan bir tor qafasdir, jon bir vahshidir, Tilga
kelgan so'zlar ko'ngil naqshidir.

O'tli, suvli do'zax undan yaxshidir,
Har shaharning bir bozori bo'lmasa.

Dunyoda onglidan ongsizi kondir,
Bilmaslar balodir, bilganlar jondir.

U yigitlar odam tilli hayvondir
So'z uqmasa yu, iqrori bo'lmasa.

Yigitga yo'qchilik yomon balodir,
So'zini tengqurdan chetga soladir.

Yomon qiliq do'stni dushman qiladir, Qurib
ketsin el darkori bo'lmasa.

Haq har kimga yaxshi yor bermagandir,
So'zi achchiq, ichi to'la armondir,

Yuz yil yashab, besh kun umr ko'rmagandir, Har
kimning munosib yori bo'lmasa.

Maxtumquli, Haqqa tonshir o'zingni,
Har nomardga sarg'aytirma yuzingni,

O'gitim bor, kel, tark qilgil so'zingni Nega
kerak xaridori bo'lmasa?

MULLANAFAS

GULISTONIMA

Keldi qalam qoshli qiz Jilva
qilib yonima.

Kipriklari misli tig'
Botar mening jonima.

Men dedim: "Ey yuzi gul. Xizimatingda
banda gul.

Qahring qo'y-da, sabr qil,
Tashna bo'lsang qonima".

Men dedim: “Bu jon talosh, Ko’zim
to’kar qonli yosh.

Boqmading bir, bag’ritosh,
Holi narishonima.”

Bir shaydo bulbul bo’lsam, Yona-yona
kul bo’lsam.

Bir kecha vosil bo’lsam Toza
gulistonima.

NAMASAN?

Nechuk zotsan – aqlu hushim olibsan, Gavharmisan
yo durmisan, namasan?

Shu’la sochib, olam uzra to’libsan,
Quyoshmisan, qamarmisan, namasan?

Bog’ ichinda bulbulmisan, gulmisan?
Yo bulbulga o’xshash shirin tilmisan?
Novvotmisan, yo qandmisan, bolmisan?
Shirinmisan, shakarmisan, namasan?

Kipriging xanjari bag’rim tilibdir, Yuzing nuri hijobdan ham o’tibdir,
Telba ko’nglim ko’rib moyil bo’libdir.
Dildormisan, dilbarmisan, namasan?

Oshiqlar aytadi: qoshing xiloldir,
Ta'rifing aylarga tillarim loldir,
Bor bo'lib ko'rinmas nechuk jamoldir, Yo
bir paripaykarmisan, namasan?

Oq yuzingga dona xollar yarashar,
Jonu dilim seni ko'rmoq talashar,
Yuzingga tikilsam, ko'zim qamashar, Oftobmisan,
anvarmisan, namasan?

Sayr etib kezardim gulda, chamanda,
Mening jonim zardob bo'ldi bu tanda,
Tohirbek Zuhraga, ham senga banda, Barchasidan
o'tarmisan, namasan?

KETDIM

Qora ko'zing, qalam qoshing
O'qu yoy deb, qochdim ketdim.
Yaltiraydi qora soching,
Ilondir deb, uchdim ketdim.

Oshiq bo'lib, sayr etmagan,
Labni bilmas qand totmagan.
Tonggacha sabri yetmagan
Guldek yuzing ochdim ketdim.

Bulbul sevar bog' gulini,
Ma'shuq tarar sunbulini,
Chidolmadim, yor belini
Astagina quchdim yetdim.

Yotibdi yastanib malak,
Yopinib baxmalu ipak,
Ochdim eshikni jon halak,
Rahmat nurin sochdim ketdim.

Rayhon mamnun bahor yozdan,
Ko'lning ko'rki tilla g'ozdan,
Ming kelindan, qancha qizdan Shu
narini sevdim ketdim.

Durlar sochar og'zidan yor,
Tilida ming fazilat bor,
Nafas der: bu jahondan zor
Yorni tashlab, kechdim ketdim.

BIR JODU TILSIMLI

Nozanin qomating, xandon yuzlaring
Bir yosh nihol kabi gulli, samarli. Pista
dudoqlaring, bol og'izlaring Oltin
niyoladir qandu shakarli.

Qo'llaring ko'ksingda go'zal bu holing,
O'n barmoqda uzuk gavhar misoli,
Qizil kiyingansan, ipak ro'moling, Onnoq
bo'yinlaring tilla tumorli.

Zulfing o'xshar o'rgimchakning toriga,
Ko'ksing o'xshar qirq chillaning qoriga,
Go'zallar hayrondir kasbu koringga, Bir
jodu tilsimli, qo'li hunarli.

Nafas der: goh yig'lab, gohi kularman,
Gohi ochilarman, gohi so'larman,
Gohi tirilarman, gohi o'larman, Ishqing
yo'li ajib yo'ldir asarli.

BODOMQOVOQLARING

Baxtiyor sevgilim, gul yuzli yorim,
Aylayin bodomqovoqlaringdan.
Bo'ylaring to'biydir, qomating ar-ar Qo'l
uzatib tutsam butoqlaringdan.

Husning sira ko'zim o'ngidan ketmas,
Har qancha talpinmay, qo'llarim yetmas.
Sensiz oy, oftob olamni yoritmas,
Ko'ksim ravshanlashar yonoqlaringdan.

Qoshlaringni qoqib, ko'zing o'ynaysan, Ibo
bilan oshiq ko'nglin qiynaysan.
Noz aylabon shirin shirin kulgaysan.
Baqbaqang bilinar engaklaringdan.

Ko'nglingni sovutma, sevgilim, bizdan,
Umidimiz ko'ndir, dildorim, sizdan,
Dona dona gul yarashgan gul yuzdan, O'rtanarman
ichsam buloqlaringdan.

Nafas aytar: boqib o'tir yuzimga,
O'zim bilmay, ayb aylama so'zinga.
Oyu quyosh ko'rinmaydi ko'zinga,
Bir shu'la tushibdi iyaklaringdan.

YOY ENDI

Visolingdan ko'nglim gulday ochildi, Hijroningdan
alif qaddim yoy endi.

Yuzing nuri olam aro sochildi,
Sira tug'mas sening kabi oy endi.

Yuzing ko'rishga zor dunyoyi foni,
Yo'lingda gadodir xonlarning xoni,
Sayr ayladim o'n sakkiz ming jahonni, Husningga
barobar yo'q chiroy endi.

Tong yeli zulfigni narishon etar,
Kinriging o'qi dil bag'rim qon etar,
Raqiblar ko'rsa, holimiz tang etar, Ayla
meni o'z qo'yningga jo endi.

Sendan o'zga yorni ko'zim ko'rmasin,
Sensiz zavqni Olloh menga bermasin,
Sen bo'lmasang, dunyo bir kun turmasin, Vayron
bo'lsin deyman bu saroy endi...

Oq ko'ksingda olma bilan nor bo'lsin, Raqiblar
uzoqdan ko'rib, zor bo'lsin.

Chin oshiqqa SHohimardon yor bo'lsin,
Nafas der: qo'llasin shu mard, hoy endi!

KO'NGLIM

Sevdim bir narini, izladim rohat,
Talpinadi har dam ul yora ko'nglim. Hech
rohat ko'rmadim, yetishdi ofat, Hijron
ichra qoldi ozora ko'nglim.

Go'yo bahor fasli ochilgan guldir,
Kuydim hasratidan suyagim kuldir.
Yor ochilgan gulu ko'nglim bulbuldir,

Yo Rab, qachon qo'nar gulzora ko'nghlim?

Kipriging o'qidan bag'rim tilindi,
O'ldirsang roziman jonim ol endi, Qora
zulfig yuzda yuzga bo'lindi,
Har zulfig yuzingda yuz nora ko'nghlim.

Oshiq bo'lgan quloq solar bu so'zga, Majnunman Layli deb chqibman tuzga,
Mening ko'nghlim yorda, yor ko'ngli o'zga, Sira
qo'l tortmaydi bechora ko'nghlim.

Gul yuzingga ziynat ul qora qoshdir,
Ul qoshga qarasam, ko'zlarim yoshdir,
Holimga rahm etmas bir bag'ri toshdir,
Mudom sargardondir ovvora ko'nghlim.

Senday go'zal kelmas yolg'on jahona,
Ko'rdimu o't tushdi bu shirin jona,
Ko'nghlim qushi hurkib, uchmas har yona, Bog'liq
zulfigdagi bir tora ko'nghlim.

Nafas aytar: boshim, yor, senga qurbon,
Jamoling ko'rganlar husningga hayron,
Men ishqing dardini yashirdim pinhon, Ko'ring,
fosh ayladi oshkora ko'nghlim.

KEZGIN

Ey ko'ngil, dunyo kezsang, boshdan oyoq, bor, kezgin,
Ajratiq oq qorani, tanib do'stu yor kezgin,
Dushman qo'liga tushsang, bo'lib ojiz, xor kezgin,
Dunyo kezsang hamisha noku beg'ubor kezgin,
Qirq yil moya bo'lguncha bir yil bo'lib nor kezgin.

Ikki odam urushsa, yo'lovchidan yo'l berma,
Biriga va'da berib, boshqasiga ol berma,
Avval odamdan qochma, qochsang aslo qo'l berma,
"Jon og'a, o'zing bil!" deb, har nokasga yolvorma,
Qirq yil moya bo'lguncha bir yil bo'lib nor kezgin!

Nafas der: kam deb bilma o'zni teng to'sh, do'st yordan,
Pul topmasang, qarz olma nokas bilan sudxo'rdan,
So'raganda g'am bosar, ko'ngling to'lar g'ubordan,
Tug'mas to'qson to'rt yildan bo'g'oz bo'lsa er erdan, Qirq
yil moya bo'lguncha bir yil bo'lib nor kezgin!

FIROG'INGDAN

Dilbar, yozarman vasfing, O'rtandim
firog'ingdan.

Men tashnani kuydirma
May baxsh et dudog'ingdan.

Yor qomati ar ardir,
Ruxsori uning zardir,
Bu olam munavvardir
Ko'ksingdagi oqingdan.

Hijron eshigin yonsam,
Rahmatda visol tonsam,
Gohi yuzingdan o'nsam,
Goh olma yonog'ingdan.

Qilarman sayri bo'ston,
Aqlimni etib hayron,
Sochingni yozib har yon Shirmoyi
tarog'ingdan.

Ishqingda kuygan qulman, O'zgaga
nazar qilmam.

Yosh g'unchada bulbulman, Yor
haydama bog'ingdan.

Chin oshig'i mastonam,
Labing mayidan qonam,
Ham boshingga qurbonam, Ham
qoshu qovog'ingdan.

Mastona Nafas har dam,
O'ziga istar hamdam.
Garding ko'zimga surtam Gar
chiqsa oyog'ingdan.

SADOSIDIR

Oshiq yig'lab, orzu aylar,
O'z yorining gadosidir. Ishq
yukini otib taylar,
Sanam qoshining yosidir.

Bu dunyoga kelsa olim,
Xalqqa berar qancha ilm,
Oshiq'larga qilsang zulm, Bir
do'stining fidosidir.

Boshlab keldi meni nasib,
Har kishida bordir hisob,
Misli mo'min oshiq Yusuf Kofirlarning
gadosidir.

Ilonning nishi zahrida,
Ulkan ajdarho qahrida,
Yor surati jon shahrida, Odam
o'lsa gunosidir.

Endi mening arzim ortar,
Uzoqlarga yetmas nazar,
Nafas aytar: bizning dilbar Kelin
qizlarning shosidir!

ORZU AYLAR

Ko'nglim qushi qanot bog'lab, Uchsam
deya orzu aylar.

Oltin piyolada sharob
Ichsam deya orzu aylar.

Bulbul ko'ngli xush gulidan,
Mardning ko'ngli chog' elidan,
Nozli yor xincha belidan
Quchsam deya orzu aylar.

Jangga kirsang, o'qlar yog'ar,
Ajal izing noylab yurar,
Xazinadan ko'tarib zar,
Sochsam deya orzu aylar.

Qizlar qolar ko'ngil chog'lab,
Mudom yig'lar yurak dog'lab.
Telba ko'ngil qanot bog'lab, Uchsam
deya orzu aylar.

Cho'llar kezsam Ilyos kabi,
Tog'lar kezsam G'avs kabi
Otash ichra qaqnus kabi
Kuysam deya orzu aylar.

Bundan borsam Hindistonga,
Ko'zim tutsam Dog'istonga,
Bulg'or shahri, Rumistonga, Oshsam
deya orzu aylar.

Men chiqsam Majnun tog'iga,
Kirsam Eramning bog'iga,
Nozli yorning quchog'iga
Tushsam deya orzu aylar.

Do'stlar, mavj ursam ummonda,
Dunyoni tutsam tumandek,
Nafas der mohitobondek Botsam
deya orzu aylar.

Mundarija

So'zboshi.....	
Turkiy xalqlarning ilk adabiyoti.....	
Turk adabiyoti.....	Ozarbayjon
adabiyoti	
Qozoq adabiyoti.....	
Qirg'iz adabiyoti.....	
Turkman adabiyoti.....	
Turkiy xalqlar adabiyotidan namunalar.....	

